ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

6-son
(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
M. Xaydarov	4	Ta'lim tizimida o'quv jarayonini boshqarishning innovatsion xususiyatlari
F. Ibraimova	7	Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash mexanizmlari
B. Karimova	12	O'qituvchi innovatsion faoliyatining mazmuni
A. Ochilov	17	Zamonaviy maktablar tipologiyasining pedagogik yondashuvlari
Z. Ro'ziboyeva	21	Vizual faoliyat orqali tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish
Z. Yulchiyeva	24	Ijtimoiy munosabatlar tizimida intellekt funksiyalari va texnologiyalari
G. Jumaniyazova	27	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlash orqali metakognitiv kompetensiyasini takomillashtirish (O'qish savodxonligi misolida)
O'. Tashbayeva	31	Pedagoglar emotsional intellektini rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish
D. Abdusamiyev	35	Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiyasining yoshga doir xususiyatlari
S. Xonnazarova, M. Xonnazarova	40	Ta'lim oluvchilarda kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish (Biologiya fanini o'qitish misolida)
Z. Choriyeva, M. Berdinazarova	43	Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni shakllantirish
M. Usanova	46	Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni tizimli yondashuv asosida shakllantirishning samarali yo'llari
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
A. Raxmatullayeva	49	Biologiya o'qitishni tashkil etishda mustaqil ta'lim shakllarining umumiy tavsifi
G. Quzmanova	56	Geometriya fanida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish usullari
M. Tuxtayeva	60	Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish
U. Jo'rayev	63	Umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirishga qo'yiladigan bugungi talablar
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
A. Raxmonov	67	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituchilarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuv
B. Rustamov	70	Talabalarda kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion texnologiyasi
R. Egamova	73	Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda pedagogik muammolarni yechishga oid texnologiyalar
I. Komolova	77	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili fanini zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitishning afzalliklari

MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
F. Abdurahimova	80	Oila va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi
N. To'laganova	88	O'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligining o'rni va ahamiyati
D. Luxmonov	93	O'quvchilarga o'zbek milliy hunarmanchilik san'atini o'qitishning zamonaviy texnologik asoslari
O. Avezmurotov, Z. Avezmuratova	**97**	Mirzo Ulug'bek ilmiy merosining fandagi va yangi O'zbekiston ma'naviyatidagi o'rni
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH		
Z. Pardayev	102	O'qituvchining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini loyihalashtirish
JISMONIY TABIYA VA SPORT		
F. Karimov	107	O'rta yoshdagi 45-60 yoshli erkaklar uchun jismoniy tayyorgarlikni hisobga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasini ishlab chiqish
M. Toshboyeva	114	Paradzyudoda texnik-taktik harakatlarga tezkor o'rgatish usullari
MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH		
B. Ergashev, N. Niyazova	120	Malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish
TA'LIMDA SIHAT-SALOMATLIK VA HAYOTIY HAVFSIZLIK		
I. Sheraliyev	125	Covid kasalligidan keyingi sindromda o'pkaning patomorfologiyasi (Klinik tashxisni korreksiyalash va davolash metodlarini tanlash hamda kasallik profilaktikasini amalga oshirish)
PSIXOLOGIYA		
Z. Choriyeva, M. Boynazarova	131	Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy malakalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
З. Каримова	135	Развитие самообразовательной компетентности в процессе обучения иностранному языку студентов высшего учебного заведения
МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
Н. Разокова	140	Совершенствование практической направленности математического образования в общеобразовательных школах(на примере методов решения задач на смеси, сплавы и растворы)

Mamat XAYDAROV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Umumiy pedagogika"
kafedrasi pedagogika fanlari doktori, professor

TA'LIM TIZIMIDA O'QUV JARAYONINI BOSHQARISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimini boshqarishda yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, zamonaviy o'quv bosqichlarini joriy etish kabi maslalar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlar haqida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Ta'lim tizimi, zamonaviy o'quv bosqichlari, oliy ta'lim, ilg'orlik, tizimli, majmuali, tarkibiy, integratsion, modelli, kuzatish.

В статье рассматриваются такие вопросы, как сотрудничество с ведущими зарубежными высшими учебными заведениями в управлении системой образования, внедрение современных этапов обучения. Также даны рекомендации о целях, поставленных перед системой образования.

Ключевые слова. Система образования, современные этапы обучения, высшее образование, передовые, системные, комплексные, структурные, интеграционные, модельные, наблюдения.

The article discusses issues such as cooperation with leading foreign higher education institutions in managing the education system and the introduction of modern educational stages. Recommendations are also given on the goals set for the education system.

Key words. Education system, modern educational stages, higher education, advanced, systemic, comprehensive, structural, integrative, model, observation.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida belgilangan vazifalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar zamirida mamlakatimiz hududlarida yangi, shu jumladan yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy qilinib, zamonaviy va mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, bilimli hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda ham oliy ta'lim muassasalari aynan shunday subyektga aylanishlari talab etilmoqda. Bu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "bizga miqdor emas, sifat kerak. Bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o'rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratsa, o'sha yutadi. Ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish eng muhim vazifamizdir."

Ajdodlarimiz merosini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, azal-azaldan "ta'lim – o'quv jarayoni – boshqaruv" tizimli tushunchalariga alohida e'tibor qaratilib kelingan. Xususan, Abu Nasr Forobiyning boshqaruv tizimida ilm - san'atning maxsus turlari bo'yicha fozil, aqlli va mahoratga ega bo'lgan turli kishilarning o'rni alohida ekanligi ifodalanganligi, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zigacha ma'lum bo'lgan va tarixiy manbalardagi xabarlarni yil hisoblarini qo'llab aniqlashga, ularni saralab, ba'zi o'rinlarda astronomik kuzatuvlari natijasida olgan xulosalari asosida tahlil qilishga uringanligi, shuningdek, idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, jamiyatning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdan iborat ekanligi ta'kidlaganligi, Yusuf Xos Xojibning asarlarida ta'lim ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining

o‘lchov birligi ekanligi keltirib o‘tganligi buning dalilidir.

Albatta, “ta’lim - o‘quv - boshqaruv” tizimli jarayoni muloqotsiz amalga oshmasligini qayd etgan holda, inson jamiyatda doimiy ijtimoiy muhitda bo‘lib, ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish, ish bajarish) faoliyati davomida muloqotga kirishib, o‘zi uchun manfaatli va qulay bo‘lgan muloqotni tanlaydi. Ayniqsa, shaxsiy muvaffaqiyatga erishishi yoxud rahbarlik faoliyatida yuksak pog‘onalarga ko‘tarilishida shunga mos bo‘lgan tanlovni amalga oshiradi. Bu o‘rinda, “boshqaruv” tushunchasi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi obyekt yoki tizimga faol ta’sir ko‘rsatishni anglatadi. Har qanday faoliyat boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyekt tizimlaridan iborat bo‘lib, mazkur tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa insonlar o‘zaro munosabatlarining asosini tashkil etadi va muayyan o‘zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi. Mazkur munosabatlar, odatda ular ixtiyoriy faoliyat hisoblansada, albatta, boshqaruvni talab etadi. Shaxs individual faoliyatida o‘zini o‘zi boshqaradi va ko‘zlangan maqsadli natijaga erishadi. Bu jarayonlar o‘zaro munosabatlar zamirida qurilib, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o‘zaro ta’sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta’siri bosimida kechadiki, bu mohiyatan zaruriy talab sifatida boshqaruvni, bir mushtarak maqsad(lar)ga erishish yo‘nalishida insonlarning o‘zaro faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Kishilik jamiyati rivojlanishi, o‘z navbatida “ta’lim - o‘quv - boshqaruv” tizimining mos ravishda takomillashtirilishini talab etadi. Bu jarayonda boshqaruvning umumiy va tashkiliy tamoyillari konseptual yaxlitlikda ta’lim tizimi takomillashtirilishiga omil bo‘ladi. Masalan, ilg‘orlik tamoyili har qanday ta’lim muasasasi doirasida boshqaruv tizimi zamon talabiga javob berishi, muvoziylik tamoyili esa, boshqaruvidagi jadallikni oshirishga xizmat qiladi.

Aynan ta’lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan ustuvor maqsaddan kelib chiqib, zamon talablariga mos malakali, raqobatbardosh, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyat sohibi bo‘lgan yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Shu bois, mehnat resurslarini boshqarish murakkabligi bilan oliy ta’lim tizimi ajralib turadi. Mazkur boshqarish tizimining markazida professor-o‘qituvchilar, o‘quv-yordamchi hamda ma’muriy - xo‘jalik xodimlar va boshqaruvchi(rahbar)lar turadi.

Ta’lim tizimining oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish va rejalarning bajarilishi aynan subyekt-obyekt ishtirokida amalga oshiriladi. Bu jarayonda inson omilini hisobga olish orqali samaralilikka erishiladi. Shu o‘rinda, ta’lim tizimini boshqarish, xususan “ta’lim - o‘quv - boshqaruv” jarayonida an’anaviy tarzda qo‘llanib kelinayotgan usullarga to‘xtalib o‘tish lozim.

Usul – bu tadqiq qilish yoki ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Majmuaviy tarzda, bu o‘rinda, tadqiq qilish nuqtayi nazaridan boshqaruv obyektini o‘rganishda qo‘llaniladigan quyidagilar ko‘zda tutiladi:

– tizimli;
– majmuali;
– tarkibiy;
– integpatsion;
– modelli;
– kuzatish;
– tajriba-eksperiment;
– sotsiologik kuzatuv kabi usullarni qo‘llash nazarda tutilgan.

Ta’sir ko‘rsatish nuqtai nazardan esa, boshqarish funksiyalarini amalga oshirish jarayonida boshqaruv obyektiga ta’sir o‘tkazishni quyidagilar tashkil etadi:

– funksional tizimosti ob’ektlarni boshqarish;

– boshqarish funksiyalarini bajarish;

– boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi usullar tushuniladi.

Turli yondashuvlar vositasida amalga oshiriladigan funksional boshqaruv faoliyati tizimli - majmuali bo‘lib, unda boshqaruvning aniq va o‘ziga xos usullari qo‘llaniladi. Boshqaruv jamoaga ta’sir ko‘rsatish usullarini o‘zida mujassam etadi, bunda qo‘yilgan maqsadlarga erishish jarayonida faoliyatni uyg‘unlashtirish nazarda tutiladi. Bu jarayonda zamonaviy rivojlanish talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash, aynan “ta’lim - o‘quv - boshqaruv” tizimining zimmasiga yuklatilgan ma’suliyatli vazifa sifatida qaraladi. Xususan, quyidagilar zamonaviy dasturlar asosida tizim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

– mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini tizimli takomillashtirish;

– ta’limning insonparvarligini ta’minlash;

– ta’lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;

– “ta’lim - fan - ishlab chiqarish” integratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning funksionalligini ta’minlash;

– ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yuzaga keltirish;

– tizimga jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzatuvchi kengashlari kiritilishi orqali uni takomillashtirish;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash sifati yuzasidan bitiruvchilarning bandlik monitoringi negizida marketing tadqiqotlari olib borilishini yo‘lga qo‘yish;

– oliy ta’lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish “ta’lim - o‘quv - boshqaruv” tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi. Bugungi kunda asosiy e’tibor mamlakatning strategik maqsad va vazifalarini amalga oshirishda ta’lim tizimini boshqarish dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy ta’lim tizimi tobora yangilanishi, o‘z navbatida, jadal o‘zgarayotgan va murakkablashib borayotgan olamda uning oldiga qo‘yilayotgan talablar asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etilmoqda. Bularning barchasi ta’limni va uning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan sifatini boshqarish murakkablashuviga olib kelmoqdaki, bu jarayonda o‘z-o‘zidan muammoni hal etishning samarali usullarini o‘zlashtirish ta’lim tizimi rahbarlari tashkilotchilik, izlanuvchanlik zamirida ta’lim menejmentini puxta egallashlarini talab etmoqda.

Yuqoridagi keltirib o‘tilgan fikrlar ta’lim tizimida o‘quv jarayonlarini boshqarish xususiyatlarini o‘zida namoyon etgan, “ta’lim - o‘quv jarayoni - boshqaruv” tizimi samaradorligi oshirilishiga omil bo‘lishi barobarida, mamlakatimizda barkamol raqobatbardosh istiqbolli kadrlarni tayyorlash ishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son Farmoni// https://lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizning qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017, -592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017, -104 b.

4. Beruniy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Tanlangan asarlar. - J. I./Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan, 1965.- B. 388.

Feruza IBRAIMOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, (PhD)

KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TARBIYAVIY JARAYONLARNI LOYIHALASHGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kognitiv faoliyat tajribasini egallashga yo‘naltirish, kasbbiy ijodligini rivojlanishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim-tarbiya jarayoni, kasbiy takomillashuv, kognitiv ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy ijodkorlik, bilim, metod, kognitiv-pedagogik faoliyat.

В данной статье анализируется психолого-педагогические условия направления будущих учителей на приобретение опыта познавательной деятельности и развитие их профессионального творчества.

Ключевые слова. Учебно-воспитательный процесс, профессиональное совершенствование, познавательное образование, будущий учитель, профессиональное творчество, знания, метод, познавательно-педагогическая деятельность.

This article analyzes the psychological and pedagogical conditions for directing future teachers to gain experience in cognitive activity and develop their professional creativity.

Key words. Educational process, professional development, cognitive education, future teacher, professional creativity, knowledge, method, cognitive and pedagogical activity.

Zamonaviy texnologik rivojlanish sharoitida kognitiv ta’lim asoslarini ta’lim jarayonlariga joriy etish va faol qo‘llash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Har qanday o‘quv jarayoni o‘qituvchilar tomonidan o‘quv rejasini, ish dasturlarini va boshqa shunga o‘xshash ishlanmalarni tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqilgan axborot-ta’lim resurslarida kognitiv o‘qitish usulining barcha tarkibiy qismlarining to‘g‘ri kombinatsiyasi katta ahamiyatga ega.

O‘qitishning kognitiv usulining asosi mavjud bilimlarni olish va yangi ma’lumotlarni taqdim etish orqali ta’lim tizimini yaratish zaruratidan iborat bo‘lib, ularni amalga oshirish bolalarning xatti-harakatlarini o‘zgartirishga emas, balki bevosita aqliy rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi unda faollik, mustaqillik, mustaqil bilim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Bu jarayon bevosita bo‘lajak o‘qituvchilar bilan muloqot asosida pedagogik amaliyot bosqichida amalga oshiriladi.

Shubhasiz, ta’lim-tarbiya jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘zlarida o‘z-o‘zini bilish, baholash, nazorat qilish hamda ixtiyoriy takomillashish ehtiyojini vujudga keltirish orqali ta’minlanadi.

Kognitivizm – bu psixologiyaning bir tarmog‘i va aqliy jarayonlarga qaratilgan o‘rganishga yondashuv. Kognitiv olimlarning fikriga ko‘ra, o‘rganish bizning ongimiz ma’lumotni qanday qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va keyin ko‘paytirish va ishlatish bilan belgilanadi. Shuning uchun ular o‘rganishni ichki jarayon, jumladan, xotira,

fikrlash, aks ettirish, abstraksiya, motivatsiya va meta-idrok sifatida ko‘rishadi.

Kognitiv ta’lim o‘qituvchi va bo‘lajak o‘qituvchilarning rivojlanishini uyg‘un tarzda amalga oshiradigan jarayondir. Mazkur jarayonning har bir ishtirokchisi o‘z faoliyati davomida ushbu yondashuvga amal qilishi lozim. Bu esa o‘qituvchilardan shaxsiy kuch-quvvat va bilimlarini sarf qilishni talab etadi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘zining kasbiy takomillashuvi va bo‘lajak o‘qituvchilari haqida o‘ylay boshlaydi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishi muhim hisoblanadi. Bu esa uning pedagogik jarayonlarni bilishi, aniq loyihalashtira olishi va maqsadga muvofiq tarzda tashkil eta olishiga xizmat qiladi.

Kognitiv yondashuvning asosiy vazifalari bu barcha aqliy jarayonlar qanday tuzilganligini va qanday ishlashini tushunish va tushuntirishdir. Ta’lim kontekstida bu o‘quvchiga yangi ma’lumotlarni turli kontekstlarda qo‘llash imkonini beradigan strategiyalarni yaratishni anglatadi. O‘qituvchi yangi ma’lumotni o‘quvchining allaqachon ega bo‘lgan bilimlari bilan bog‘laydigan tarzda taqdim etadi, ya’ni mavjud aqliy naqshlarni yaratadi, o‘zgartiradi yoki kengaytiradi.

Kognitivizmning asosiy kuchli tomonlaridan biri uni amaliy qo‘llash uchun keng imkoniyatlardir. Kognitiv olimlarning ko‘plab ishlariga asoslanib, o‘rganish nazariyalari va yondashuvlari paydo bo‘ladi. Ular fikrlash jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda jarayonni qanday loyihalashni tushuntiradilar.

Pedagogik amaliyot jarayonida ijodkor bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqillik darajasi keskin tarzda oshadi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustlarida ishlay olishlari alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadida mustaqil bilim olishga kirishar ekan, birinchi navbatda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishi kerak. Har bir mutaxassis kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlay olishi lozim. Shunga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchilar uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

– o‘zining shaxsiy sifatlarini bilishi va baholay olishi;

– o‘z xulq-atvorida nimani o‘zgartirish zarurligini aniqlashi;

– o‘ziga ta’sir qilish yo‘llari va usullarini egallashi kabilar.

Bugungi vaziyatda o‘qituvchining yuksak pedagogik darajasini nafaqat o‘z faniga oid bilimlarni chuqur o‘zlashtirganligi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodkor shaxs sifatida tarbiyalay olishini ham ifodalaydi.

O‘rganishga quyidagilar ta’sir qiladi:

– fikrlash jarayonlari - talabalar ma’lumotni qanday qabul qilishlari, tartibga solishlari, kodlashlari, saqlashlari va taqdim etilayotgan kontekst ta’sirida olishlari;

– talabalarning oldingi bilimlari va e’tiqodlari, munosabatlari va qadriyatlari;

– avtomatizm, ya’ni axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasi.

O‘quv rejasi tuzilishining umumiy xususiyatlari ham mavjud. Kognitiv olimlar ko‘pincha quyidagilarni taklif qilishadi:

– talabalarning mavjud bilimlari qanday tashkil etilganligini tushunish;

– yangi axborotni joriy bilimlar darajasi va tashkil etilishiga mos ravishda qanday tuzishni aniqlash;

– yangi ma’lumotlarni mavjud ma’lumotlar bilan mazmunli bog‘lash;

– yangi bilimlar mavjud bilimlarga qo‘shilishi uchun tizimli ravishda tegishli fikr-mulohazalar bilan amaliyotni tashkil qilish.

Buning uchun o‘qituvchi ijodkor va novator bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zlarini ijodiy rivojlantirishlariga erishish alohida dolzarb-

lik kasb etmoqda. Bunda, birinchi navbatda, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida qulay pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish lozim. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zlarini kasbiy takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirish;

b) bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini ta'minlash;

v) O'zbekiston maktablari va xorijiy ta'lim tizimida mavjud bo'lgan ilg'or pedagogik tajribalarni muntazam o'rganish va tahlil qila olish.

Pedagogik yondashuvlarga tayangan holda ehtiyojni insonning muayyan holati sifatida baholash mumkin. Mazkur holat ularni nimanidir sinab ko'rishga undaydi. Ehtiyojlarni qondirish jarayoni shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati orqali amalga oshadi. Ehtiyoj inson faolligining manbai hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – shaxsning istaklari va mazkur istaklarni qondirish holatlari orasidagi mutanosiblikni vujudga keltirishdan iborat.

Kognitiv ta'lim jarayonining asosiy omillari:

Tushunish: talaba bilim olish maqsadini tushunishi va uning kelajagiga tubdan ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yangi ko'nikmalarni egallashi kerak.

Xotira: kognitiv ta'limda insonning xotira qobiliyatlari maksimal darajada qo'llaniladi. Yangi materialni chuqur yodlash yuzaki emas, muhim ahamiyatga ega.

Qo'llash: o'zlashtirilgan bilimlarni har tomonlama tahlil qilish nostandart fikrlashning faol rivojlanishiga olib keladi, bu esa muammoning to'g'i yechimini minimal xarajatlar bilan topish imkonini beradi.

Pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun faqatgina ehtiyojning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarning imkoniyatlarini qo'zg'atuvchi quvvatlar ham zarur. Ushbu quvvatlar ularning ijodiy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirishi va aniq faoliyatni amalga oshirishiga ko'maklashadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy moyilligi ham ularni faollikka undaydi.

Kognitiv ta'lim strategiyalariga misollar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'qituvchi talabalardan ma'lum bir sohada oldingi tajribalarini tahlil qilishni va tushunishni so'raydi,o'qituvchi vaziyatli muammoning yechimini topishga yordam beradi,talabalarni o'qitiladigan materialni muhokama qilishga faol jalb qilish, o'qituvchi o'quvchilarga g'oyalar qanday bog'liqligini tushunishga yordam beradi, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini tushuntirish va asoslash jarayonida faol ishtirok etadilar, talabalar tomonidan yangi materialni yanada samarali tushunish va yodlash uchun vizualizatsiya, aqliy xaritalar va simulyatsiyalar qo'llaniladi, har bir talaba o'ziga ushbu o'qitish texnikasi materialni o'rganishda qanday yordam berishi va berilgan savolga javob topishi mumkinligi haqidagi savolni mustaqil ravishda berishi kerak, kognitiv ta'lim o'quvchilarga samarali o'rganishga yordam beradi va o'rganilayotgan materialni oddiy yodlashdan ko'ra to'liq tushunilishini ta'minlaydi.

Kognitiv ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Uzoq muddatli istiqbolga ega bo'lgan barqaror darajada o'rganish ko'nikmalarini rag'batlantirish, oldin orttirilgan tajribani uyg'unlashtirib, o'quvchilarda yangi materialni qo'llash ishonchini rivojlantirishga yordam beradi;

Har qanday qiyin vaziyatni yanada samaraliroq hal qilish qobiliyati yaxshilanadi;

Yangi bilimlarni tezroq va oson o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, yangi ma'lumotlarni turli yo'llar bilan idrok etish va sharhlash qobiliyati shakllanadi, bu esa ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga turtki beradi.

Bo‘lajak mutaxassislarning faoliyati tarkibida yo‘naltiruvchi quvvat sifatida uning mayllari namoyon bo‘ladi. Har qanday faoliyatning samarali kechishi va sifatli natijalar berishi yorqin, kuchli, chuqur kasbiy mayllar mavjud bo‘lgandagina faol harakatlanish istagini tug‘diradi. Bo‘lajak mutaxassis o‘z quvvatlarini to‘liq safarbar qilgan holda qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishi, qulay bo‘lmagan sharoitlarda o‘zi uchun rivojlanish imkoniyatini yaratishi, o‘z maqsadi sari qat’iy intilishi mumkin. Bularning barchasi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilim hamda kasbiy-pedagogik faoliyatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Agar bo‘lajak o‘qituvchilarda bilish mayllari yetarlicha rivojlangan bo‘lsa, mazkur jarayon yanada samarali kechadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy munosabat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash ehtiyoji, o‘z ijodiy quvvatlari, pedagogik ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilish, o‘zini o‘qituvchi sifatida nimoyon qilish imkoniyatini beradi. Bu o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish omili sifatida xizmat qiladi. Bu quyidagilarga bog‘liq:

– bo‘lajak o‘qituvchilarga kasbiy rivojlanish imkonini beradigan qulay pedagogik-psixologik muhitning mavjudligi;

– ishchan hamkorlik muhitini vujudga keltirish uchun birgalikda ishlaydigan ijodiy guruhning shakllantirilganligi;

– pedagogik hamkorlikning rivojlantirilishi;

– ijodiy innovatsion muhitning vujudga keltirilganligi;

– pedagogik amaliyot jarayonida ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagogik jamoa tomonidan yangi g‘oyalar va pedagogik loyihalarning qo‘llab-quvvatlanishi;

– innovatsion faoliyat ichki va tashqi bosimlardan xoliligi va mustaqilligining ta’minlanganligi;

– bo‘lajak mutaxassislarning iqtidorlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda ularning maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirilganligi;

– bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy ijodkorlikka muntazam yo‘naltirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi va tatbiq etilganligi kabilar.

Oliy ta’lim muassasasida bunday muhitni vujudga keltirish bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy jihatdan rivojlantirish uchun muhim yo‘naltiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, bo‘lajak o‘qituvchilar shuni yaxshi bilishlari kerakki, bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faollikka undovchi muhim omil kognitiv o‘quv-bilim muhitini to‘g‘ri tashkil eta olish hamda ularning iqtidori, qiziqishlari, layoqatlarini aniq hisobga olgan holda mazkur jarayonni loyihalashtirish bilan bog‘liq.

Ta’lim jarayoni subyektlari orasida turlicha yo‘naltiruvchi vositalarni maqsadga muvofiq tarzda qo‘llash imkoniyatlari sirasiga o‘quv-bilim jarayonida turli vaziyatlarni maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishni kiritish mumkin.

Insonning har qanday faoliyati, mazkur faoliyatning maqsadi, usullari, natijalari dastlab uning ongida loyihalashtiriladi. Ushbu loyihalar mazkur faoliyatni yo‘naltiradi, unga turtki beradi va muvofiqlashtiradi. Qo‘yilgan maqsadga erishish va kafolatlangan natija olish uchun ta’lim oluvchilar ichki qoniqish va muvaffaqiyatdan quvonish hissini tuyadilar. O‘zining istiqbolini ko‘ra olish, muvaffaqiyatdan quvonish hissini tuyish, bo‘lajak mutaxassislarda ijobiy kechinmalar uyg‘otib ularning ichki faolliklari va ijodiy taraqqiyotlariga turtki bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning yosh xususiyatlari, o‘zlarining ijodiy faolliklari va bilimdonliklari bilan boshqalardan farqlanishlari bo‘lajak o‘qituvchilar intellektining murakkab tarkibini ifodalaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘zlari tan-

lagan kasbni egallashga yo‘naltirilgan ta’limiy faoliyatni amalga oshirishlaridadir. Bunday faoliyatning yetakchi belgilari sifatida kasbiy-o‘quv va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatlarini ko‘rsatish mumkin. Kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini egallash yetuklikka erishishning dastlabki davri hisoblanadi. Bu davr bo‘lajak mutaxassislarda shaxsiy-kasbiy sifatlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bunday sifatlar sirasiga: maqsad sari intilish, qat’iylik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini bilishga intilish, o‘zining shaxsiy kuchiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash hamda ijodiy layoqatlilik kabilarni kiritish mumkin. Muayyan, bir-biriga zid bo‘lgan hayotiy vaziyatlarga duch kelganda bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z ijodiy quvvatlarini faollashtiradilar va aniq maqsadga yo‘naltiradilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni rivojlantrishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida bu sohada mavjud bo‘lgan yondashuvlar, konsepsiyalar, modellar, ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va oliy pedagogik ta’lim jarayoni mazmuniga singdirish alohida ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishning konseptual asoslari, kreativlik o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismini tashkil etishi zarurligini asoslovchi nazariy yondashuvlar va ilmiy metodik tavsiyalar vujudga kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida oliy pedagogik ta’lim mazmunini kognitiv yondashuv asosida loyihalash va tashkil etish zaruriyatini kuchaytirmoqda.

Kognitiv ta’limning asosiy konsepsiyasi materialni chuqur o‘rganishga, mavjud hayotiy tajribaga muvofiq egallangan ko‘nikmalarni to‘liq anglash va amalga oshirishga asoslanadi. Kognitiv ta’lim nazariyasi tashqi va ichki omillar individual fikrlash jarayonlariga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. O‘rganishda kognitiv omillarning yo‘qligi yangi materialni idrok etishda kechikishlar va mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga olib keladi.

Kognitiv ta’limning sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari va strategiyalari ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobat kurashida, shuningdek, keyinchalik ta’lim sohasida jahon reytinglariga kirish bilan inson resurslarini strategik boshqarishda ta’lim muassasalari uchun muhim ustunlikdir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, kognitiv o‘qitish usullaridan to‘g’ri foydalanishga e’tibor qaratgan holda o‘quv jarayonini malakali amalga oshirish sharti bilan pedagogikaning sifati va rivojlanishi umuman pedagogikaning samarali modernizatsiyasi va rekonstruktsiyasiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –T.: O‘zbekiston. 2021. – B. 219.

2. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). – T.: Fan va texnologiya, 288 (2008).

3. Ibraimov Kh.I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018. – No. 3 (27). – P. 44-46.

4. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T.: Shaffof”, 2023, 416-bet.

5. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – T., 2023.

Bibixol KARIMOVA,
Termiz davlat universiteti, “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsent v.b. pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘QITUVCHI INNOVATSION FAOLIYATINING MAZMUNI

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning mazmuni haqida bo‘lib, o‘qituvchining innovatsion kreteriyalariga bog‘liq bo‘lgan fikr-mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar. Egiluvchanlik, originallik, yangicha yechim topa olish, mahsuldorlik, qiziquvchanlik, topqir, ziyrak, yaratuvchanlik, ixtiroga moyil, ijodiy muhit.

В данной статье рассмотрено содержание подготовки учителя к инновационной деятельности, а также представлены комментарии, связанные с инновационными критериями деятельности учителя.

Ключевые понятия. Гибкость, оригинальность, способность находить новые решения, продуктивность, любознательность, находчивость, интеллект, креативность, изобретательность, творческая среда.

This article is about the content of preparing a teacher for innovative activities, and comments related to the teacher’s innovative criteria are presented.

Key words. Flexibility, originality, ability to find new solutions, productivity, curiosity, resourcefulness, intelligence, creativity, inventiveness, creative environment.

O‘quv jarayonining innovattsion holatlari. O‘quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning asosiy yo‘llaridan – o‘quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, liberilizatsiya etish innovatsion holat deb qaraladi. Mazkur jarayonda avvalo darsni insonparvarlashtirish lozim. Uni quyidagilarda kuzatish lozim.

Darsni insonparvarlashtirish:

Hamkorlik; talabaga g‘amxo‘rlik; e’zozlash; kechirimli bo‘lish; o‘zini o‘zi rivojlantirishga muhit yaratish; psixologik sog‘lom muhit yaratish; ijodiy muhit; do‘stona munosabatda ish yuritish; talaba ehtiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini ishga solish; innovatson faoliyatning tuzilishi; ta’limga ijodiy yondashuv; ijodiy faollik; yangilikni kiritishga texnolgik-metodologik yondashuv; yangicha tafakkur asosida yangicha fikrlash; muloqat madaniyati; faollikning reproduktiv, evristik, kreativ darajalari; texnologik jarayonda yangicha loyiha, konseptual tizimli yondashuv asosida yangi ixtirolar; jarayonni yangicha boshqaruv asosida tayyorlash, rejalashtirish va amaliyotga joriy etish.

Navbatdagi fikrimizda kreativlik holatiga to‘xtalamiz va bu yuzasidan quyidagilarni keltirish lozim:

Kreativlik (ijodkorlik) modeli tezkorlik; egiluvchanlik; originallik; yangicha yechim topa olish; mahsuldorlik; qiziquvchanlik; topqir, ziyrak; yaratuvchanlik; ixtiroga moyil; keng doirada o‘ylovchi eruditsiali; kasbiy mahoratli, kompententlik; o‘ziga xoslik, keng fikr yuritishga moyil; innovatson jarayonlarning bosqichlari.

Innovatson ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari “Innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan.

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko‘ri-

nishlari sanaladi:

yangi g‘oyalar; tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar; noan’anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish uslublari.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “Innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mohiyatiga ko‘ra novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir Novaya va innovatsiyalar o‘rtasidagi asosiy farqlar:

Asosiy farqlar	
Novatsiya	**Innovatsiya**
1) amaldagi nazariya doirasida qo‘llaniladi; 2) ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi; 2) ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) subyektlarning faoliyati to‘la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o‘zi ham yangilanadi;

Noan’anaviy ta’limning nazariy g‘oyalari, interfaol metodlar va ta’lim innovatsiyasi. Yuqorida aytib o‘tilganidek “subyekt-subyekt” munosabatlariga qurilgan. Shu sababli talabalarning mustaqil faoliyatiga katta e’tibor qaratiladi. Talaba mustaqil faoliyatini samarali bo‘lishi uchun pedagogdan turli xildagi maslahatlar tizimi talab qilinadi. Shu sababli, xorij tajribasida pedagogik yordamning turli ko‘rinishlari takomillashib bordi va bugungi kunda pedagogik faoliyatiga ko‘ra bir qancha tushunchalar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz.

Tyutor – (lot. tutorem – maslahatchi) faoliyati talabalarga o‘quv jarayoniga moslashish,vujudga keluvchi ayrim savollarga javob topishda yordamlashishga qaratilgan.

Edvayzer – (advisor – qadimgi fransuz so‘zi “avisen”, “o‘ylamoq” so‘zidan olingan) individual holda diplom ishi, kurs ishini ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot olib borish, individual dasturlarni ishlab chiqish jarayonida maslahatchidir.

Fasilitator – (ingl. facilitator, lot. facilis – “yengil, qulay” degan ma’noni bildiradi) — fasilitator guruhlarda faoliyatni tashkil etishda ko‘maklashadi. U guruhlardagi faoliyatni samarali bo‘lishini ta’minlashi, guruhda sog‘lom komunikatsiyani o‘rnatishi, guruhda ishlash qoidalariga va regamentlarga amal qilishni ta’minlashi joiz. Fasilitator guruhda qulay psixologik muhitni yaratadi va faoliyatni samarali bo‘lishiga yordam beradi. Ushbu tushuncha mumtoz psixolog Rodjers Karl tomonidan kiritilgan bo‘lib, inglizzabon mamlakatlarining ta’lim muassasalarida keng foydalaniladi. 1989-yildan buyon Xalqaro bosh fasilitatorlar assotsiatsiyasi (The International Association of Facilitators) faoliyat

yuritib kelmoqda[1]. Bugungi kunda uning faoliyatida 63 ta davlatning 1200 a’zosi ishtirok etmoqda. Fasilitator faoliyati turli modellarda uchraydi. Qozog‘iston milliy tibbiyot universitetida bo‘lajak shifokorlar kasbiy faoliyatning mohiyatini chuqur tushinishi va o‘z shaxsini mutaxassis sifatidagi taraqqiyotini ta’minlashda psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Fasilitator faoliyati har qanday treningning tarkibiga kiradi. Turli amaliy faoliyatlarni onlayn tizimda, guruhlarda tashkil etish jarayonida fasilitatorlik xususiyatlari o‘z aksini topadi.

Moderator – (lot. moderor – me’yorlashtiraman, tekshiraman) qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, talabalarning qobiliyatlarini ochilishiga, bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi.

Supervizor quyidagi to‘rt vazifani bajaradi: o‘qituvchi sifatida o‘rgatadi, fasilitatorlik, maslahatchi, ekspert vazifasini bajaradi.

Superviziya – bu o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, supervizor tomonidan kasbiy faoliyatga oid boshqa mutaxassisga maslahatlar berishni ko‘zda tutadi. Bu faoliyat ayniqsa psixoterapevtlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Superviziya kasbiy kompententlikni oshirishga, bilim, ko‘nikmalarni yanada takamollashtirishga va shaxsiy kamolotga erishishga yordam beradi. Ba’zi mutaxassislarning o‘quv rejasida (Klinik psixologiya) “Supervizorlik” kursi o‘qitiladi. U majburiy, amaliy kurs hisoblanadi. Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan tushunchalar bir ma’no va bir vazifani o‘zida aks ettirmaydi. Ular orasida aniq chegara o‘tkazish qiyin. Ular hammasi maslahat tizimiga ega bo‘lib, qandaydir faoliyatga urg‘u bergan holda olib boriladi. Lekin turli oliygohlarda ushbu faoliyatlar turlircha nomlanishi ham mumkin.

Keyingi vaqtlarda modulli ta’lim tizimida kompleks yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilmoqda. Bugungi kunda aralash ta’lim innovatsiya sifatida kirib kelmoqda.

Deklan Bern “blended learning” (aralash ta’lim) haqida shunday deydi, – “Ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli metodikalardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, individual va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala tanlangan metodikalarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash va kam xarajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi. Aralash ta’lim ko‘proq treninglarni tashkil etishni talab etadi. Treninglarni tashkil etishda quyidagi bosqichlarga e’tibor qaratish lozim:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Maqsadlarni aniqlab olish bosqichi.
3. Treningni o‘tkazish bosqichi.

Bugungi kunda “blended learning” ta’limi deganda kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’lim elementlarining kombinatsiyasi ham tushunilmoqda. Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalandi. Aytish joizki, axborot texnologiyalarining ta’lim tizimidagi ahamiyati be’qiyos, tobora uning yangi ko‘rinishlari taklif etilmoqda. Ta’lim tizimiga ushbu texnologiyalarning kirib kelishi tarixiga nazar tashlasak, XVIII asr oxirida Yevropada, muntazam ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi va ko‘pchilik aholi uchun imkoniyatli bo‘lgan pochta aloqasining joriy qilinishi natijasida “korrespondentlik o‘quvi” paydo bo‘ldi. O‘quvchilar pochta orqali o‘quv materiallari olar va o‘qituvchilar bilan yozma aloqa olib borardilar hamda ilmiy

[1] (The International Association of Facilitators)

ish shaklida yoki ishonch bildirilgan shaxsga imtihon topshirardilar. Rossiyada bunday shakl XIX asr oxirida paydo bo‘ldi. XX asr boshi texnologiyalarning jo‘shqin rivojlanishi radio va televideniyening paydo bo‘lishi masofaviy o‘qitish usullariga yangi o‘zgarishlar kiritdi. Bunday texnologiyalarning kirib kelishi jamiyat hayotining keskin o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar auditoriyasi bir necha yuz barobar oshib ketdi. XX asrning 50-yillaridan o‘quv-teleko‘rsatuvlar tashkil qilina boshlandi. Biroq televideniye va radioda olib borilayotgan bunday o‘quv mashg‘ulotlarining jiddiy kamchiligi mavjud edi, ya’ni o‘quvchida qayta aloqa olish imkoniyatlari mavjud emas edi. 1969-yil Buyuk Britaniyada jahonda birinchi bo‘lib masofaviy ta’lim universiteti ochildi. Universitet “Buyuk Britaniya ochiq universiteti” deb nomlandi. Uning bunday nomlanishining sababi, mashg‘ulot auditoriyalariga tez-tez borish zaruriyati bo‘lmagan hollarda, yuqori bo‘lmagan haq hisobiga masofaviy bilim olish imkoniyatlarini ochish edi.

Jumladan, University of South Africa 1946, Fern Universitat in Hagen (Germaniya, 1974), Milliy texnologiya universiteti AQSh 1984 (injener mutaxassisligi bo‘yicha dasturlar asosida masofaviy mashg‘ulotlar olib boriladi), Xagen ochiq universiteti (Germaniya), INTEC kollej Keyptaun (YuAR), Ispaniya masofaviy o‘qitish milliy universiteti, Britaniya ochiq universitetining ochiq biznes maktabi, Avstraliya hududiy axborot tarmog‘i va hokazolar[2]. Masofadan o‘qitish ta’limining ommaviylashuvida Internet(“online”) ning roli, kommunikatsiyalarning o‘rni, barcha insonlarning internetga barobar ochiq tashrifi uchun yo‘lak WWW (Web) texnologiyasini yaratgan olim Tim Berners Lining xizmati beqiyosdir. Hozirgi kunda masofaviy ta‘lim AQShda mukammal shakllangan bo‘lib, uning vujudga kelishi 1970-yillar oxiriga borib taqaladi. Dunyoda interaktiv ta’lim olishning ko‘plab bazalari vujudga kelyapti. Jumladan, Britaniya ochiq universitetiga qarashli masofaviy ta’lim umumjahon markazining ma’lumotlar bazasini misol qilib keltirish mumkin. Distant uslubida Xalqaro Kengash faoliyat ko‘rsatyapti, “D – Learning” – masofaviy ta’lim olayotgan tinglovchilarning soni tobora ortib boryapti. O‘tgan asrning 80-yillari oxirida shaxsiy kompyuter imkoniyatlarining oshishi o‘qitish tizimini soddalashtirish va avtomatlashtirish bilan bog‘liq yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Kompyuter o‘rgatuvchi dasturlar har xil o‘yinlar shaklida paydo bo‘ldi.

XXI asr kompyuterlari va internet masofaviy o‘qitishning tezkorlik va soddalashtirilgan tartibda keng tarqalishiga imkon berdi. Internet radio va televideniyega nisbatan juda katta siljishlarga olib keldi. Har qanday o‘quvchi bilan u qayerda joylashganligidan qat’i nazar muloqotga kirishish va qaytaruv aloqaga kirishish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Tezkor internetning tarqalishi o‘qish uchun “online” seminar tizimiga o‘tish imkonini berdi va natijada masofaviy o‘qitish tizimi vujudga keldi. Masofaviy o‘qitish jarayonida tinglovchilarning hamma vaqt auditoriyada bo‘lishi talab qilinmaydi. Masofaviy o‘qitishni amalga oshiruvchi ko‘pchilik o‘quv muassasalarida umumiy mashg‘ulotlar o‘tkazib kelinmoqda, ayrim holatlarda ular kechki vaqt yoki dam olish kunlari o‘tkaziladi. Bunday mashg‘ulotlarda tinglovchilarning qatnashishi shart emas, biroq tinglovchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ularning bunday mashg‘ulotlarda ishtirok etishi juda foydali hisoblanadi. Masofaviy o‘qish ta’lim berishda ikki asosiy yondashishni izohlab beradi. Bular kengaytirish va transformatsiya modellaridir. Kengaytirish modelida o‘qitish texnologiyasi hozirgi an’anaviy usuldan deyarli farq qilmaydi. Transformatsiya modeli o‘qituvchi va tinglovchi hamkorligi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vo-

[2] Prof. Dr. Thomas DeiЯinger, Dipl. Hdl. Silke Hellwig Structures and functions of Competency-based Education and Training (CBET): a comparative perspective. (University of Konstanz) ISBN 3-937235-49-3 second in December 2011 p 52.

sitalarini o‘zida mujassam qiladi. Bugun masofaviy ta‘limning yana bir turi “webinar” (1998-yilda bu termin muloqotga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o‘qitishni web – texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi balki, ular bilan muloqotga kirish-ish (og‘zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko‘rinishida fikrlarni almashish, o‘z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog‘i asosida tashkil etiluvchi ta’lim ham subyekt paradigmasiga o‘tmoqda.

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko‘ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg‘or pedagogik (ta’limiy) innovatsiyalar va ularni o‘rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni izchil o‘zlashtiradilar, o‘z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo‘llash borasidagi tajribalarni o‘zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o‘zlarining indiviual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliyot faoliyatida pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko‘p subyektli (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o‘zaro, xususan, ko‘p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta’lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo‘llashga doir tavsiya hamda ko‘rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo‘llashda ta’lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko‘ra har bir pedagog faoliyatini o‘rganilayotgan mavzu, o‘quv materialining mohiyati, shuningdek, o‘z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta’lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

Mohiyatiga ko‘ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

– yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi; – pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; – novatorlik darajasi; – kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; – ijodkorligi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bir necha turga bo‘lish mumkin:

Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish, natijaviylikni ta’minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta‘limda zamonavi pedagogik texnologiyalar. – T., 2011.

2. G‘oziyev E. Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta‘siri. Ma‘rifat gazetasi. 2017-yil.

3. Hoshimov K.S., Nishonova., Inomova M. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996 y.

4. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.,Ishmuhamedov R. Ta’lim, fan va innovatsiya –T., 2017.

Abduraxmon OCHILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ZAMONAVIY MAKTABLAR TIPOLOGIYASINING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy maktablar tipologiyasi ta'lim muassasasining asosiy maqsadlari, jumladan, maktabgacha va boshlang'ich umumiy ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, o'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash orqali ta'lim jarayonini amalga oshirishdan iborat ekanligi aytib o'tilgan. Shuningdek, zamonaviy maktablar tipologiya va asoslarini tanlashda barcha darajadagi (milliy, mintaqaviy, shahar, ta'lim muassasasi darajasi) ta'lim tizimlarining ishlashi va rivojlanish xususiyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar. Dastur, savodxonlik, ko'nikma, nutq, muloqot, dastur, modellashtirish, standart, reja, jadval.

В статье отмечается, что типология современных школ заключается в реализации основных целей образовательного учреждения, включая обеспечение преемственности между дошкольным и начальным общим образованием, сохранение и укрепление здоровья, обеспечение оптимальных условий для физического и умственного развития обучающихся. Также освещаются особенности функционирования и развития образовательных систем всех уровней (национального, регионального, муниципального, уровня образовательного учреждения) при выборе типологии и основ современных школ.

Ключевые слова. Программа, грамотность, навык, речь, общение, программа, моделирование, стандарт, план, таблица.

The article mentions that the typology of modern schools consists in the implementation of the educational process by ensuring the main goals of the educational institution, including continuity between preschool and Primary general education, maintaining and strengthening health, ensuring optimal conditions for the physical and mental development of students. Also, in the selection of typology and foundations of modern schools, the features of the functioning and development of educational systems of all levels (national, regional, municipal, educational institution level) are highlighted.

Key words. Program, literacy, skills, speech, communication, program, modeling, standard, plan, schedule.

Ta'lim tizimining tuzilishini tartibga solish va uning xususiyatlarini aniqlash turli darajadagi ta'limni rivojlantirishning bashoratli modellarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan ta'lim tizimlarini to'plash orqali mumkin. Bunday modellarni ko'rib chiqishning murakkabligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, hudud rivojlanishining tabiiy, iqlimiy, tarixiy, milliy va madaniy xususiyatlari bilan bog'liq. Zamonaviy maktablar tipologiyasining yondashuvlari va asoslarini tanlashda barcha darajadagi (milliy, mintaqaviy, shahar, ta'lim muassasasi darajasi) ta'lim tizimlarining ishlashi va rivojlanishining ushbu xususiyatlarini hisobga olish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori umumiy o'rta ta'lim tizimida ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Zamonaviy maktablar tipologiyasiga oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish uchun “tiplashtirish”, “ta’lim tizimi”, “ilmiy yondashuv” tushunchalarining ma’nosini aniqlab olish kerak.

Ilmiy adabiyotlarda “tiplashtirish” tushunchasi yetarlicha keng tarqalmagan. Ta’lim tizimini boshqarish va rivojlantirish bilan bog‘liq ishlarda bir qator tadqiqotchilar ushbu tushunchani tahlil qilganlar. Shu bilan birga, ushbu tushunchaning juda ko‘p ta’riflari ma’lumotnoma adabiyotlarida, turli ensiklopediyalar va lug‘atlarda keltirilgan.

Zamonaviy maktablar tipologiyasi ta’lim muassasasining asosiy maqsadlari, jumladan maktabgacha va boshlang‘ich umumiy ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash, sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash, o‘quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta’minlash orqali ta’lim jarayonini amalga oshirishdan iborat. Bu tipologiya turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– boshlang‘ich maktab – bolalar bog‘chasi;

– boshlang‘ich maktab – kompensatsion bolalar bog‘chasi – o‘quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishidagi og‘ishlarni malakali tuzatishni amalga oshirish;

– progimnaziya – o‘quvchilar rivojlanishining bir yoki bir nechta yo‘nalishlarini (intellektual, badiiy – estetik, jismoniy va boshqalar) ustuvor amalga oshiradi.

Ta’lim jarayonining ishtirokchilari o‘quvchilar, ularning ota-onalari (qonuniy vakillari), pedagogik xodimlardir. Maktabgacha va boshlang‘ich umumiy ta’limning umumiy ta’lim dasturlari uzluksizligi quyidagi yo‘nalishlarda ta’minlanadi:

– o‘quvchining bilish qobiliyatini rivojlantirish uchun asos sifatida maktabgacha yoshdagi bolada qiziqishni rivojlantirish;

– o‘quvchining intellektual va shaxsiy rivojlanishining yo‘nalishi sifatida ijodiy tasavvurni shakllantirish;

– muloqotni rivojlantirish – kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish qobiliyati ta’lim faoliyati muvaffaqiyati uchun zarur shartlardan biri sifatida.

Amalga oshirilgan umumiy ta’lim dasturlari asosida zamonaviy ta’lim muassasalari quyidagilarni ta’minlaydi:

– o‘quvchilarni shakllantirish va rivojlantirish;

– savodxonlikni o‘rgatish, o‘qish, yozish va hisoblash ko‘nikmalarini egallash;

– kognitiv va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish;

– og‘zaki muloqotning eng muhim vositasi sifatida ona tiliga qiziqishni rivojlantirish;

– madaniyat, mustaqil fikrlash va dunyoning yaxlit manzarasini, shaxsiy gigiena asoslarini va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.

Umumta’lim dasturlari o‘quvchilarning har bir yoshiga xos bo‘lgan faoliyat turlari: o‘ynash, modellashtirish, loyihalash, chizish va hokazolar orqali amalga oshiriladi. Muassasalardagi ta’lim mazmuni zamonaviy maktablar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan, davlat ta’lim standartlari asosida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan ta’lim dasturlari bilan belgilanadi. Boshlang‘ich umumta’lim dasturi bo‘yicha ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etish namunaviy o‘quv rejasiga muvofiq ta’lim muassasasi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘quv rejasi, yillik kalendar o‘quv jadvali va sinflar jadvali bilan tartibga solinadi.

Zamonaviy maktablar tipologiyasi:

1) alohida fanlarni chuqur o‘rgatadigan umumiy o‘rta ta’lim maktabi (bir yoki bir nechta fanlar bo‘yicha o‘quvchilarni qo‘shimcha (chuqur) tayyorlashni ta’minlovchi boshlang‘ich umumiy, asosiy umumiy va o‘rta (to‘liq) umumiy ta’limning umumiy ta’lim dasturlarini amalga oshiradi);

2) gimnaziya (asosiy umumiy va o‘rta (to‘liq) umumiy ta’limning umumiy ta’lim dasturlarini amalga oshiradi, gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quvchilarni qo‘shimcha (chuqur) tayyorlashni ta’minlaydi va boshlang‘ich umumiy ta’limning umumiy ta’lim dasturini amalga oshirishi mumkin);

3) litsey (asosiy umumiy va o‘rta (to‘liq) umumiy ta’limning umumiy ta’lim dasturlarini amalga oshiradi, o‘quvchilarni texnik yoki tabiiy fanlar bo‘yicha qo‘shimcha (chuqur) tayyorlashni ta’minlaydi va boshlang‘ich umumiy ta’limning umumiy ta’lim dasturini amalga oshirishi mumkin).

4) kechki (smenada) ishlaydigan umumiy ta’lim muassasasi – bu har qanday yoshdagi fuqarolariga asosiy umumiy va o‘rta (to‘liq), umumiy ta’lim, oliy ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash, ongli ravishda kasb tanlash va o‘zlashtirish, o‘quvchi shaxsining umumiy madaniyatini shakllantirish uchun asos yaratadigan ta’lim olish uchun real imkoniyat beradigan ta’lim muassasasidir.

5) umumta’lim maktab-internati.

Umumta’lim maktab-internati oilalarga bolalarni tarbiyalash, mustaqil yashash ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy himoya qilish va bolalarning ijodiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida tashkil etiladi. Maktab-internat faoliyati demokratiya va insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi, shaxsning erkin rivojlanishi, umumbashariy foydalanish, avtonomiya va ta’limning dunyoviyligi tamoyillariga asoslanadi. Umumiy ta’lim maktab-internatlarining turlari:

– boshlang‘ich umumiy, asosiy umumiy va o‘rta (to‘liq) umumiy ta’lim maktab-internatlari, shu jumladan alohida fanlarni chuqur o‘rganadigan maktab-internatlar;

– maktab-internatlar;

– litseylar va maktab-internatlar.

6) yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun ta’lim muassasasi.

Ota-ona qaramog‘isiz qolgan yetim bolalar uchun ta’lim muassasalarining turlari:

– mehribonlik uyi (erta (1,5 yoshdan 3 yoshgacha) bolalar uchun), maktabgacha, maktab yoshi, aralash;

– mehribonlik uyi-maktab, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun maktab-internat;

– yetim va ota-ona qaramog‘isiz, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus (tuzatish) bolalar uyi;

– yetim va ota-ona qaramog‘isiz, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus (tuzatish) maktab-internati.

7) qo‘shimcha va maxsus ta’lim muassasalari.

– uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun sanatoriy tipidagi sog‘lomlashtirish muassasasi:

– sanatoriya-o‘rmon maktabi;

– sanatoriya-internat;

– deviant xulqli bolalar va o‘smirlar uchun maxsus ta’lim muassasasi:

ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlar uchun maxsus (tuzatish) umumta’lim maktabi.

– rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan talabalar va o‘quvchilar uchun maxsus (tuzatish) ta’lim muassasasi:

8) maxsus (tuzatish) ta’lim maktablari (rivojlanishdagi kamchiliklarga qarab, “karlar uchun”, “ko‘rlar uchun”, “aqli zaiflar uchun” va boshqa bolalar uchun);

9) psixologik-pedagogik va tibbiy-ijtimoiy yordamga muhtoj bolalar uchun ta’lim

muassasalari:

– diagnostika va maslahat markazi;

– psixologik, tibbiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazi;

– psixologik-pedagogik reabilitatsiya va korreksiya markazi;

– ijtimoiy va mehnatga moslashish va kasbga yo‘naltirish markazi;

– terapevtik pedagogika va tabaqalashtirilgan ta’lim markazi.

10) qo‘shimcha ta’lim muassasalari.

– turli nomdagi va yo‘nalishdagi bolalar va yoshlarning bolalar ijodiyotini rivojlantirish markazlari, saroylari, uylari;

– yosh tabiatshunoslar, texnik ijodkorlik, turizm va ekskursiya stansiyalari;

– klublar;

– san’atning turli turlari bo‘yicha bolalar studiyasi;

– bolalar bog‘i;

– fan va texnika, san’at, sportning turli sohalaridagi maktab; bolalar ijodiyoti muzeyi va boshqalar;

bolalar sog‘lomlashtirish va ta’lim oromgohi.

Zamonaviy maktablarda ta’lim voqealar asosida, har bir yangi sinfda – o‘ziga xos tarzda “shu yerda va hozir” bo‘lgan mazmunni yoritib beruvchi o‘zining mazmuniga ega, ochiq tizim sifatida namoyon bo‘lishi zarur.

Bu maktab tipologiyasining tubdan o‘zgarishini anglatadi. Zamonaviy maktab bitiruvchisi oddiy bitiruvchidan (u yoki boshqa birovning pozitsiyasini muvaffaqiyatli bajarishga qodir shaxs), ta’limning umuman yangi turdagi shaxsga yo‘naltirilgan madaniyatiga o‘tgan hamda o‘z pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Bu, umuman olganda, “madaniyatli shaxs” pozitsiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 26.11.2019-yil. PQ-4537-son.

2. Ibodullaeva I. (2023). Zamonaviy maktab o‘qituvchisi bilan o‘quvchilari o‘zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlari. Сифровизатсия современного образования: проблема и решение, 1(1), 130–132.

3. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro‘ziev H.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari –T.: “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013-y., 200-bet.

Zarnigor RO‘ZIBOYEVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

VIZUAL FAOLIYAT ORQALI TARBIYALANUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada insonning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi – bolaning dunyoni mustaqil idrok etish, u haqida fikr yuritish, orttirilgan tajriba asosida o‘z munosabatini bildirish qobiliyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayonini modellashtirishi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Vizual faoliyat, aksiologik, faoliyat, integrativ yondashuv, aniqladik va vizual faoliyat, psixologik nuqtai nazardan, xotira hajmi, modellashtirish, texnik va ijtimoiy fanlarda.

В статье рассматривается духовно-нравственное развитие человека – способность ребенка самостоятельно воспринимать мир, рассуждать о нем, выражать свое отношение на основе приобретенного опыта. Освещается также моделирование дошкольными образовательными организациями процесса формирования духовно-нравственных качеств своих воспитанников.

Ключевые слова. Изобразительная деятельность, аксиологическая, деятельностная, интегративный подход, определяемая и зрительная деятельность, с психологической точки зрения, объем памяти, моделирование, в технических и социальных науках.

The article reflects on the spiritual and moral development of a person-the child’s ability to independently perceive the world, think about him, express his attitude on the basis of acquired experience. It is also covered that preschool educational organizations model the process of forming the spiritual and moral qualities of their upbringing.

Key words. Visual activity, axiological, activity, integrative approach, defined and visual activity, psychological impairment in consideration, memory size, modeling, technical and Social Sciences.

Har qanday shaxsning, shu jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchisining faoliyati uning oldida turgan muammolarni hal qilish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Bunday holda, tarbiyalanuvchi faoliyatning maqsadlarini aniqlashi va uni amalga oshirish vositalarini tanlashi kerak bo‘lgan faoliyat subyektidir. Har qanday faoliyat faoliyat usulini tanlash va mustaqil fikrlash bilan birga bo‘lishi kerak. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarning ijodiy salohiyatini ochib berish va rivojlantirish va ularni o‘z faoliyatini aks ettirish va tahlil qilishga jalb qilish vazifasi turibdi.

Psixologik nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchisining faoliyati uning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabati jarayonida, hayotiy vazifalarni hal qilishda namoyon bo‘ladigan qasddan qilingan faoliyat sifatida tushuniladi.

Shunday qilib, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish vizual faoliyat vositalari orqali samaraliroq ko‘rinadi. Shu bilan birga, rasm chizish maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun yetakchi tadbirlardan biri sifatida ishlaydi. Bu yoshda chizish zaruriyati sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Maqsadga erishish uchun maxsus ishlab chiqilgan va moslashtirilgan integratsiya texnikasi ishlatilgan: “Ruh haqida suhbatlar”, “Rasm haqida suhbatlar”, “Hikoyani tuga-

tish”, “Rangli o‘yin mashg‘ulotlari”, “Ranglarni idrok etish”, “Rasmlar haqida suhbatlar”, “Qo‘shma rasm”.

O‘qitishda integratsiyaning vazifasi qarama-qarshiliklarni hal qilish asosida sifat jihatidan yangi mahsulotni yaratishdir. Bu shuni anglatadiki, integrativ ta’lim jarayoni doimiy ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirishda, yaxlit pedagogik jarayonni qurishning yangi pedagogik vositalarini ishlab chiqishda amalga oshiriladi. Integratsiyaning ma’nosi shunchaki xulosa emas, balki muammolarni hal qilish orqali qarama-qarshiliklarni hal qilishdir. Shuning uchun integrativ ta’lim yaxlitlikka ega bo‘lib, u turli darajadagi va turdagi qarama-qarshi sohalarning doimiy sintezidan iborat, bu sifat jihatidan yangi natijaga olib keladi. Integrativ yondashuv ham pedagogik jarayonning, ham unga jalb qilingan har bir shaxsning rivojlanishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda bolalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga e’tibor jamiyatning ma’naviy-axloqiy, savodli, boyitilgan, qadriyatlar to‘g‘risida g‘oyalarga ega bo‘lgan va ushbu qadriyatlarga vazifalari vizual faoliyat (badiiy tasvirni ko‘rish, did va uyg‘unlik hissi, dunyoning ma’naviy-axloqiy manzarasini ko‘rish, ranglarni idrok etish) orqali bunday shaxsni shakllantirish aniq yo‘naltirilgan.

Ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish modelining mazmunli bloki aksiologik, faoliyatga asoslangan, integrativ yondashuvlarga asoslangan vizual faoliyat orqali maktabgacha ta’limda bolaning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturni aks ettiradi.

Vizual faoliyatda taqdim etilgan komponentlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganida, tarbiyalanuvchi yangi narsalarni o‘rganishga, boshqa bolalar bilan hamkorlik qilishga, ularga yordam berishga intiladi, bolada atrofdagi dunyoga, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga hissiy va qadriyatli munosabat rivojlanadi.

Kognitiv komponentda ta’limni tashkil etish usullari quyidagi talqinga ega: bu tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni. Ushbu komponentning modeli bolalar bilan rasmlarning reproduksiyalari, ruh haqida suhbatlarni nazarda tutadi, ya’ni ishda og‘zaki, vizual, amaliy, muammoli usullar qo‘llaniladi. Ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga hissa qo‘shadigan materiallar bolalarga badiiy asarlarning og‘zaki shaklida (ertaklar, she’rlar), ma’naviy qadriyatlar haqidagi suhbatlar, vizual shaklda – rasmlarning reproduksiyalari, bo‘yoqlar va boshqa badiiy materiallar bilan tajribalar yordamida taqdim etiladi.

Vizual faoliyat vositalari tufayli bolada paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ular shakl va rang nisbati, rang va ta’m va rangning musiqiyligini ko‘rishdan iborat. Ushbu komponentning shakllanishi ranglarni idrok etish texnikasi, rangli o‘yin mashg‘ulotlari va rasmli suhbatlar yordamida aniqlanadi.

Xulq-atvor komponentining vazifasi vaziyatni hal qilishdan iborat bo‘lgan qo‘shma chizish texnikasini amalga oshirishga yordam beradi: “Sinfga yangi qiz Salima keldi. Salima uyalmasligi va qo‘rqmasligi uchun nima qilish kerak?” Bolalar ushbu muammoni amaliy va muammoli usullarni birlashtirgan qo‘shma (juftlashgan) vizual faoliyatda hal qilishlari kerak, ya’ni vaziyatni hal qilish, syujet va vizual harakatlarni sherik bilan muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi.

Vizual faoliyat orqali ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish modelida ishning turli shakllari keltirilgan: individual, guruhli, frontal. Masalan: ko‘rgazmali qurollar, rasmlar reproduksiyalari, maketlar va tarqatma materiallar (rangli kartalar, rasmlar, chizmalar) ham ijobiy natijalarga erishish vositasidir. Shuningdek, tarbiyalanuvchi musiqiy kompozitsiyalar, ertaklar va hokazolarning hissiy holatini chizishi kerak bo‘lgan vazifalarni

bajarish uchun zarur bo‘lgan suhbatlar, tushuntirishlar, audiovizual vositalar ham qo‘llaniladi.

Ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish modelini bolaning atrofdagi ijtimoiy dunyoga kirishining dastlabki bosqichida qo‘llash maqsadga muvofiqdir, chunki aynan shu davrda axloqiy munosabatlar mustahkamlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishni baholash mezonlarini ishlab chiqishdan maqsad biz tanlagan vizual faoliyat vositalarining samaradorligini aniqlashdir. Mezonlar bolalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishning tarkibiy qismlariga muvofiq ishlab chiqilgan:

– kognitiv komponent – bu ruh g‘oyasi (suhbat usuli), ma’naviy-axloqiy soha g‘oyasi (“Hikoyani tugatish” usuli);

– hissiy-qiymat komponenti – ma’naviyatning hissiy va sezgi sohasini rivojlantirish (rangni idrok etish usuli), ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga hissiy munosabat (rasmlardagi suhbatlar, rangli o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar);

– xulq-atvor komponenti – bu tarbiyalanuvchining atrofdagi (ijtimoiy, tabiiy) dunyoga munosabatining axloqiy yo‘nalishi.

Vizual faoliyat orqali ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko‘rsatkichlari, birinchi navbatda, ma’naviy bilimlardir. “Ma’naviy” – bu dunyoning ma’naviy tomoni haqidagi bilimlarni anglatadi: qalb, sevgi va insoniylik, mehribonlik va olijanob insoniy qadriyatlar, hamdardlik, tushunish, o‘zaro yordam, rahm-shafqatga qodir bo‘lgan tarbiyalanuvchining xatti-harakati bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Ma’naviyat bilan bog‘liq savollarga javob beradigan, rasmlarni batafsil va to‘g‘ri tasvirlaydigan, tasviriy faoliyatning turli vositalaridan (ranglar, chiziqlar, shtrixlar, dog‘lar) foydalangan holda badiiy tasvirlar orqali o‘z his-tuyg‘ularini aniq ifodalaydigan, shakl va rangning kombinatsiyasini ko‘radigan tarbiyalanuvchi yuqori darajaga ega.

Shunday qilib, nazariy, pedagogik va amaliy jihatlarda olib borilgan tahlil ma’naviy-axloqiy sifatlarni (madaniyat, qadriyatlar) shakllantirish va rivojlantirishning mavjud modellarida ma’naviy-axloqiy shakllanishning belgilangan maqsadga erishishga yordam beradigan tarkibiy va muhim tarkibiy qismlari mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu vizual faoliyat orqali ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishning muallifning tarkibiy va mazmunli modeli tarbiyalanuvchining ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish uchun jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi sifatida zarurligini ta’kidlashga imkon beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, www.lex.uz

2. Hasanboeva O. Milliy-ma’naviy qadriyatlarda komil inson tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2011. 141-b.

3. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. – T.: “Universitet”, 2009. 64-b.

4. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug‘ati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 447-b.

5. Usmonov M. Avestoda inson madhi. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2000-yil 20-dekabr.

Zulfizarxon YULCHIYEVA,
TDTU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti

IJTIMOIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA INTELLEKT FUNKSIYALARI VA TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy intellektning funksiyalari va ijtimoiy intellektning asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy intellekt muayyan vaqt uchun asab-psixik holatni, ijtimoiy muhit omillarini va ijtimoiy munosabatlarning qanchalar muvaffaqiyatliligini aniqlanishi hamda uni energiya konsuneratsiyasini talab qiluvchi, emotsional zo‘riqish, stress noqulayliklari, favqulotda holatlarda hamda shaxs inqirozi holatlarida saqlash imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ijtimoiy intellektning funksiyala, intellekt tushuncha, verbal qobiliyat, ijtimoiy kompetentlik, intellektual salohiyat, mutafakkir.

В статье рассматриваются функции социального интеллекта и основные задачи социального интеллекта. Также было высказано предположение, что социальный интеллект может определять нервно-психическое состояние, факторы социальной среды и степень успешности социальных отношений в течение определенного периода времени, а также способность поддерживать его в ситуациях, требующих энергетической консонерации, эмоционального напряжения, стрессового дискомфорта, чрезвычайных ситуаций и кризисов личности.

Ключевые слова. Функционал социального интеллекта, интеллект понятие, вербальная способность, социальная компетентность, интеллектуальный потенциал, мыслитель.

The article covers the functions of social intelligence and the main tasks of social intelligence. It was also thought about the possibilities of social intelligence for a certain period of time to determine the nervous-psychic state, factors of the social environment and how successful social relations are, as well as to maintain it in situations of emotional tension, stress discomfort, emergency situations and personality crises that require energy consuneration.

Key words. The functional of social intelligence, intelligence is understanding, verbal ability, social competence, intellectual potential, thinker.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik boshqaruv tamoyillariga asoslangan huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalarda tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda yoshlarda intellektual salohiyatini yuksak darajaga ko‘tarish jarayonida, xususan, talabalarning kasbiy shakllanishida intellekt dinamikasini o‘rganish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu yo‘lda samarali faoliyat tashkil etilayotgan mazkur sharoitda barkamol avlodni tarbiyalash muammolarining ijobiy hal etilishi respublika aholisining yagona, mushtarak ijtimoiy maqsadining asoslaridan biridir.

Respublikamizda yoshlarning bilim olishlarini izchil, tizimli, uzviy, maqsadli tashkil etish, ularni jamiyatning faol a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishlariga erishish, eng avvalo, mazkur masalaning dolzarb pedagogik-psixologik muammo sifatida keng ko‘lamli va chuqur tadqiq etilishini taqozo etadi. Yoshlarning ijtimoiy voqelik hodisalariga to‘g‘ri baho bera olishlari, ijtimoiy o‘zgarishlar xususida shaxsiy fikrga ega bo‘lishlari ma’lum darajada ularning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlarini talab etadi. Shu o‘rinda talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi bilan intellektual saloxiyatni

oshirib borish masalasi ham muhim hisoblanadi.

Inson tabiat bilan uzviy aloqadorlikdadir. U tabiat bilan aloqa va munosabatda bo‘lmasdan turib, yashay olmaydi. Inson hayotini tabiatdan, tabiiy boyliklardan ayriliqcha holda tasavvur etish mumkin emas.Tabiatni e’zozlash, atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi yo’l-yo’riqlar ajdodlarimizdan asrlar osha ma’naviy meros sifatida ilhom manbai bo‘lib kelgan. Tabiatga mehri kuchli bo’lgan odamning el-ulusga, Vatanga bulgan mexr-muxabbati xam yuksak bo‘ladi. Buning uchun eng avvalo talabalarni ekologik madaniyatli yoshlar qilib tarbiyalashimiz lozim. Bunda ijtimoiy intellekt dinamikasi alohida o‘rin tutadi

Ilmiy manbalarda qayd etilishiga ko‘ra, intellekt lotincha intellestus so‘zidan olingan bo‘lib, u odatda aql-idrok, anglash, tushunish, fahmlash degan ma’noni anglatadi. Intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tizimidan iboratdir. Insonning aqliy taraqqiyotini tadqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmasdan, balki bu muammo qadimgi davrlardan beri mutafakkir, ma’rifatparvar olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Manbaalarda umumiy intellekt tushunchasiga quyidagilarni kiritish ko‘rsatib o‘tilgan:

1. Amaliy masalalarni hal qilish qobiliyati. Odam mantiqiy fikr yuritadi, muammoning barcha tomonlarini ko‘ra biladi; to‘g‘ri yechimga kela oladi, zarur axborotlarning original manbalariga murojaat etadi; barcha dalillarni eshitadi; atrof muhitga ijobiy-madaniy munosabatlari shakllanadi.

2. Verbal qobiliyat. Aniq va ravon tilda gapiradi; o‘qiganini yaxshi tushunish, lug‘at boyligi kuchli va yaxshi; yozma nutqida muammolarga duch kelmaydi; odamlar bilan oson va samimiy muomalaga kirishadi va hokazo.

3. Ijtimoiy kompetentlik. Boshqa odamlarni qanday bo‘lsalar, shundayligicha qabul qiladi; uchrashuvlarga kechikmaydi; ijtimoiy-madaniy munosabatlarda to‘g‘ri xulosa va qarorlarga kela oladi; boshqalarning xohish va extiyojlarini seza biladi; qiziquvchan va hokazo.

Ijtimoiy intellektchi, mustaqil hodisami?

Ijtimoiy intellektning funksiyalariga e’tibor qarataylik:

– O‘zgaruvchan sharoitlarda adekvatlikni va moslashuvchanlikni ta’minlashi;

– taktik va strategik yo‘nalishlarda o‘zaro muvaffaqiyatli mutanosiblik dasturlari va rejalarini shakllanishi, joriy masalalarni hal qilish;

– shaxslararo ijtimoiy madaniy munosabatlardagi voqealarni rejalashtirish va ularni rivojlanishini prognoz qilish;

– motivatsion funksiya;

– ijtimoiy raqobatbardoshlikni kengaytirish(IR).

Ushbu masalaga oid talabalarning dastlabki mavjud bilimlarini aniqlash va ularning mazkur bilish jarayoni bilan bog‘liq tarzda yana qanday ma’lumotlarni bilishni xoxlashlarini aniqlash hamda mashg‘ulot so‘ngida ushbu mavzuni o‘rganish davomida qanday yangi bilimlarga ega bo‘lganliklarini aniqlash maqsadida “B.Bx.B.”- “Bilaman”, “Bilishni xohlayman”, “Bilib oldim” grafik organayzerini mashg‘ulot boshlanishi va oxirida to‘ldirish uchun tavsiya etish mumkin.

Ijtimoiy intellektning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli o‘zaro ekologik ijobiy munosabatlarni shakllantirishdir. Buning darajasi va xarakterini tushungan holda kelajakda bir-biriga ijobiy ta’sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir.

Ijtimoiy intellekt muayyan vaqt uchun asab-psixik holatni, ijtimoiy muhit omillarini va ijtimoiy munosabatlarning qanchalar muvaffaqiyatliligini aniqlaydi, shuningdek uni energiya konsuneratsiyasini talab qiluvchi, emotsional zo‘riqish, stress noqulayliklari, favqulotda holatlarda hamda shaxs inqirozi holatlarida saqlash imkoniyatini beradi.

Ijtimoiy intellekt insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda sodir bo‘ladigan hodisalarni prognoz qilish va ularga tayyor turish imkoniyatini beradi hamda psixologik zo‘riqishlarga bo‘lgan bardoshni mustahkamlaydi.

Shunday qilib insonning aqliy taraqqiyoti va ekologik madaniyatining mutanosibligini tatqiq qilish bugungi kundagi fan oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi;

• Intellekt va ekologik madaniyatni o‘lchash mezonlari, kriteriylari, taraqqiyot ko‘rsatkichlari, o‘ziga xos xususiyatlari, test yaratish va undan turli yoshdagi kishilarni tekshirishda foydalanish xilma-xil ilmiy-nazariy negizlarga qurilgandir.

• Aqliy taraqqiyot (intellekt) va ekologik madaniyat muammosi yuzasidan xilma-xil konsepsiyalar, nazariyalar, yo‘nalishlar, qarashlar, yondashuvlar, turli jabhalar va jihatlar, mavjud bo‘lishiga qaramasdan, psixolog olimlar taraqqiyot darajalarini aniqlash bo‘yicha to‘g‘ri, muvofiq (ratsional, optimal) yo‘l-yo‘riqlar va samarali usullarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

• Shaxsning umumiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jixatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabidir. Barkamol avlod tarbiyasida, uning ekologik madaniyatini shakllantirish, intellektual salohiyatini oshirishda va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o‘rganish hamda dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir.

• Ijtimoiy intellekt va ekologik madaniyatning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli ijobiy ekologik munosabatlarni shakllantirishdir. Ijobiy munosabatlarning darajasi va xarakterini tushungan holda kelajakda bir-biriga ta’sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. 2-to‘ldirilgan nashr. – T.: O‘zbekiston, 2022. – 44 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston, 2017.

3. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabalari mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha Tartibi. – T.: ToshDTU, 10.06.2024. – 6 b.

4. Yulchiyeva Z.N. Boshqaruv psixologiyasi . Darslik. “Nodirabegim – T., 2021. 270b.

5. Qodirov B.R. Ta’lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo‘nalishlari. –T.: O‘zbekiston, 1999.-32 b.

6. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: Universitet, 2000.

7. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – T.: Universitet 2010-yil.

Go‘zal JUMANIYAZOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktaranti, o‘qituvchi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KREATIV FIKRLASH ORQALI METAKOGNITIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (O‘qish savodxonligi misolida)

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ fikrlash orqali metakognitiv kompetensiyasini takomillashtirish aks ettirilgan. Shuningdek, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda o‘qish savodxonligini xalqaro tadqiqotlar orqali kuchaytirish harakatlariga oid metodik va pedagogik tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘qish savodxonligi, metakognitiv kompetensiya, Xalqaro tadqiqotlar, pedagogik mexanizm.

В статье рассматривается совершенствование метакогнитивных компетенций будущих учителей начальных классов посредством творческого мышления. Также даны методические и педагогические рекомендации по усилиям по укреплению читательской грамотности посредством международных исследований при подготовке студентов к педагогической деятельности.

Ключевые слова. Грамотность чтения, метакогнитивная компетентность, международные исследования, педагогический механизм.

The article reflects the improvement of metacognitive competence of prospective primary school teachers through creative thinking. Methodological and pedagogical recommendations regarding the efforts to strengthen reading literacy through international studies have also been made in preparing students for pedagogical activities.

Key words. Reading literatur metacognitive competence, International Studies, pedagogical mechanism

O‘zbekistonni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim sohasida bir qator islohotlar va maqsadlar belgilangan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim sifatini oshirish – ta’lim sifati va uning samaradorligini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirish. Xalqaro tan olingan reytinglar va dasturlar asosida o‘zaro tajriba almashinuvni rivojlantirish.

2. O‘qituvchilarning malakasini oshirish – o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etish. O‘qituvchilarni xalqaro sertifikat va diplomlar bilan ta’minlash, ularni xalqaro malaka oshirish dasturlariga jalb qilish.

3. Raqamli ta’limni rivojlantirish – ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish. O‘quv jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar, masofaviy o‘qitish metodlarini kengaytirish.

4. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish – maktabgacha ta’lim muassasalarining qamrovini oshirish va ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash. Bolalar 6-7 yoshdan maktabga tayyorlash tizimini takomillashtirish.

5. Boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’limni takomillashtirish – boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’limda o‘quv dasturlarini optimallashtirish. O‘quvchilarning aqliy, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirish uchun ko‘rgazmali va innovatsion vositalarni joriy etish.

7. Oliy ta’limni modernizatsiya qilish – oliy ta’limda xalqaro tan olingan standart va reytinglarni joriy etish. Ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining integratsiyasini kuchaytirish. Oliy ta’lim muassasalarining mustaqilligini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

8. Ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish – ta’limni boshqarish va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini ishlab chiqish. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va infratuzilmasini yaxshilash.

Ushbu islohotlar orqali O‘zbekiston 2030-yilgacha xalqaro miqyosda yuqori reyting va standartlarga erishish, ta’lim sifatini oshirish hamda bilimli va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni maqsad qilgan. Xususan, ta’limning dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’lim jarayonini isloh etishda, 2030-yilgacha O‘zbekistonni rivojlantirish konsepsiyasida PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko‘rish ham muhim ahamiyatga ega. Xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekistonning 2030-yilga borib kuchli 30 ta mamlakat qatoriga kirishi maqsad qilingan. Shu doirada PIRLS va boshqa xalqaro baholash dasturlari uchun maxsus platformalar yaratilgan va 2021-yilda 4-sinf o‘quvchilari ishtirokida testlar o‘tkazilgan. Kelgusida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning tayyorgarligini kuchaytirish uchun yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Muvaffaqiyatni ikki tomondan ta’minlash, ayniqsa muhim vazifadir. Birinchi tomoni davlatning ta’lim sifati jahon reytingida oliy darajalarda o‘rin egallashi bo‘lsa, ikkinchi tomondan jamiyat bo‘lib, bu jamiyatning faol shaxslari: ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar alohida rol o‘ynaydi. Avvalo, boshlang‘ich ta’limda xalqaro yutuqlar va natijalar qayd etish uchun oliy ta’lim tizimida faol harakatlanayotgan bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mahoratli metodist, xalqaro eksport va yetuk kadr sifatida shakllanib, o‘z statusini yaratish uchun ilmiy tadqiqotlarni nazariy va amaliy jihatdan kuchaytirish lozim.

1. O‘qish savodxonligi: o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘qish jarayonida qanday qilib samarali bo‘lishini o‘rgatishlari kerak. Bu, o‘qish matnlarini tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

2. Pedagogik ko‘nikmalar: o‘qituvchilar turli o‘qish usullarini qo‘llay olishlari, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishlari zarur.

3. Baholash va tahlil qilish: o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qish darajasini baholay olishlari va ularga kerakli yordamni ko‘rsatish uchun o‘qish natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

4. O‘quv dasturlariga moslashuv: o‘qituvchilar mavjud o‘quv dasturlarini o‘rganish va ularni o‘z darslarida qanday qilib amalga oshirish kerakligini bilishlari kerak.

5. Innovatsion yondashuvlar: o‘qituvchilar o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish uchun innovatsion yondashuvlardan foydalanishlari lozim.

6. Kollaborativ ta’lim: o‘qituvchilar o‘quvchilarga guruhda ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatishlari va o‘zaro hamkorlik muhitini yaratishlari kerak.

Shuni e’tirof etish lozimki, o‘qish savodxonligini takomillashtirishda, avvalo, uning metodologiyasini bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga o‘rgatish orqali ularning kelgusi faoliyatida ta’lim beradigan o‘quvchilarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etgan bo‘lamiz. Metakognitiv ko‘nikmalar yordamida o‘quvchilar o‘z o‘qish jarayonlarini yaxshiroq boshqarib, bilimlarini samarali oshirishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Metakognitivlik – bu o‘z-o‘zini anglash va o‘rganish jarayonini boshqarish qobiliyati. Bu tushuncha ikki asosiy jihatni o‘z ichiga oladi:

1. O‘z-o‘zini bilish – bu o‘z fikrlash jarayonlarini anglashdir. O‘quvchi yoki o‘qituv-

chi qanday bilimga ega ekanini, nimani bilmasligini va ma'lum bir maqsadga erishish uchun qanday strategiyalarni qo'llash kerakligini bilishi mumkin.

2. O'z-o'zini boshqarish – bu o'qish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati. O'quvchi yoki o'qituvchi o'rganishni qanday tartibda olib borishni, qaysi vositalarni qo'llashni va qaysi nuqtalarda qo'shimcha e'tibor qaratishni biladi.

O'qish savodxonligini rivojlantirish orqali kreativ fikrlash va metokognitiv kompetensiyani kuchaytirishda, avvalo biz tatbiq etayotgan fan metodologiyasi tavsiya etadigan asarlarni tahlil etish lozim:

O'qish savodxonligini oshirishga o'rgatish P. David Pearson va Margaret Gallagher: "The Role of Reading in Student Learning". Ushbu asar o'qish jarayonining ta'limdagi ahamiyatini tahlil qiladi va o'qish savodxonligini rivojlantirish strategiyalarini taqdim etadi. Motivatsiya ta'lim jarayonida axborotlarni o'zlashtirish, chuqur bilimlarni egallashda muhimdir. Edward L. Deci va Richard M. Ryan: "Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior". Ushbu kitobda o'z-o'zini motivatsiya qilish nazariyasi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati batafsil ko'rib chiqilgan. G. Reid Lyon: "Reading Development and Difficulties: A Theoretical Perspective". O'qish rivojlanishi va qiyinchiliklari haqida nazariy yondashuvlar taqdim etiladi. Ta'lim sotsiologiyasi uchun Paul Willis: "Learning to Labor: How Working Class Kids Get Working Class Jobs". Ushbu asar ta'lim tizimidagi ijtimoiy ta'sirlarni va sinf farqlarini o'rganadi.

Pedagog kadrlarni va talabalarni mahalliy tadqiqotlar bilan tanishtirib borish ham Xalqaro dasturlarni o'rganishda qo'l keladi. O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bo'yicha tadqiqotlar. Masalan: S. S. Rakhmonov: "O'zbekistondagi ta'lim tizimining takomillashuvi". Bu asar O'zbekistonlik o'qituvchilarning ta'limdagi o'rni va o'qish savodxonligiga ta'sirini tahlil qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ fikrlash orqali metakognitiv kompetensiyasini takomillashtirish orqali kelajakdagi reytingni monitoring qilishda yordam beradi:

O'qish va uni tushunish. Matnni tushunish: o'quvchilar matnni qanday tushunishlarini, undagi asosiy g'oyalarni aniqlash va xulosalar chiqarish qobiliyatini ko'rsatadilar. Detallarni ajratish: o'quvchilar matndagi muhim tafsilotlarni tanlab olish va ularni kontekstda ishlatish ko'nikmasini baholaydi. Fikr yuritish va tahlil qilish. Tahlil qilish: O'quvchilardan matndagi muallifning fikrlarini, to'plangan dalillarni va argumentlarni baholash talab etiladi. Fikr bildirish: o'quvchilar matn haqida o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va munosabatlarini bildirishlari kerak. O'qish maqsadini aniqlash. Ma'lumot olish: o'quvchilar matndan kerakli ma'lumotlarni olish va ulardan foydalanish ko'nikmasini namoyon etishlari kerak. O'yin-kulgi va bayonotlar: o'quvchilar o'qish jarayonidan zavq olishlari va matnni baholashlari uchun o'qish motivatsiyasini ko'rsatishlari kerak. O'qish strategiyalari. Strategik yondashuv: o'quvchilar o'qish jarayonida turli xil strategiyalardan foydalanish (masalan: oldindan taxmin qilish, savollar berish) ko'nikmalarini ko'rsatadilar. Matnni baholash. Matnning turlari: o'quvchilar turli matn turlarini (masalan, badiiy, ilmiy, reklamali) tushunish va ularga mos ravishda baho berishlari kerak. Tarjimali mahorat: o'quvchilar boshqa tillarda berilgan matnlarni ham o'qish va tushunish ko'nikmasiga ega bo'lishlari talab etiladi. Baholash jarayonida savollar va uning formatlariga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga beriladigan savollar, masalan, ochiq va yopiq savollar, tanlov savollari, qisqa javoblar va boshqalar kabi turli formatlarda bo'ladi. Baholash mezonlari: har bir savol uchun alohida baholash mezonlari ishlab chiqiladi, bu o'quvchilarning o'zaro taqqoslashini va umumiy ko'rsatkichlarni ko'rishga imkon beradi. Bu mezonlar orqali tadqiqot o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini, tushunishini

va fikr yuritish qobiliyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Natijalar mamlakatlar o‘rtasida taqqoslanishi va ta’lim sifatini oshirishda foydalanilishi mumkin. O‘qish savodxonligida muvaffaqiyatli natija ko‘rsatishda pedagogik yondashuvlar alohida ko‘zga tashlanuvchi strategik harakat hisoblanadi. Faol o‘qitish: o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishlari uchun rag‘batlantirish. O‘qituvchi savollar berib, o‘quvchilarning fikrlarini muhokama qiladi, guruh ishlari va muammolarni yechish vazifalari orqali ularni jalb qiladi. Hamkorlikda o‘qish: o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar bir-biridan o‘rganishadi va birgalikda yechimlar ishlab chiqadilar. O‘z-o‘zini o‘rganish: o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘rganish va fikr yuritish imkoniyatlarini berish. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zlarini baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam berishlari zarur. Maqsadlar va vazifalarni belgilab olish. Bunda o‘qituvchilarning maqsadlari: o‘qituvchi o‘z darslarida aniq maqsadlarni belgilashi kerak. Maqsadlar o‘quvchilarning o‘qish natijalariga ta’sir qiladi. O‘quvchilarning vazifalari: o‘quvchilarga aniq vazifalarni belgilash va ularni bajarishga rag‘batlantirish. O‘zlariga ishonch va motivatsiya yaratishdan iborat. O‘qituvchilarni tayyorlash dastlab oliy o‘quv yurtida tanlov fan sifatida kiritilgan Xalqaro baholash dasturlari fanining ma’ruza, amaliy, seminar va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari orqali talabalarga muhim topshiriqlar berib boriladi. Talabalarda o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun matn strukturasini ishlab chiqishga o‘rgatish, jumladan, PIRLSda beriladigan narrativ matnlar: o‘zida qahramonlar, voqealarni aks ettiradigan hikoyalar; informativ matnlar: mavzular bo‘yicha ma’lumot beruvchi matnlar, masalan, ilm-fan, tarix yoki tabiat haqidagi ma’lumotlar; ko‘rsatmalarga asoslangan matnlar: nima qilish kerakligi yoki qanday jarayonlarni tushuntiruvchi matnlarni kengroq tarzda analiz va sintez qilishga o‘rgatiladi.

Pedagogik ko‘nikmalar: o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik usullarni o‘rgatish, zamonaviy texnologiyalarni darsda qanday qo‘llashni ko‘rsatish.

Kurslar va seminarlar: o‘qituvchilarni o‘qish savodxonligiga oid jahon tadqiqotlari haqida ma’lumot berish va ular uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish.

Motivatsiya berish: o‘qituvchilar o‘quvchilarga doimiy ravishda rag‘batlantiruvchi fikrlar berishlari kerak. Bu o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilar o‘quvchilarga dars jarayonida muammolarni hal qilishda yordam berishi, qo‘llab-quvvatlashi va maslahatlar berishi zarur.

O‘quvchilarni rag‘batlantirish: o‘quvchilarning muvaffaqiyatlari va yutuqlarini tan olish, ularni maqtash.

Tashkiliy mexanizmlar: darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda tashkil etish. Bu o‘quvchilarning diqqatini saqlashga yordam beradi. Bu keltirilgan fikr-mulohazalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kreativ fikrlash orqali metakognitiv kompetensiyasini takomillashtirish orqali muvaffaqiyatga erishishning mexanizmlari sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy pedagogika. (O‘quv qo‘llanma). – T.: “Fan va texnologiya”, 2013.- 860 b.

2. Ziyomuhammadov B., Abdullayeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya.– T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.

3. Выготский Л. С. Педагогическая психология.–М., 1991.

4. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili va o‘qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: “Ilm ziyo” nashriyot uyi, 2004.- 78 b.

O‘g‘ilshod TASHBAYEVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, ‘‘Boshlang‘ich ta’lim’’ kafedrasi o‘qituvchisi

PEDAGOGLAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KOMMUNIKATIV TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada pedagogika fanida bo‘lajak mutaxassislarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish jarayonini nazariy o‘rganishga bag‘ishlangan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida hissiy intellekt, psixologik va pedagogik tushuncha sifatida rivojlanishning nazariy asoslari muhokama qilinadi. Hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy va samarali usullari hamda talabalarning intellektual harakatchanligini rivojlantirish bo‘yicha turli pozitsiyalari keltirilgan, o‘rganilayotgan hodisaning faol rivojlanishiga hissa qo‘shadigan umumlashtirilgan yondashuvlar ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Intellektual harakatchanlik, rivojlanish jarayoni, kelajakdagi mutaxassis, oliy ta’lim muassasasi, hissiy intellekt, his-tuyg‘ular, empatiya, kompetensiya, hissiy holat.

Данная статья посвящена теоретическому изучению процесса развития интеллектуальной мобильности будущих специалистов в области педагогики. Также среди учителей начальной школы обсуждаются теоретические основы эмоционального интеллекта как психолого-педагогической концепции. Представлены современные и эффективные методы развития эмоционального интеллекта, а также различные позиции по развитию интеллектуальной мобильности студентов, выявлены обобщенные подходы, способствующие активному развитию изучаемого явления.

Ключевые слова. Интеллектуальная мобильность, процесс развития, будущий специалист, эмоциональный интеллект вуза, отрицательные эмоции, эмпатия, компетентность, эмоциональное состояние.

This article is devoted to the theoretical study of the process of developing the intellectual mobility of future specialists in the field of pedagogy. Also, the theoretical foundations of emotional intelligence, as a psychological and pedagogical concept, are discussed among elementary school teachers. Modern and effective methods of developing emotional intelligence, as well as various positions on the development of intellectual mobility of students are presented, generalized approaches that contribute to the active development of the studied phenomenon are revealed.

Key words. Intellectual mobility, development process,future specialist, higher education institution emotional intelligence, negative emotions, empathy, competence, emotional state.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘lib, ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mexanizmlarini joriy etish asosida uzluksiz kadrlar tayyorlashni amalga oshirish ta’lim bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli qaror asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy

ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy sohani rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Ushbu Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolidagi rivojlanish bosqichlarni belgilab, sohaga oid fan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida quyidagi asosiy vazifalari etib belgilangan: oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash; zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarni jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hokazo.

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘zaro ta’sir jarayonining ahamiyatini, ya’ni kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi natijalarga erishish mumkinligini inobatga olish zarur:

– shaxsning psixologik xususiyatlarining o‘zgarishi;

– ma’naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi;

– kasbiy kompetentlilik darajasining ortishi;

– o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi baholash ko‘nikmalarining rivojlanishi;

– hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvi; natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvning vujudga kelishi;

– subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi.

Hissiy intellekt – yurak va aqlning to‘qnashuvi. Hissiy intellekt (odatda “EQ” deb qisqartiriladi, hissiy koeffitsient uchun) bu o‘zida ham, boshqalarda ham his-tuyg‘ularni idrok etish, nazorat qilish va baholash qobiliyatidir. Bu tushuncha 1930-yillarda ijtimoiy intellekt bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va 1970-yillarda intellektning turli shakllari bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida paydo bo‘lgan. 1990-yillarda Amerikalik psixolog Daniel Goleman “Emotional Intelligence: Why it Can Matter More Than IQ” nomli kitobini nashr etdi. Kitobda u hissiy intellektning beshta “tarmoqlar”ini aniqladi: his-tuyg‘ularingizni bilish, his-tuyg‘ularingizni boshqarish, o‘zingizni rag‘batlantirish, boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tan olish va tushunish va munosabatlarni boshqarish.

Goleman yuqori EQni samarali biznes rahbarlari orasida umumiy xususiyat sifatida belgilaydi. Uning ta’kidlashicha, hissiy aql bo‘lmasa, rahbar cheksiz energiya va g‘oyalarga, idrok etuvchi va mantiqiy aqlga va ta’sirchan malakaga ega bo‘lishi mumkin, ammo baribir samarasiz va ilhomlantirmaydi. “Eng samarali rahbarlar bir jihati bilan bir xil: ularning barchasi yuqori darajadagi hissiy intellektga ega”, - Daniel Goleman.

Hissiy intellekt besh turkumdan iborat:

– o‘z-o‘zini anglash (his-tuyg‘ularni tan olish va tushunish qobiliyati);

– ijtimoiy ko‘nikmalar (umumiy soha topish va munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati);

– o‘z-o‘zini tartibga solish (impulslar va his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyati);
– hamdardlik (boshqa narsalarni tushunish qobiliyati)odamlarning his-tuyg‘ulari);
– motivatsiya (quvvat bilan maqsadlarga erishish istagi).

Golemanning ta’kidlashicha, yuqori EQ boshqa muhim yetakchilik xususiyatlarini osonlashtiradi. Masalan, boshqa odam nimani his qilayotganini aniqlik bilan tushunish qobiliyati (hamdardlik) bu tuyg‘uni va undan kelib chiqadigan har qanday xatti-harakatlarni boshqarishga imkon beradi. Shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlar yetakchilik uchun muhim, ammo EQ – yosh, tajriba va o‘z-o‘zini aks ettirish bilan o‘sib boradi. Yangi va intiluvchan rahbarlarga tajribali kishilar maslahat beradi; birgalikda, o‘tmish va kelajak jarayonlarini, turli javoblarini va hissiy nuqtalarini muhokama qilishadi. Shu tartibda hissiy yetuklikni oshirishga intiladi. 1999-yilgi tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, xizmat ko‘rsatadigan ko‘p tarmoqli kompaniyaning EQ bo‘yicha yuqori ball olgan hamkorlari boshqa hamkorlarga qaraganda 1,2 million dollar ko‘proq foyda keltirgan. Boshqa tadqiqotlar EQ va samaradorlik o‘rtasidagi o‘xshash bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Aftidan, hissiy muvozanat kasbiy muvaffaqiyatining asosiy omilidir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, pedagoglarning kasbiy faolligini oshirish, refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirish, ma’naviy va madaniy tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni vujudga keltiruvchi shaxslararo aloqalarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagog kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish zarur. Pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlarini tashkillashtirishda subyektning ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, pedagogikaning “tarbiya”-“o‘zini o‘zi tarbiya”, “ma’lumot”-“mustaqil ma’lumot”, “ta’lim"-mustaqil ta’lim” tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi hamda biri ikkinchisining, ikkinchisi uchinchisining ta’minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qilishini inobatga olish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchi tashkiliy va pedagogik madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ijodiy vaziyatlarda madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish dasturi ishlab chiqildi. Dasturning tarkibiy bo‘g‘ini amaliy mashg‘ulotlarda (eksperimental guruhlarda) qo‘llanadigan ijodiy vaziyatlardir.

Yangi psixologik, pedagogik va ta’lim standartlari zamonaviy o‘qituvchidan o‘quvchilarning o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va shaxsiy va ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash uchun aniqlanishi kerak bo‘lgan individual xususiyatlarini aniqlashni talab qiladi. Ko‘pincha o‘qituvchilar intuitiv ravishda (o‘z tajribasi, fikrlash qobiliyatlari va tug‘ma hissiy-psixologik yo‘nalishlari asosida) o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini aniqlaydilar. Ushbu diagnostika usuli materialni o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolardan qochishga yordam beradi, lekin o‘quvchiga o‘z ta’lim strategiyalari va faoliyat usullarini ishlab chiqish va rivojlantirishga imkon bermaydi. Bunday holda, o‘qituvchining “hissiy intellekti” haqida gapirish o‘rinlidir, bu ilmiy jamiyatda o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini tan olish va olingan ma’lumotlardan xatti-harakatlarni tartibga solish, fikrlash va nazorat qilish uchun foydalanish qobiliyatini anglatadi. Hissiy soha – o‘qituvchining “hissiy intellekt” fenomenini o‘rganishning dolzarbligi kognitiv va ta’sirchan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga mahalliy va xorijiy kognitiv olimlarning qiziqishi ortishi bilan asoslanadi. O‘qituvchi talabalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratgan taqdirdagina mumkin bo‘lgan o‘quv jarayonidir. Ushbu atama tadqiqot va jurnalistik adabiyotlarda psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan ommalashgan. Olimlar hissiy intellektni insonning ijtimoiy intellektning bir qismi sifatida qabul

qilishdi, bu uning muloqot qilish va ijtimoiy aloqa qilish qobiliyatini belgilaydi. Biroq, insonning hissiy sohasini chuqur o‘rganish ancha oldinroq – 1986-yilda, hissiy intellektni emotsionallik koeffitsienti yordamida sinab ko‘rishni taklif qilgan Ueyn Peynning “Tuyg‘uni o‘rganish: hissiy intellektni rivojlantirish” nashri bilan boshlangan. Shu bilan birga, emotsionallikni aniqlash ko‘p jihatdan insonning aql-zakovatiga tashxis qo‘yish bilan o‘xshash edi.

Hozirgi vaqtda Daniel Goleman va Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan taklif qilingan hissiy intellektning ikkita qabul qilingan modeli mavjud. Birinchi model hissiy intellektni tizimli ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi esa ushbu hodisaning protsessual tomonini ko‘rib chiqishga qaratilgan. D.Goleman modeli emotsional intellektning besh komponentini o‘z ichiga oladi, xususan:

1) o‘z his-tuyg‘ularini tushunish yoki anglash;

2) his-tuyg‘ularingizni boshqarish;

3) o‘z-o‘zini rag‘batlantirish;

4) boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish yoki anglash;

5) munosabatlarni boshqarish (ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini boshqarish).

Jarayon modeli hissiy intellektning to‘rt jihatini, shu jumladan tegishli ijtimoiy kompetentsiyalarni o‘z ichiga oladi: his-tuyg‘ularni farqlash, mavjud his-tuyg‘ularni anglash, hissiy sohani boshqarish, olingan bilimlardan foydalanish.

Demak, o‘qituvchining hissiy intellekti moslashish tizimining elementi bo‘lib, o‘qituvchi uchun asosiy moslashish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi: ya’ni vaziyatga qarab harakat qilish va ushbu vaziyatga adekvat qarorlar qabul qilish qobiliyatini nazarda tutadi. O‘qituvchining hissiy intellekti kontekstida uning nizolarga chidamliligi bilan bog‘liqligini ta’kidlash kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘qituvchining hissiy intellektining rivojlanmaganligi o‘qituvchi tomonidan talabalarga nisbatan tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishiga yordam beradi. O‘qituvchining tajovuzkorligi o‘smirlarda psixologik travma yaratadigan psixologik zo‘ravonlik turlaridan biridir. O‘qituvchining tajovuzkor xatti-harakati qurboniga aylangan bolalar tajovuzkorlikning kuchayishi, o‘ta aybdorlik tuyg‘usi, tengdoshlariga nisbatan o‘zini past baholash va kamdan-kam hollarda avtotajovuz ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan o‘z joniga qasd qilish tendentsiyalari bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

2. Umarov Alisher Yusubjanovich bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati International scientific-practical conference, November 13,2023 505-508 betlar.

3. Aleksandrova N.P. Hissiy intellekt o‘qituvchilik faoliyatini o‘z-o‘zini tartibga solish omili sifatida. // Moskva davlat biznes boshqaruvi akademiyasining axborotnomasi. Seriya: falsafiy, ijtimoiy. va tabiiy fanlar. 2011. No 5. S. 171-177.

4. Bochaver A.A. Bezorilik tadqiqot obyekti va madaniy hodisa sifatida. / A.A. Bochaver K.D. Xlomov // Psixologiya. 2013. No 3. P. 149-159.

5. Gallo E., Gerzon M.: Kets de Vries M. Qiyin odamlar bilan muomala qilish: hissiy aql. / Mariya Chomaxidze-Doronina tomonidan ingliz tilidan tarjima. 2-nashr. M.: Mann, Ivanov va Ferber: Garvard biznes sharhi matbuoti, 2021. 149 b.

Dilmurod ABDUSAMIYEV,
Turan international university dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI KASBIY IDENTIFIKATSIYASINING YOSHGA DOIR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish shart-sharoitlari, yoshga doir xususiyatlari, kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy-metodologik tahlili bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar. Identifikatsiya, pedagogik hamkorlik, kasbiy identifikatsiya, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, yosh davrlari, psixologik o‘zini-o‘zi belgilash.

В данной статье изложены условия развития профессиональной идентичности учителей начальных классов, возрастные особенности, факторы, влияющие на развитие профессиональной идентичности, теоретико-методический анализ научно-исследовательских работ по теме.

Ключевые слова. Идентичность, педагогическое сотрудничество, профессиональная идентичность, педагогическая поддержка, возрастные периоды, психологическое самоопределение.

The given article describes the conditions for the development of the professional identity of primary school teachers, age-related characteristics, factors influencing the development of professional identity, theoretical and methodological analysis of research papers on the topic.

Key words. Identity, pedagogical cooperation, professional identity, pedagogical support, age periods, psychological self-determination.

Jahonda o‘qituvchilik kasbiga nisbatan zamonaviy yondashuvlarning izchil qo‘llanilishi, pedagogik faoliyatning modifikatsiyalanishi, o‘qituvchilik kasbiga jamiyat talablarining o‘zgarishi ushbu kasb vakillarining shaxsiy va kasbiy jihatdan o‘zini-o‘zi takomillashtirib borishni zaruratini tug‘dirmoqda. Jumladan, ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlar: Germaniya, Finlandiya, AQSH, Rossiya, Koreya, Yaponiya va boshqa shu kabilarda o‘qituvchilik kasbiga oid alohida talablar ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ushbu talablarni bajarishlari lozim bo‘ladi. Shuningdek, jahonda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va salohiyatini baholashga qaratilgan TALIS-xalqaro baholash dasturlarining joriy qilinish fikrimizning yaqqol dalili hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz yig‘ilishda maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtalib o‘tdi. Pedagog xodimlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o‘qituvchilarning ish haqi o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi.

Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo‘shimcha oylik ustamalar to‘lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o‘qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o‘qituvchilarga pensiyasi to‘liq miqdorda berilmoqda. “Hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz, – dedi Prezidentimiz. – Maktablar tizimini rivojlantirish uchun bundan buyon ham mablag‘ni, imkoniyatni aslo ayamaymiz. Kelajak avlodimiz taqdiri, butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarga bog‘liq”.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishning maqbul pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim dolzarblikni taqozo qiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishning asosida zamonaviy ta’lim tizimi talablariga moslashuvini ta’minlash, yosh pedagoglarni pedagogik faoliyat jarayoniga samarali moslashishlari, ularda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika va psixologiyada kasbiy kompetentlikning mohiyati, mazmuni, strukturasi, asoslarini va uni tarbiyalash imkoniyatlarini ta’riflashda turlicha yondashuvlar mavjud. Mualliflar M.G. Davletshin, E. G‘oziev, N.V. Kuzmina va boshqalar bu muammoni psixologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni taklif etsalar, M. Ochilov, U. Mahkamov, S. Ochilov O. Musurmonova, V.A. Slastenin va boshqalar pedagogning o‘z shaxsiyat xarakteristikalarini, kasbiy ahamiyatli tarbiyalanganlik sifatlarini rivojlantirishiga urg‘u beradilar. Mualliflar U. Nishonaliyev, U. Tolipov, N. Sayidahmedov, J.G‘. Yo‘ldoshev, V.V. Serikov va boshqalar esa polivalent kasbiy kompetentlikni asosiy texnologik masalalar beshta guruhining biriga kiritadilar, mualliflar M. Ochilov, U. Maxkamov, S. Ochilov O. Musurmonova, V.A. Slastenin va boshqalar kasbiy tarbiyalanganlik kompetentliligini o‘qituvchining professionalizmi strukturasi ichida deb ta’kidlaydilar[1].

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, hozirga qadar pedagogik, psixologik va metodik ilmiy adabiyotlarda “kasbiy identifikatsiyaning yoshga doir xususiyatlari” ning mazmunini aniqlashning yagona tizimi mavjud emas. Ushbu konsepsiyaning mohiyati to‘liq ochib berilmagan, strukturaning murakkabligi, shuningdek, kasbiy faoliyat jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasining yoshga xos bo‘lgan masalalari yetarli o‘rganilmagan.

Kasbiy identifikatsiyani rivojlanish jarayonida uchta asosiy jihat ajratiladi: birinchidan, kasbiy rivojlanish bosqichlari; ikkinchidan, kasbiy identifikatsiya darajalari; uchinchidan, kasbiy identifikatsiya shakllari. Bugungi kunda tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlarida shaxsning kasbiy faoliyatining bir nechta davrlari asoslangan. Kasbiy rivojlanish bosqichlari quyidagilarni: kasb tanlashga tayyorgarlik bosqichi, kasbni, ta’lim muassasasini izlash va tanlash bosqichi, kasbiy ta’lim va mustaqil kasbiy faoliyat bosqichlari.

Kasbiy identifikatsiya – bu kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ifoda etuvchi mezon sifatida qaralib, mutaxassisning kasbiy identifikatsiyani namoyon etishi uning kasb tanlash bosqichidan boshlanadi. Kasb tanlash jarayoni inson hayotidagi muhim jarayonlardan biri bo‘lib, bunda bolalaning qobiliyatlari, qiziqishlari va individual xususiyatlarini inobatga olib, uni to‘g‘ri yo‘naltirish ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim sanaladi

Shundan kelib chiqib, kasb tanlash jarayonining algoritmiga alohida e’tibor qara-

[1] Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur (president.uz)

tish va bunda mantiqiy ketma-ketlikni o‘zaro samarali muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadvalga qarang).

0-bosqich	Tayyorgarlik ko‘rish bosqichi
1-bosqich	Taxminiy reja ishlab chiqish
2-bosqich	Qiziqishni aniqlash
3-bosqich	Qobiliyatni aniqlash
4-bosqich	Qiziqish va qobiliyatga mos bo‘lgan kasblar haqida makro va mikro darajadagi axborotlarni to‘plash
5-bosqich	Qiziqish va qobiliyatni yana bir bor baholash
6-bosqich	Ta’lim olmoqchi bo‘lgan muassasani aniqlash
7-bosqich	Tanlamoqchi bo‘lgan kasbni foydalilik tamoyiliga asosan o‘rganib chiqish
8-bosqich	Qiziqish va qobiliyatni yana bir bor baholash
9- bosqich	Kasbning hayotiylik davrini belgilash
10-bosqich	Mehnat bozorida ish o‘rni mavjudligi to‘g‘risida axborot
11-bosqich	Tanlamoqchi bo‘lgan kasb haqidagi tasavvurlarni aniq holatlardan kelib chiqib rivojlantirish
12-bosqich	Qiziqish va qobiliyatni yana bir bor baholash

Shuningdek, har bir yosh davrida bo‘lajak mutaxassisda tanlangan kasbga oid sifatlarning namoyon bo‘lishi va shakllanib borishi kasbiy identifikatsiyaning rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Har bir yosh davrida kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan sifatlar:

– maktabgacha yosh davrida – shaxsda bolalarcha dunyoqarash, atrof-olamga qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, jamoaga kirisha olish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, kattalar mehnatini qadrlash, sabr-qanoatlilik sifatlari shakllantiriladi;

– kichik maktab yoshi davrida – shaxsda bilimga intiluvchanlik, taqqoslay olishlik, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativlik, fikrlash, faoliyat yuritish ko‘nikmalariga egalik, ozodalik, saranjomlik, ziyraklik, javobgarlik hissiga egalik, rostgo‘ylik, sezgirlik, g‘ayratlilik, kuzatuvchanlik, jamoada faoliyat yuritish ko‘nikmalariga egalik sifatlari shakllantiriladi;

– o‘spirinlik davrida – shaxsda ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini anglash, tanqidiy fikrlay olish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglash, intizomlilik, tashabbuskorlik, e’tiborlilik, liderlik, rostgo‘ylik, yangilikka intiluvchanlik, kommunikativlik, sinchkovlik, ijodkorlik, bilimga, mehnatga muhabbat, kasb-hunar egalariga hurmat hissi rivojlantiriladi;

– o‘spirinlik davrida – shaxsda voqea va hodisalarni tahlil qila olishlik, intellektual imkoniyatlarini maksimal ishlata olish, o‘zi va o‘zgalarning faoliyatini baholay olishlik, g‘ayratlilik, o‘zgalar mehnatini qadrlay olish, mas’uliyatlilik, o‘zgalar fikrini hurmat qila bilish, tanqidiy fikrlay olish, o‘ziga nisbatan talabchanlik, o‘z ustida tinmay ishlash, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, o‘zi va o‘zgalarning faoliyatini baholay olishlik, tanlagan kasbiga qiziqish va moslashish, yangilikka intiluvchanlik xislatlari rivojlantiriladi;

– yoshlik (talabalik) davrida – shaxs ijtimoiy munosabatlarni tahlil va sintez qila olishi lozim. Ularda keng bilim doirasiga, keng dunyoqarashga egalik, bashorat qila olishlik, o‘zi va o‘zgalarning faoliyatini baholay olishlik, boshqalar uchun mas’uliyatni his qilish, eruditsiya, voqea va hodisalarni tahlil qila olishlik, tanlagan kasbini sevish,

unga ijodiy yondashish, o‘z ustida tinmay ishlash sifatlari rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda o‘zini-o‘zi kasbiy rivojlantirish ko‘nikmasini tarkib toptirish asosida amalga oshiriladi va bu bir nechta omillar ta’sirida kechadi. O‘qituvchilarning rivojlanishi ta’lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning ijobiy natijalarga erishishida muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga e’tibor berish quyidagi omillarni o‘z ichiga olishi kerak:

Doimiy ta’lim va malaka oshirish: o‘qituvchilarga muntazam ravishda yangi pedagogik uslublar, ta’lim texnologiyalari va fanlar bo‘yicha yangilanishlar bilan tanishish uchun malaka oshirish kurslari va seminarlarni taqdim etish kerak.

Resurslarga kirish: o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallari, darsliklar va texnologik vositalarga osongina kirishni ta’minlash, ularning samarali dars o‘tishlariga yordam beradi.

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash: yangi metodika va uslublarni qo‘llashda o‘qituvchilarga mentorlik qilish va pedagogik maslahatlar berish, ularning kasbiy o‘sishlarini rag‘batlantiradi.

Rag‘batlantirish va mukofotlash: o‘qituvchilarning yutuqlarini tan olish va rag‘batlantirish, ularni yanada sifatli va ijodiy ishlashga undaydi. Bu mukofotlar pul mukofotlari, sertifikatlar yoki kasbiy unvonlar bo‘lishi mumkin.

Muloqot va hamkorlik: o‘qituvchilarga o‘zaro tajriba almashishlari va hamkorlik qilishlari uchun platformalar yaratish, ularning o‘zaro ko‘nikmalarini boyitishlariga yordam beradi.

Rahbariyatning qo‘llab-quvvatlovi: maktab rahbariyati o‘qituvchilarning taklif va fikrlarini tinglashi, ularning rivojlanishiga investitsiya qilishi va kerakli o‘zgarishlar uchun sharoit yaratishi kerak.

Shaxsiy va kasbiy o‘sishga yo‘naltirish: o‘qituvchilarni o‘z shaxsiy va kasbiy maqsadlarini belgilashga va ularni amalga oshirishga yordam berish, ularning motivatsiyasini oshiradi.

Ta’lim metodologiyasini yangilash: o‘qituvchilarga zamonaviy ta’lim metodologiyalari va dars o‘tish strategiyalari haqida bilim berish, ularning darslarini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Fikr almashinuvi uchun platformalar: o‘qituvchilarga ularning tajribalarini, muvaffaqiyatlarini va qiyinchiliklarini muhokama qilish uchun forumlar, konferensiyalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalarni taqdim etish.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash: o‘qituvchilarning stress va kasbiy yuklamalarni boshqarish qobiliyatlarini oshirish uchun psixologik yordam va maslahat xizmatlarini ta’minlash.

O‘qituvchining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish mohiyati va asosiy tarkibiy komponentlarini aniqlashning uslubiy asoslarini belgilash akmeologiyaning asosiy tushunchalaridan biri – professionallikni o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligini taqozo etadi. Tadiqiqotchilar tomonidan o‘qituvchining kasbiy mahoratining shakllanish darajasi professionallikka tenglashtiriladi hamda professionallik o‘qituvchining ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy muammolarni hal qilishga tayyorlik ko‘rsatkichi sifatida qaraladi.

Pedagogik kasbiy mahorat deganda pedagogik faoliyat sifatining xarakteristikasi tushunilib, ma’lum bir kasbdagi faoliyat subyektining zamonaviy mazmuni va kasbiy muammolarini hal qilishning zamonaviy vositalari, uning mavjudligini samarali usullarini bilish darajasi bilan belgilanadigan sifat tavsifi.

O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi anglashini o‘rganish bo‘yicha uslubiy asoslar E.A.

Klimovning kasbiylashish tendensiyalarini faqat mutaxassisning yuqori malakasiga bog‘lamaslik kerak. Professionallik – bu kasbiy faoliyatni ongli, tizimli tashkil etilishini nazarda tutadi.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatda o‘z ustida muntazam shug‘ullanishi, kasbiy yutuqlarini oshirishi, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va kasbiy bilimlarni boyitib borishlarida uzluksiz ta’lim jarayonini to‘la amalga oshirish, ta’lim olish jarayonini tizimli tashkil etish kasbiy imkoniyatlarini oshirishga, bu esa ularda kasbiy identifikatsiyaning namoyon bo‘lishiga zamin yaratadi.

Pedagogik faoliyatda ko‘plab to‘siqlar, muammoli vaziyatlar va pedagogik konfliktlarning uchrashi hamda o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlariga qarab kasbiy rivojlanish bosqichlarining namoyon bo‘lishi va davomiyligi turlicha kechadi. Bunda kasbiy mahoratni egallash jarayonining qanday kechishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, o‘qituvchining kasbiy mahorati uning kasbiy identifikatsiyasining rivojlanishiga uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiya rivojlanish bosqichlarini tasniflashda dastlab ularning o‘qituvchilik kasbiga nisbatan tushunchalarining to‘g‘ri shakllanganligini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Yosh o‘qituvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash tamoyili shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv g‘oyalarini amalga oshirishga asoslangan bo‘lib, u tajribali o‘qituvchilar va yosh mutaxassis o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni, qadriyatlarga ongli yondashish, kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish, hal qilinayotgan vazifalarning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash imkonini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusamiyev D.A. "O‘qituvchilar kasbiy salohiyatini oshirishda TALIS baholash dasturining pedagogik imkoniyatlari” nomli maqola. Ta’lim, fan va innovatsiya ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil 6-son. 113-bet.

2. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. М.: Высшая школа, 1990.

3. Маркова А.К. Психология профессионализма. М., 1996.

4. Maksumov O.N. Yuqori sinf o‘quvchilarini oldindan o‘z-o‘zini kasban belgilab olish masalalari // O‘zbekistonda amaliy psixologiyaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom. – T., 2008. 77-bet.

5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2013, 128 bet.

Saltanat XONNAZAROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Biologiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Mamlakat XONNAZAROVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Zoologiya va anotomiya” kafedrasi dotsenti

TA‘LIM OLUVCHILARDA KOGNITIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH (Biologiya fanini o‘qitish misolida)

Annotatsiya

Maqolada “Kognitiv faoliyat inson bilimlarining asosi” mavzusini o‘z ichiga olgan va insonning kognitiv faoliyatini, ya'ni bilim olish, fikrlash, o‘rganish, yodlash, tahlil qilish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, kognitiv faoliyatning asosiy elementlarini xotira, o‘rganish, tahlil qilish, sintez qilish hamda kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati, ta‘lim va ijtimoiy faoliyatdagi roli yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kognitiv faoliyat, tahlil qilish, sintez, innovatsion yondashuvlar, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, emotsional intellekt, ijtimoiy ko‘nikmalar, ekologik tafakkur, ta'lim metodlari.

В данной статье рассматривается тема "Познавательная деятельность – основа знаний человека" и анализируется познавательная деятельность человека, то есть процессы приобретения знаний, мышления, обучения, запоминания, анализа, решения задач и принятия решений. В статье описано значение памяти, обучения, анализа, синтеза основных элементов познавательной деятельности, а также развития познавательных навыков, их роль в обучении и социальной деятельности.

Ключевые слова. Познавательная деятельность, анализ, синтез, инновационные подходы, критическое мышление, логическое мышление, эмоциональный интеллект, социальные навыки, экологическое мышление, методы обучения.

This article covers the topic “Cognitive activity is the basis of human knowledge” and analyzes human cognitive activity, that is, the processes of acquiring knowledge, thinking, learning, memorizing, analyzing, solving problems, and making decisions. The article describes the importance of memory, learning, analysis, synthesis of the main elements of cognitive activity, as well as the development of cognitive skills, their role in education and social activity.

Key words. Cognitive activity, analysis, synthesis, innovative approaches, critical thinking, logical thinking, emotional intelligence, social skills, ecological thinking, educational methods.

Maqolada kognitiv faoliyatni oshirish uchun innovatsion ta’lim usullari, mantiqiy o‘yinlar, amaliy tadqiqotlar va texnologiyalardan foydalanish kabi yondashuvlar taqdim etiladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat shaxsiy, balki professional muvaffaqiyatga ham olib keladi. O‘quvchilarni kognitiv faoliyatni takomillashtirishga, ta’limda yangi usullarni qo‘llashga va tabiatga bo‘lgan hurmatni oshirishga undaydi. Kognitiv faoliyat — bu insonning bilim olish, fikrlash, o‘rganish, yodlash, tahlil qilish, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarini ifodalaydigan tushuncha. Kognitiv faoliyat miyaning ma’lumotni qayta ishlash, anglash va foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kognitiv faoliyatga:

Xotira – ma’lumotni yodda saqlash va zarur bo‘lganda eslash.

O‘rganish – yangi bilimlarni qabul qilish va ularni amaliyotda qo‘llash.

Tahlil qilish – ma’lumotni tahlil qilib, uning mohiyatini tushunish.

Sintez qilish – turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirib, yangi g‘oyalar yaratish.

Kognitiv faoliyat inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat ta’limda, balki ish faoliyatida, ijtimoiy a’loqalarda va shaxsiy rivojlanishda ham zarurdir. Kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish insonni muvaffaqiyatli va samarali hayot kechirishga imkon beradi. Shuningdek, kognitiv faoliyat insonning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi va yaratishda ijodkorlikni rag‘batlantiradi.

Biologiya – hayot va uning jarayonlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, maktab ta’limida muhim o‘rin tutadi. Biologiya ta’limi o‘quvchilarga nafaqat hayotdagi tabiiy jarayonlar, balki ularning atrofidagi muhitni tushunishga yordam beradi. Maktab biologiya ta’limining ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar haqida so‘z yuritamiz.

Biologiya ta’limi o‘quvchilarga quyidagi asosiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

Tabiatni tushunish: biologiya fanlari orqali o‘quvchilar hayotiy jarayonlar, ekosistemalar va organizmlararo munosabatlar haqida chuqur tushuncha hosil qiladilar.

Sog’liqni saqlash: biologiya, inson anatomiyasi va fiziologiyasi haqida bilim berish orqali o‘quvchilarning sog’liqni saqlashga bo‘lgan munosabatlarini rivojlantiradi.

Ekologik tafakkur: biologiya ta’limi o‘quvchilarni ekologik masalalarga, tabiiy resurslarning muhofazasi va barqaror rivojlanishga oid masalalarga e’tibor qaratishga undaydi.

Maktab biologiya ta’limining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Amaliy mashg‘ulotlar: biologiya ta’limida laboratoriya ishlari, dalada kuzatish va tajribalar o‘tkazish o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Multidisipliner yondashuv: biologiya boshqa fanlar bilan (kimyo, fizika, ekologiya) integratsiyalangan holda o‘qitiladi, bu esa o‘quvchilarning keng qamrovli bilim olishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar: zamonaviy ta’lim jarayonlarida multimedia, interaktiv platformalar va onlayn resurslar biologiya ta’limini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Maktab biologiya ta’limi nafaqat ilmiy bilimlarni berish, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va tabiatga bo‘lgan hurmatni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Biologiya fanini o‘rganish orqali yosh avlod tabiiy muhit va inson hayotining nozik tomonlarini tushunib yetadi, bu esa ularning kelajakdagi qarorlarida va xulq-atvorlarida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab biologiya ta’limini yanada rivojlantirish va zamonaviy usullarni joriy etish, ta’lim sifatini oshirish uchun zarurdir.

Kognitiv faoliyat – bu insonning o‘z bilimini, qobiliyatini va fikrlash jarayonlarini amalga oshirish qobiliyatidir. Ushbu faoliyatni takomillashtirish har bir insonning shaxsiy va professional rivojlanishi uchun muhimdir.

Kognitiv faoliyatni oshirish uchun quyidagi yondashuvlar va usullarni ko‘rib chiqamiz.

1. O‘rganish va ta’lim

Innovatsion ta’lim usullari: interaktiv darslar, muhokamalar va guruh ishlarini qo‘llash orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: o‘quvchilarga muammolarni tahlil qilish, alternativ

yechimlarni ishlab chiqish va mantiqiy xulosalar qilishda yordam berish.

2. Mantiqiy va analitik fikrlash

Mantiqiy o‘yinlar: shaxmat, krossvordlar va boshqa mantiqiy o‘yinlar kognitiv faoliyatni oshirishga yordam beradi, chunki ular strategik fikrlash va muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Tatqiqot va analiz: o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliy tadqiqotlar orqali kengaytirishi va natijalarni tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

3. Yodlash va eslash

Tekshirish usullari: ma’lumotni yaxshiroq yodlash uchun takrorlash, vizual yordamlar va eslash texnikalaridan foydalanish.

Ma’lumotni tashkillashtirish: diagramma va jadval yordamida ma’lumotlarni strukturaga kiritish yodlashni osonlashtiradi.

4. Emotsional va ijtimoiy fikrlash

Emotsional intellektni rivojlantirish: o‘z va boshqalar his-tuyg‘ularini anglash va ularga javob berish qobiliyatini rivojlantirish.

Ijtimoiy faoliyatlar: jamiyatda faol ishtirok etish, jamoa ishlarida qatnashish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni oshirish.

5. Texnologiyalardan foydalanish

Onlayn kurslar va resurslar: o‘quvchilar uchun internet orqali taqdim etiladigan kurslar va materiallar kognitiv faoliyatni oshirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Kognitiv faoliyat inson bilimlarining asosi insonning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish har bir insonni muvaffaqiyatli hayot kechirishga tayyorlaydi. Ushbu jarayon ta’lim, ijtimoiy faoliyat va ijodkorlikda o‘z aksini topadi.

Kognitiv faoliyatni takomillashtirish uchun turli yondashuvlar va usullarni qo‘llash muhimdir. Innovatsion ta’lim, mantiqiy va analitik fikrlash, yodlash va eslash, emotsional va ijtimoiy fikrlash kabi yo‘nalishlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Har bir inson o‘z kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishi, bu esa nafaqat shaxsiy, balki professional muvaffaqiyatga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, J. R. (2009). Cognitive Psychology and Its Implications. Worth Publishers.

2. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. National Academy Press.

3. Brusilovsky, P., & Millán, E. (2007). User Modelling for Adaptive Hypermedia and Adaptive Educational Systems. In: Adaptive Hypermedia and Adaptive Web-Based Systems (pp. 1-10). Springer.

4. Bashirov, K. (2010). Kognitiv psixologiya: nazariya va amaliyot. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

5.Yuldashev, A. (2015). Ta’lim va tarbiyada innovatsion yondashuvlar. –T.: O‘qituvchi.

6. Shodmonov, M. (2017). Psixologiya: O‘rganish va rivojlanish jarayonlari. –T.: Iqtisod-Moliya.

7. Murodov, B. (2013). Biologiya ta’limida zamonaviy metodlar. –T.: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmalari.

Zuhra CHORIYEVA,
“IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI”
nodavlat oliy ta’lim muassasasi dotsenti v.b.
Muhlisa BERDINAZAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA KASBIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish usullari, xorij tajribasi, kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari, shuningdek, o‘zbek olimlarining kasbiy malaka xususidagi fikr-mulohazalari, talabaning kasbiy pedagogik tayyorgarligi hamda kasbiy malakalarini oshirish usullari xususidagi ma’lumotlar taqdim etilgan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy malaka, kasbiy imkoniyat, funksional yondashuv, pedagogik tayyorgarlik, metodologik asos.

В данной статье представлена информация о методах повышения профессиональной квалификации будущих учителей, зарубежном опыте, основных критериях профессиональной подготовки, мнениях узбекских ученых о профессиональной квалификации, профессиональной педагогической подготовке студентов и методах повышения профессиональной квалификации.

Ключевые слова. Профессиональная квалификация, профессиональные возможности, функциональный подход, педагогическая подготовка, методическая основа.

This article provides information on methods of improving professional qualifications of future teachers, foreign experience, main criteria of professional training, opinions of Uzbek scientists on professional qualifications, professional pedagogical training of students and methods of improving professional qualifications.

Key words. Professional qualification, professional opportunity, functional approach, pedagogical preparation, methodological basis.

Respublikamizdagi mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish asosida yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirish maqsadini nazarda tutadi. Shunday ekan, barkamol shaxsni tarbiyalash, uni mutaxassis sifatida shakllantirish, jamiyatda munosib kasbiy-ijtimoiy statusga ega bo‘lishida oliy ta’limi muassasalarining o‘rni katta. Oliy ta’lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat monitoringini oshirish, boshlang‘ich ta’lim talabalarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog vazifalardan sanaladi. “Fanga iste’dodli yoshlarning kirib kelishini ta’minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-son 2017-yil 7-fevral umumiy ta’lim maktablarining faoliyatini tubdan isloh qilish kerak”, deya ta’kidlaydi. Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveytsariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxassislikning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’minlanadi. Bunda

kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo‘lajak talabaning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga malaka darajasi belgilanadi. Darhaqiqat, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma’naviy-axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini ifodalaydi. Keltirilgan mazkur vazifalarning amaldagi ijrosi pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldiga qo‘yiladigan masalalardan eng muhimi, ya’ni boshlang‘ich ta’lim talabalarni tayyorlash jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvlarni talab etadi.

Kasbiy malaka – mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog‘liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo‘lib, talabalar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo‘naltirilgan ishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy malaka bo‘lajak mutaxassisda pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan mas’uliyatli hamda ijodiy yondashuvni, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda shaxsga qaratilgan yo‘nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o‘zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin. “Kasb tushunchasi – bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o‘tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi mashg‘ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma’lum aloqalar va axloq normalari o‘rnatiladi”. “Kasbiy imkoniyatlar – ma’lum faoliyatning shaxs irodasi bilan bog‘liq obyektiv shart-sharoitlarini o‘zida aks ettiradi”. Pedagogik olim V.A.Slastenin “bo‘lajak talabalar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tatqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya’ni kasbiy yetuklikka erishishning obyektiv omillariga olingan ta’limning sifatini, subyektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qila olishdagi mas’uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi”.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveytsariya, Germaniya, Malayziya, Kanadaning mutaxassislar tayyorlash bilan bog‘liq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’limning asosiy vazifasi “Talabalarda tanlangan mutaxassislikning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’minlanadi”. Inson o‘z odatlarning bir xillik kun tartibi hukmronligi ta’siriga kirib, o‘zining rejalarini keyingi kunga yoki haftaga yoki yillarga qoldira boshlaydi. O‘z-o‘zini ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o‘zining qobiliyatlarini namoyon etishga erishish mumkin.

Kasbiy imkoniyatlar – ma’lum faoliyatning shaxs irodasi bilan bog‘liq obyektiv shart-sharoitlarini o‘zida aks ettiradi. N.G.Ismatova “kasbiy malaka nuqtayi nazaridan malaka mazmunini quyidagi muhim yo‘nalishlarda ko‘rib chiqishni taklif etadi:

– fiziologik: organlar va tizimlarning funksiyasi, endokrin regulyatsiya, nerv regulyatsiyasi, ijtimoiy-psixologik;

– malaka: yangi psixologik xulq-atvor me’yorlarining shakllanishi, qo‘yilgan talab bilan bog‘liqlikda shaxsiy sifatlarni korreksiyalash, yangi ijtimoiy muhitni o‘zlashtirish;

– kasbiy: mehnatning yangi sharoitlariga, pedagoglik kasbiga, bilimlari va pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishga odatlanish”.

O.A.Abdullina o‘z ishlarida funksional yondashuvni rivojlantirish, talaba ishining aniq turlari bilan muvofiqlikda pedagogik malakalarning mazmuni va turlarini ishlab chiqqan. U quyidagi pedagogik funksiyalarni ajratgan: o‘quv jarayonini tashkil etish va

ta’lim oluvchilarning bilishga oid faoliyatlarini boshqarish; ta’lim oluvchilar bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ish o‘tkazish va ularning o‘z-o‘zlarini tarbiyalashlarini boshqarish; “aholi o‘rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish va pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish”; ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va yetkazish, ilg‘or pedagogik tajribaning tahlili va umumlashtirish hamda shaxsiy tajribani umumlashtirish; mustaqil ta’lim olish. Agar milliy maktab va pedagogika rivojlanishining o‘tgan davrining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lgan uchinchi vaziyat chiqarib tashlansa, unda bizning oldimizda – yaxlit va to‘liq struktura hosil bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim talabalarining kasbiy malakasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy-huquqiy malakalar, ya’ni xodimlar o‘zaro munosabatlar sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, shuningdek, professional muloqot uslubi; doimiy kasbiy o‘sish va rivojlanish uchun shaxsiy malaka; maxsus malaka oshirishga tayyor o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish; mutaxassislik bo‘yicha o‘z bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish qobiliyati. Boshlang‘ich ta’lim talabalarining pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimi bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, talabalarini bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi. Bu maqsad talabarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

– talaba pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar;

– pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

Xulosa qilib aytganda, talabaning ijodiy fikrlashining asosiy xususiyatlaridan biri bu avvalgi tajribani o‘z harakatlarini rejalashtirishga jalb qilish qobiliyatidir. Ammo pedagogik faoliyat jarayonida kutilmaganda yuzaga kelgan muammoni hal qilishda unga aynan nima kerakligini oldindan aytish har doim qiyin. Shuning uchun talaba ko‘p narsani bilishi, doimo o‘rganishi, kelajakda talabalarga ta’lim-tarbiya berish muammolarining to‘g‘ri yechimini topishga yordam beradigan bilim va amaliy ko‘nikmalar zaxirasini oshirishi zarur. Shunday qilib, pedagogik faoliyat talabalarning ta’lim va tarbiyasini tashkil etish, ularni hayotga va mehnatga tayyorlash hamda bu jarayonni boshqarishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-fevral 2024-yildagi PQ-54 sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1-fevral 2024-yildagi O‘RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. Abdullayeva B.S., Qodirova X.N. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”.–T., 2021

4. Xoliqov A.A. “Pedagogik mahorat”. –T.: Iqtisod-moliya, 2011.

5. Choriyeva Z.T. “Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. –T., 2023.

Muyassar USANOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA KASBIY MALAKALARNI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak kadrlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning tizimli yondashuv asosida olib borish usullari, omillari, belgilari, shakllari hamda xulosalar keltirilgan. Shuningdek, tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari va boshlang‘ich asoslarini tahlil qilamiz.

Tayanch so’zlar. Tizimlilik, tizimli yondashuv, uzluksizlik, yaxlitlilik, tuzilmaviylik, o‘zlashtirish, anglash, shakllantirish, kompetensiya, integral.

В данной статье представлены методы, факторы, признаки, формы и выводы формирования профессиональных компетенций будущих кадров на основе системного подхода.

Ключевые слова. Системность, системный подход, преемственность, целостность, структура, освоение, понимание, сформированность, компетентность, целостность.

This article presents the methods, factors, signs, forms, and conclusions of the formation of professional competencies in future personnel based on a systematic approach.

Key words. Systematicity, systematic approach, continuity, integrity, structure, mastery, understanding, formation, competence, integral.

Oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim talabalarni kasbiy moslashtirishni shakllantirishning ahamiyatli jihatlaridan biri bu jarayonga tizimli yondashuv tamoyilidir. “Tizimlilik” tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarning tizim hosil qila olishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining tizimli qurilishga egaligi kabi holatlarni aks ettira olishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mumkin.

Tizimli yondashuv — ilmiy bilish hamda ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo‘nalishi bo‘lib, uning asosida obyektlarni tizim sifatida qabul qilinishi yotadi. Pedagogik jarayonga tizimli yondashuv esa o‘qitish maqsadidan tortib uning natijasigacha bo‘lgan jarayon va talaba imkoniyatlarini yaxlit tizim sifatida qabul qilish bilan belgilanadi. Tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari va boshlang‘ich asoslarini o‘rganishimiz natijasida real borliqning muhim belgilaridan biri – undagi obyektlarining o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida ta’sirlashuvning boshlang‘ich davridagi obyektlarga xos bo‘lmagan yangi sifatlar yuzaga kelishi to‘g‘risidagi tasavvur hosil bo‘ldi. U sifat jihatidan yangi mahsul – yaxlitlikning va tizimning vujudga kelishidir. Yaxlit tizimning sifati uni tashkil qiluvchi sifatlarning yig‘indisidan iborat bo‘lmaydi. Tizim uchun, shuningdek, mohiyat jihatidan uning ajralib turuvchi xossalarini ifodalovchi yangi integral sifatlar ham xosdir. Yaxlit tizim o‘zi tarkib topgan qismlarga faol ta’sir ko‘rsatib, ularni o‘z tabiatiga moslab o‘zgartiradi. Natijada dastlabki boshlang‘ich qismlar sezilarli o‘zgarishga uchraydi: ko‘pchilik holatlarda oldingi, ular tizimga kirishigacha bo‘lgan xususiyatlarini yo‘qotadi, ularning boshqa xususiyatlari o‘z ahamiyatini oshiradi, yangi sifatlarga ega bo‘ladi, shuningdek saqlab qolinadigan xususiyatlar ham sifat va miqdor o‘zgarishlarga uchraydi. Yaxlit tizimning asosiy belgilarini aniqlab olamiz.

1. Yaxlit tizimning asosiy belgisi aynan tizimiy integral va uni tashkil qiluvchi

tarkibiy qismlarning jamoaviy sifati (yoki sifatlari)ning mavjudligidir.

2. Yaxlit tizimning ajralmas alomati uning tarkibiy qismlari, zero, tizim ulardan tarkib topadi hamda usiz mavjud bo‘la olmaydi. Biroq tarkibiy qismlar tasodifiy obyektlarning yig‘masi emas. Ular tizim bilan integratsiyalashgan, aynan ushbu tizimning tarkibi hisoblanadi. Tizimning maqsadga muvofiq faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash borasida uni tatqiq qilish.

3. Yaxlit tizim – maqsadli tizim, u muayyan maqsadni amalga oshirishga intiladi. Maqsad tizimda uni hosil qiluvchi muhim omillardan biri sifatida yuzaga keladi. Biroq, maqsad unga erishish uchun muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Tizimning muhitda maqsadga erishish uchun amalga oshiradigan harakatlari aynan uning funksiyalarini tashkil qiladi. Funksiyalar maqsadga nisbatan unga erishish usuli sifatida yuzaga chiqadi. Tizimning maqsadga erishish uchun muhitdagi o‘zini tutishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-funktsional yondashuv deyiladi.

4. Har qanday tizim o‘zgarmas, barcha davrlar uchun bir xil bo‘lib qolmaydi. U absolyut, abadiy emas, chunki qarama-qarshiliklar mavjudligi unga ham xosdir. Har bir tizim nafaqat faoliyat ko‘rsatadi, balki, shu bilan birga rivojlanadi; u o‘z ibtidosiga ega, u yaralish davrini o‘taydi, tarkib topadi va rivojlanadi. Tizimlar nazariyasida tizimning yashash vaqti uning asosiy tavsifiy belgilaridan biri hisoblanadi.

5. Tizimni uning vaqt bo‘yicha rivojlanishi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish va loyihalash tizimli yondashuv deb ataladi.

6. Har bir tizim o‘z navbatida o‘zidan yuqori darajada turuvchi metatizmning tarkibiy qismi sanaladi, shu kabi u o‘zidan quyi darajada turuvchi tarkibiy qismlardan iborat. Tizim o‘ziga nisbatan tashqi bo‘lgan muhitda harakatda bo‘ladi, rivojlanadi, u bilan ko‘plab kommunikatsiyalar orqali bog‘lanadi. Tizimni unga nisbatan mavjud bo‘lgan boshqa tizimiy va notizimiy uyushmalar nuqtai nazaridan o‘rganishga tizimli-kommunikativ yondashish deb ataladi.

7. Tizimga doimiy ravishda o‘zida uning turg‘unligini buzishga qaratilgan ta’sirlar ko‘rsatib turiladi. Ushbu ta’sir avvalo har qanday tizimning ichida mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklar oqibatida yuzaga keladi. Tizimning yashovchanligini ta’minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi. Tizimlarni uning turg‘unligini buzishga qaratilgan ichki va tashqi ta’sirlar sharoitida maqsadga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi nuqtai nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-tashkiliy yondashuv deb ataladi.

8. Tizimdagi boshqaruvni axborotlarni uzatish, qabul qilish, saqlash hamda qayta ishlashsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Axborot – tizim tarkibiy qismlarining bir-biri bilan hamda tizim tashqi muhit bilan aloqa qilish usulidir. Bu ma’noda tizimlilikning mohiyatini uning axborotli jihatlarini o‘rganmasdan turib ochib berish mumkin emasligini ayon bo‘ladi.

Tizim va tashqi muhit o‘rtasidagi ko‘plab cheksiz o‘zaro aloqalarni berilgan vaziyatdagi ahamiyatiga ko‘ra bitta kiruvchi va bitta chiquvchi aloqa sifatida tasavvur qilamiz. Tizim muhitga o‘z ehtiyojlarini qondirish manbai sifatida kerak bo‘ladi. Kasbiy moslashishning mohiyati – o‘zlashtirish, anglash, shakllantirish,moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Subyektlik – inson hayotidagi faol mustaqil holat va maqomidir. U inson tug‘ilishidanoq unga xos bo‘lib, uning ilk psixologik namoyon bo‘lishi – bolaning jonlanishi hisoblanadi. Yosh o‘tgani sari u o‘z shaklini o‘zgartiradi ya’ni, insonda axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik qo‘zg‘atuvchi sabablar paydo bo‘lib, inson o‘z-o‘zini anglash, muomila va faoliyat subyektiga aylanadi va shaxsiy “Men”ini kashf

etadi. Mazkur jarayonda pedagog shaxs rivojlanishi muhitining loyihalovchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni shaxs rivojlanishi jarayonida pedagog va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi muhit o‘ziga xos mazmunli shaklga aylanib, bu yerda muloqot muhiti bo‘lajak talabaning ichki dunyosini shakllanishi mexanizmi sifatida vujudga keladi. Afsuski, ko‘pchilik hollarda ta’limiy faoliyat uchun predmet (maqsad, mazmun) sifatida insonning shaxs bo‘lib kamol topishi deyarli ko‘rib chiqilmaydi. Bu jarayonni o‘qitishdan tashqari (darsdan tashqari) paytda “tarbiyaviy ish” davomida amalga oshirish mumkin degan fikrlar uchraydi. Bu fikrlar noo‘rin albatta, chunki bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun ta’lim jarayoni mohiyatni tashkil etuvchi umuminsoniy madaniyat va tajribaga talabalarni jalb etish ham ta’lim funksiyalaridandir. Mazkur vazifalarni hal etmasdan ta’lim shaxsga nisbatan yaxlit ma’lumotni bera olmaydi.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim talabalarni kasbiy moslashtirish jarayoni murakkab va individual jarayon hisoblanadi. Bunda talaba shaxsining individualligi, ta’lim sharoiti, muhit hamda shaxslararo munosabatlar tizimining o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq etilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, moslashish jarayonlarining samarali kechishi talabalarning kasbiy faoliyatga nisbatan maqsadli yo‘nalganligini hamda aksiologik yondashuvini shakllanishiga, kasbiy rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa kasbiy faoliyat samaradorligi, natijaviyligi hamda mutaxassining uzoq ijodiy umr ko‘rishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Pedagogik jarayonga tizimli yondashuv esa o‘qitish maqsadidan tortib uning natijasigacha bo‘lgan jarayon va talaba imkoniyatlarini yaxlit tizim sifatida qabul qilish bilan belgilanadi. Bunday yondashuv uzluksizlik, yaxlitlik hamda tuzilmaviylikning dialektik birligini o‘zida aks ettirib, murakkab jarayonlar modelini yaratish imkonini berishi bilan ularni tadqiq qilishni yengillashtiradi.

Tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari va boshlang‘ich asoslarini o‘rganishimiz natijasida real borliqning muhim belgilaridan biri – undagi obyektlarining o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida ta’sirlashuvning boshlang‘ich davridagi obyektlarga xos bo‘lmagan yangi sifatlar yuzaga kelishi to‘g‘risidagi tasavvur hosil bo‘ldi. U sifat jihatidan yangi mahsul – yaxlitlikning va tizimning vujudga kelishidir. Yaxlit tizimning sifati uni tashkil qiluvchi sifatlarning yig‘indisidan iborat bo‘lmaydi.

Demak, tashkil etuvchi qismlarning o‘ziga xos yig‘masi, ichki tuzilma va boshqalar bilan birga boshqa tizim hosil qiluvchi, tizimni himoyalovchi omillar ham mavjud. Tizimning yashovchanligini ta’minlovchi ushbu omillarga boshqaruv deyiladi. Tizimlarni uning turg‘unligini buzishga qaratilgan ichki va tashqi ta’sirlar sharoitida maqsadga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish va loyihalashga tizimli-tashkiliy yondashuv deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-fevral 2024-yildagi PQ-54 sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1-fevral 2024-yildagi O‘RQ-901-sonli “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. Abdullayeva B.S., Qodirova X.N. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, –T., 2021

4. Xoliqov A.A. “Pedagogik mahorat”. –T.: Iqtisod-moliya, 2011.

5. Choriyeva Z.T. “Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish” pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. –T., 2023.

Anor RAXMATULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Biologiya" kafedrasi p.f.f.d (PhD)

BIOLOGIYA O'QITISHNI TASHKIL ETISHDA MUSTAQIL TA'LIM SHAKLLARINING UMUMIY TAVSIFI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarning tabiat obyektlari va hodisalarini bilishi ko'p jihatdan o'qitish usullariga bog'liqligi va usulni aniqlashda o'qituvchi kursning umumiy umumlashtiruvchi xususiyatini va maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini yodda tutishi kerakli haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchi reproduktiv, kognitiv faoliyati davomida o'qituvchidan, kitobdan, o'quv filmlaridan ma'lumot olishini juda qiyinchiliksiz amalga oshirilishi aytib o'tilgan. Muallif biologiya fanining mazmuni va tuzilishini va o'qitiladigan materiallarni tahlil qilish maqsadidan tashqari, uning usullarini to'g'ri qo'llash qobiliyati eng muhim masalalari bo'yicha tavsiyalarni berib o'tgan.

Tayanch so'zlar. Metod, dars, ekskursiya, mustaqil ta'lim, kognitiv, pedagog, texnologiya, materiallar, xususiyatlar.

В статье высказывается мысль о том, что познание учащимися предметов и явлений природы во многом зависит от методов обучения, и при определении метода учитель должен иметь в виду общий обобщающий характер курса и возрастные особенности школьников. Также отмечается, что без особого труда ученик получает информацию от учителя, из книги, учебных фильмов в ходе своей репродуктивной, познавательной деятельности. Помимо цели анализа содержания и структуры биологической науки и преподаваемого материала, автор дал рекомендации по важнейшим вопросам умения правильно применять ее методы.

Ключевые слова. Метод, урок, экскурсия, самостоятельное обучение, познавательное, педагогическое, технология, материалы, особенности.

The article reflects on the need for students ' knowledge of objects and phenomena of nature to largely depend on teaching methods, and when determining the method, the teacher should keep in mind the general generalizing nature of the course and the age characteristics of schoolchildren. It has also been mentioned that it is done without much difficulty for the student to receive information from the teacher, from the book, from educational films during their reproductive, cognitive activities. In addition to the purpose of analyzing the content and structure of biology and the materials taught, the author has given recommendations on the most important issues of his ability to correctly apply his methods.

Key words. Method, lesson, excursion, independent education, cognitive, pedagogical, technology, materials, characteristics.

Aytish mumkinki, o'qitish usuli bu talaba va talabaning maqsadga erishish uchun ikki tomonlama harakati hisoblanadi. Shuning uchun, agar biz bunday faoliyatni didaktik prinsip nuqtayi nazaridan ko'rib chiqsak, unda ta'lim va tarbiyaning rivojlanishi haqida gapirishimizga to'g'ri keladi. Shunday qilib, agar biz o'qitish usulini o'qituvchining o'qitish usullari deb hisoblasak, boshqa tomondan, bu talabaning bilim yoki usulni o'zlashtirish, qabul qilish qobiliyatidir. O'qitish usullarining tuzilishi darslarni o'tkazish usullaridan iborat bo'ladi. Malakaviy yondashuv o'qitish usulining faqat bitta elementi, uning alohida qismidir. Shuni ta'kidlash mumkinki, bio-

logiyani o‘qitish amaliyotida uning ko‘plab usullari mavjud. Ularni ba’zi xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ushbu dastlabki faylasuflar va o‘qituvchilarning o‘qitish tizimlari hisoblangan an’anaviy o‘qitish usullari. Ushbu usulning asosiy maqsadi bilimlarni talabalarning o‘rganish manbasiga, bilimlarni qanday va qayerdan olishlariga qarab qo‘llash hisoblanadi. Ushbu usulda bilim manbai uchga: amaliyot, darslik va turli xil texnik tizimlardan iborat. Shuning uchun ushbu guruhdan beshta usulni ajratish mumkin: amaliy, vizual, nutq, darslik bilan ishlash, texnik jihozlardan foydalanish. Ushbu usullar o‘ziga xos dastur xususiyatlariga ega hisoblanadi.

2. Bajarilayotgan vazifaga qarab guruhlash usullari. Dars jarayonining izchilligini boyitishda guruhlash quyidagi usullardan iborat:

a) bilimlarni o‘zlashtirish;

b) ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

b) bilimlarni amaliy qo‘llash;

c) ijodiy faoliyat;

d) olingan bilimlarni mustahkamlash, taqdimot;

d) bilim, ko‘nikma, qobiliyatlarni sinash.

Ushbu usullarning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, ular o‘quv jarayonini tashkil etishning klassik sxemalariga mos keladi, bu o‘qituvchilarga tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda katta yordam beradi.

3. Kognitiv faoliyat bo‘yicha guruhlash. Ushbu usullar yordamida talaba o‘qituvchi tomonidan belgilangan vazifaga muvofiq o‘z bilim darajasini mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Bu, albatta, har bir talabaning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu guruhga bir nechta usullar kiradi:

– vizualizatsiya yordamida talqin qilish (axborotni qabul qiluvchi);

– reproduktiv;

– muammoli taqdimot;

– qisman qidirish (evristik);

– tatqiqot.

Agar kognitiv faoliyat faqat o‘qituvchining yordami bilan amalga oshirilsa, unda talabalar faqat tayyor materialni tushunish va yodlash va uning shubhasiz taqdimoti bilan cheklanganida, uning fikrlashi past darajadagi faollikni ko‘rsatadi. Agar talabaning fikrlash qobiliyati darajasi juda qizg‘in bo‘lsa, u kognitiv faoliyatda faqat ijodiy ish natijasida, mustaqil izlanish va tadqiqot usullarini qo‘llash natijasida muvaffaqiyat qozonishini payqash mumkin.

Axborot-retseptiv (pertseptiv) usulning asosiy vazifasi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Talabaga bilimlarni “tayyor” shaklda taqdim etadi.

2. Talaba to‘g‘ri tushunishi uchun o‘qituvchi turli yondashuvlardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil qiladi.

3. Talaba bilimlarni o‘rganadi va uni eslab qoladi. Barcha ma’lumot manbalari bilimlarni idrok etishda ishlatiladi, mazmun logikasining induksiyali va deduksiyali tomonlarini rivojlantirib foydalanish yo‘llarini amalga oshiradi.

Reproduktiv usulni o‘rganishning asosiy belgilari:

1. Talabaga bilimlarni “tayyor” holatda o‘tkazish.

2. O‘qituvchi buni nafaqat tushuntiradi, balki aytib berishda davom etadi.

3. Talaba buni ongli ravishda tushunadi va eslaydi.

4. Uning takroriy takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan bilim barqarorligining asosiy dalili.

Bunday hollarda reproduktiv usuldan foydalanish juda samarali:

– o‘quv materialining yagona ma’lumotdagi mazmuni;

– amaliy va mehnat faoliyatini qo‘llash tavsifida;

– agar mustaqil izlanish, talabaning tafakkuri jarayonida qiyin vaziyatlar yuzaga kelsa;

– talaba yangi muammoli materiallarni o‘zlashtirish uchun hali ham kam bilimga ega bo‘lgan hollarda.

Ushbu usuldan foydalanishning yana bir jihati, talabalar muammoli masalalarni mustaqil ravishda hal qilishga hali o‘rganmagan holatlar hisoblanadi.

Reproduktiv usulning yana bir foydali ta’siri, o‘quv materialini tez o‘zlashtirishni, amaliy, mehnat ko‘nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishni ta’minlash bilan birga, o‘quv jarayonidagi ba’zi noto‘g‘ri tomonlarni, ko‘nikmalarni, qobiliyatlarni aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun, yuqorida aytib o‘tilganidek kundalik o‘quv jarayoniga ko‘plab foydali xususiyatlarni qo‘llash, ularni boshqa usullar bilan bog‘lash maqsadga muvofiqdir. O‘qitishning muammoli izlash usullarining asosiy tamoyillari o‘quv jarayonining ayrim bosqichlarida talaba hali ba’zi muammoli masalalarni mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun o‘qituvchi talabalarni ushbu muammoni ma’lum bir tizim, yo‘nalish bilan hal qilishga jalb qiladi, ularning faoliyatini faollashtiradi, yangi bilimlarni o‘zlashtirish yo‘llarini ko‘rsatadigan o‘quv materialining kognitiv tomonini ishlab chiqadi. O‘qitishning muammoli qidiruv usullari ko‘p hollarda talabaning ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv, kognitiv va mehnat faoliyatini rivojlantirish, bilimlarni fikrlash va o‘z-o‘zini o‘zlashtirish, insonning mehnatga, faoliyatga, xabardorlikka ijodiy munosabatini rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

Shunday qilib, ushbu usul o‘quv jarayonida talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Uning asosiy kamchiligi shundaki, u talaba va o‘qituvchidan ko‘p vaqt va kuch talab qiladi va bu usuldan foydalanish o‘qituvchining yuqori darajadagi bilimga ega bo‘lishini talab qiladi. Didaktik maqsadga qarab, usullarni ikki guruhga ajratish mumkin, birinchisi: o‘quv materialini birinchi assimilyatsiya qilish uchun imkoniyat yaratish usuli, ikkinchisi: olingan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish usuli. Birinchi guruhga quyidagilar kiradi: axborotni rivojlantirish (og‘zaki taqdimot, suhbat, kitob bilan ishlash, qidirish). Ikkinchi guruhga quyidagilar kiradi: o‘quv ishlarini bajarish, amaliy ish, o‘quv va kognitiv faoliyatni rag‘batlantirish – argumentatsiya (motiv), ta’lim va kognitiv jarayonning samaradorligini nazorat qilish va o‘zini o‘zi boshqarish, o‘quv va kognitiv jarayonni tashkil etish va amalga oshirish. Shunday qilib, har bir texnika o‘quv jarayonida quyidagi funksiyalarni bajarishga qaratilgan: o‘qitish, rivojlantirish, bahslashish va nazorat qilish. Ushbu usullar natijasida har bir o‘qituvchi va talaba o‘z maqsadlariga erishadi. Ish amaliyotidan bilamizki, IX-X sinf o‘quvchilari avvalgi biologiya kurslarida o‘tgan materialni sezilarli darajada unutishadi. Shuning uchun uslubiy suhbatni tanlashda talabalarning bunga qanchalik tayyorligini hisobga olish kerak. Biologiya tarixi, organik dunyo evolyutsiyasi haqidagi aniq bilimlarni umumlashtirishda, shuningdek sitologik, genetik va ekologik tushunchalarni o‘rganishning muayyan bosqichlarida suhbatlashish maqsadga muvofiqdir. Hikoyadan foydalanish metodologiyasi juda yaxshi tahlil qilingan, u asosiy tushunchalarni ishlab chiqishga imkon beradigan ketma-ketlikda qurilgan va ma’lum bir rejaga muvofiq amalga oshiriladi. Ta’lim ma’lumotlari alohida bo‘laklarga bo‘linadi. Ularga maktab o‘quvchi-

larining mustaqil xulosasiga hissa qo‘shadigan savollar beriladi. Odatda suhbatda turli xil ko‘rgazmali qurollar keng qo‘llaniladi. Misol tariqasida “Organik olam evolyutsiyasi” mavzusida taksonomiyaning kelib chiqishi haqida muammoli suhbatni tashkil qilishni ko‘rib chiqamiz.

O‘tgan darsda o‘quvchilarga Uyg‘onish davri, buyuk geografik kashfiyotlar, hayvonlarning tasnifi haqida takrorlash vazifasi berildi. Quyidagi jihozlar tayyorlanadi: (tarix jadvallari, yarim sharlar xaritalari, tropik o‘simliklar va hayvonlar tasvirlangan jadvallar, qo‘lda ishlangan jadvallar (“Linney bo‘yicha yaratilgan flora va fauna tizimi”, “organik dunyoning zamonaviy tizimi”), yopiq o‘simliklar, gerbariylar, turli hayvonlarning to‘ldirilgan hayvonlari, to‘ldirilgan hayvonlar). Suhbat boshida talabalar feodalizmning kapitalizmga almashinuvi sabablarini, yillik mahsulotlarni sotish va ishlab chiqarish uchun xomashyo sotib olish bozorlarini qidirishni, Hindiston, Amerika kabi mamlakatlarni ochishning muhimligini eslashga taklif qilinadi va bu asosida dars tarix fani bilan bog‘lanadi. O‘qituvchi muntazam ravishda hayvonlar va o‘simliklarning yangi turlarini tasvirlab, bitta turni ajratib ko‘rsatdi unga savol beriladi: biologiya fani tezda oldinga siljishi uchun turlarning nomlarini bitta izga birlashtirish mumkinmi? Shu munosabat bilan Linney tomonidan kiritilgan ikki tomonlama nomenklaturaning ma’nosi ochiladi. Elementlarning davriy tizimining kimyo rivojlanishidagi ahamiyati yanada tushuntiriladi. Ushbu ma’lumotlar talabalarga sistematikaning biologiyadagi o‘rni to‘g‘risida xulosa chiqarishga yordam beradi. Linney sistematikaning asoschisi sifatida, nihoyat, “nisbiy” va “turlar” toifalarining mantiqiy manbasini ochib berish maqsadga muvofiqdir. Talabalardan shaxslarni bir turga birlashtirishning asosiy tamoyillarini aniqlash so‘raladi. Talabalar bir xil turdagi odamda organlarning tashqi o‘xshashligini, tana shakli va boshqa xususiyatlarini namoyish etadilar.

Talabalarga ma’lum bo‘lgan eng qiyin materialni o‘rganishda ko‘pincha ma’ruza qo‘llaniladi. Dastur materialini o‘rgatish uchun yetarli vaqt bo‘lmagan holda, bilimlarning dastlabki asosida nazorat qilish va tajriba o‘tkazish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda foydalanish tavsiya etiladi. Suhbat davomida ma’ruza tushuntiriladi, savollar berilganda muammoli vaziyat yuzaga keladi va fikr-mulohazalar amalga oshiriladi. Ma’ruzaning samaradorligi talabalarning ishda faol ishtirok etishiga imkon beradigan turli xil uslubiy metodlardan foydalanish bilan ortadi. Masalan, “nuklein kislotalar – muhim hujayra biopolimerlari bo‘yicha ma’ruza ushbu moddalarni kashf etilishining qisqacha tarixiy ta’rifidan boshlanadi. Keyinchalik, ularning hujayralardagi soni haqida ma’lumot beriladi va nuklein kislotalarning ma’nosi, tuzilishi va funksiyasi haqidagi muammolar taklif etiladi. Asosiy e’tibor nuklein kislotalarning davriy bo‘lmagan biopolimerlar sifatidagi tabiatiga, DNKning “qo‘sh spiral” tuzilishiga va azotli asoslarning qo‘shimcha tamoyillariga qaratiladi. Shu bilan birga, tizimli formulalar ishlatiladi, ulardan qonuniy ravishda izomorfik (o‘xshash) modellarga, sxematik tasvirlarga o‘tish mumkin. Azotli asoslarning qo‘shilishi prinsipi DNKning o‘ziga mos kelmasligi xususiyatini anglatadi. Reduplikatsiyaning axborot muammosining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. DNKning biologik rolini aniqlash, uning o‘z-o‘zini ko‘paytirishga qodir davriy bo‘lmagan biopolimer ekanligiga asoslanadi. Keyin o‘qituvchi axborot, informatsion biopolimerlar tushunchasini ishlab chiqadi va hujayra proliferatsiyasi va DNK molekulalarining o‘z-o‘zidan takrorlanishi, DNK va oqsillarning tuzilishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi.

Yovvoyi tabiat obyektlarini kuzatish (ularning modellari va ko‘rgazmali qurollari bo‘lmagan taqdirda) talabalarning obyektiv voqelikni bilish jarayonining muhim bosqichidir. Kuzatish natijasida talabalar tushunchalarning paydo bo‘lishi asosida tushunchani

shakllantiradilar, ya’ni o‘rganilayotgan fanlarning muhim xususiyatlari aniq namoyon bo‘ladi va ular o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi. Berilgan savolga javob topish uchun suhbat davomida suhbat va kuzatuv o‘tkaziladi. Sinfda tarqatish materiallari, shuningdek ekskursiyalar paytida yovvoyi tabiat obyektlari ustidan nazoratni qo‘llash, laboratoriya darsida mustaqil va amaliy ishlar olib borish to‘g‘ri natijalar beradi. Ushbu usulning samaradorligi ko‘p jihatdan talabalar oldiga qo‘yilgan maqsad qanchalik aniq ekanligiga, vazifa qanday tuzilganiga, unda ishning asosiy bosqichlari ochib berilganligiga, nazorat obyekti aniqlanganligiga bog‘liq. Talabalarga mavzu yoki hodisani yozish va mustaqil ravishda xulosa chiqarish imkoniyatini berish muhimdir. Talabalarning mustaqil faoliyatining qulay o‘lchovi saqlanib qolganda, ularning bilim faoliyati o‘rganilayotgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish yo‘nalishi bo‘yicha faollashtirilganda kuzatish juda samarali bo‘ladi. Talabaning yuqori darajadagi yaxshi fikrlay olishini hisobga olib uni iloji bo‘lsa, tadqiqot yo‘lidan foydalanishga intilish, kuzatish jarayonini yangi bilimlarni olishga yo‘naltirish kerak. (Masalan, irsiyat va o‘zgaruvchanlik, sun’iy selektsiya ta’sirining natijalari, organizmlarning atrof-muhitga moslashishi, organik dunyo tizimi, evolyutsiyaning kognitiv usullari, inson hayvonlarining kelib chiqishi dalillari va hok.). Kuzatish sun’iy va tabiiy ekotizimlarni va boshqa obyektlar va jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Odatda, nazorat ishi darvinizm, ekologiya, genetika va tabiatdagi naslchilik muammolarini o‘rganishda, o‘quv va tajriba maydonchasi, muzey, laboratoriya darsining bir qismini tashkil etadigan ekskursiya o‘tkazishda uslubiy yondashuv sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘quv va amaliy maydonchadagi amaliy ishlar, talabalarning ishlab chiqarish jamoasi, sinfdan tashqari turli tadbirlar ham nazoratni o‘z ichiga oladi. Laboratoriya darsi davomida biz “organizmlarning atrof-muhitga moslashuvchanligi va uning qiyosiy tabiati” mavzusida kuzatuvlar o‘tkazish misolini ko‘rib chiqdik. O‘rganilayotgan obyektning yashash joyining tavsifi. Yashash muhitida organizm tuzilishining o‘xshashlik xususiyatlarini topish.

Barcha qurilish belgilari har doim moslasha oladimi yoki yo‘qligini tushuntirish. Nazorat ishi maktab o‘quvchilariga o‘rganilayotgan turlar, o‘tkan uzoq tarixiy yo‘l davomida moslashuvning paydo bo‘lishi haqida ilmiy taxmin qilishga, organizmlarning o‘zgaruvchanligi rolini, mavjudlik uchun kurashni, seleksiya ta’sirining yo‘nalishini aniqlashga yordam beradi. Talabalarning og‘zaki javoblari, shuningdek daftarlardagi yozuvlar, kuzatuvlar natijalarini tekshirishga yordam beradi. Nazorat davomida olingan bilimlarni mustahkamlash uchun talabalar notanish narsalar bilan o‘xshash tarzda ishlashga, shuningdek, yashash joyini tananing shakli, organizmlarning har qanday organlarining tuzilishi bo‘yicha aniqlashga taklif qilinadi kuzatuvni tashkil qilish uchun talabalar ekskursiya bo‘yicha hisobot tuzish uchun zarur vazifalar va rejalardan foydalanadilar. Masalan, talabalar turlarning tarkibini, biotsenozda ko‘payish ketma-ketligini o‘rganish uchun quyidagi vazifalarni oladilar:

O‘rganilayotgan biotsenozda asosiy o‘simlik turlarini, qarindoshlarini, avlodlarini va iloji bo‘lsa, hayvon turlarini aniqlash.

O‘simliklarning vertikal joylashuvining qonuniyatlarini ochib berish va ularning yashash joylarini tasvirlash.

Asosiy turdagi organizmlarda abiotik va biotik omillarga moslashish xususiyatlarini aniqlash.

Iloji bo‘lsa, biotsenoz aholisi o‘rtasidagi ozuqaviy munosabatlarni aniqlang.

O‘simliklar hayotidagi mavsumiy o‘zgarishlarni (iloji bo‘lsa va hayvonlar) tasvirlab bering.

Talabalar kuzatuvlar natijalarini yozma hisobot shaklida tayyorlaydilar, shuningdek gerbariy materiallari, kollektsiyalar, fotosuratlar, populyatsiyalar bo‘yicha biotsenoz tarkibi jadvallari, turlar soni, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar va boshqalarni ishlab chiqadilar. Bundan tashqari, ekskursiyadan keyingi umumiy yakuniy suhbat nazorat samaradorligi to‘g‘risida fikr bildirishga imkon beradi.

Tajriba yovvoyi tabiat hodisalari va jarayonlarini o‘rganishning eng samarali usullaridan biridir. Bu tadqiqot tamoyilini keng amalga oshirishga imkon beradi, talabalarning mustaqil ishi va tafakkurini rivojlantiradi, ilmiy usullarni joriy qiladi, ma’lum bir biznesni shakllantiradi. Tajriba maxsus yaratilgan sharoitlarda o‘rganilayotgan jarayonni sun’iy yodlashni o‘z ichiga oladi va o‘rganilayotgan obyektni begona, qo‘shimcha hodisalardan tozalash imkonini beradi. Nazorat eksperimentning zaruriy qismidir. Tajriba ko‘pincha sitologiya, genetika, naslchilik, ekologiyani o‘rganishda laboratoriya mashg‘ulotlari, amaliy ishlar kabi o‘quv jarayonini tashkil etish shakllarida qo‘llaniladi. Biz “hujayradagi metabolik reaksiyaning fermentativ tabiati” mavzusidagi laboratoriya darsida ushbu usuldan foydalanish misolini ko‘rib chiqdik. Har tajribani bajarish uchun talabalar laborantlar birgalikda kraxmal-jelatin plitalari, vodorod periksni o‘z vaqtida ishlab chiqaradilar, yodning kaliydagi yod eritmalari tayyorlanadi, don va dukkakli ekinlar urug‘lari o‘stiriladi, qaynatilgan va xom kartoshkaning mayda bo‘laklari, elodea novdasi probirkalarga soladilar. Darslar boshlanishidan oldin ular har bir stolga mikroskoplar, slaydlar va qopqoq ko‘zoynaklar, shisha tayoqlar, kishanlar, pinset, sinov naychalarini tarqatadilar. Eksperimentni o‘tkazish uchun talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Mikroskop ostida tomchi suvda elodea bargining hujayralariga qarang. Elodea varag‘iga bir tomchi vodorod periksni tushiring va mikroskop ostida ko‘rgan hodisani tasvirlab bering.

2. Petri idishiga kraxmal-jelatinli plastinkada uzunasiga to‘g‘ralgan va suvga namlangan loviya novdalarini (arpa, no‘xat) qo‘ying. Ularni plastinkada 30-40 daqiqaga qoldiring.

3. Poyaning tugashiga 5 daqiqa qolganda, niholni pinset bilan ehtiyotkorlik bilan olib tashlang va plastinkani zaif yod eritmasi bilan namlang. Vujudga kelgan hodisani tasvirlab bering va ularni tushuntiring.

4. 0,5 -1 ml vodorod periksni qaynatilgan va xom kartoshka bilan probirkalarga quying. Kuzatilgan hodisalarni tavsiflang va tushuntiring. Ushbu tajribalar talabalarga metabolik reaksiyaning fermentativ tabiati to‘g‘risida mustaqil ravishda xulosa chiqarishga imkon beradi. Talabalar sinfda o‘tkazishi mumkin bo‘lgan qisqa muddatli tajribalardan tashqari, biologiya kursida uzoq muddatli tajribalar ham o‘tkazadilar. Shunday qilib, o‘simliklardagi o‘zgaruvchanlikni o‘zgartirishda 1,5-2 oy oldin talabalar qurg‘oqchilikdan suv muhitiga o‘tish bilan tajriba o‘tkazishni boshlaydilar. Talabalarga amaliyot usuli taklif etiladi: 20 kun davomida yuqori namlik sharoitida Tradescantia o‘simligini o‘stiriladi. Shu maqsadda o‘stirilgan o‘simlik suv bilan boshqa idishga joylashtiriladi. 20 kundan keyin o‘simlik qisman suvda namlanadi.10 kundan keyin unga suv quyiladi. Boshqa o‘simlikni nazorat qilib, u oldindan tayyorgarliksiz darhol suvga joylashtiriladi. Turli namlik, yorug‘lik, mineral oziqlanish sharoitida o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha tajribalar ham uzoq vaqtni talab qiladi, bu esa abiotik omillarning organizmga ta’siri haqidagi materialni o‘zlashtirishga yordam beradi. Talabalar doimiy ravishda o‘simliklarni kuzatadilar va parvarish qiladilar. Eksperimentning borishini vaqti-vaqti bilan namoyish etish va eng muhimi, uni to‘liq yozib olish va barcha talabalar manfaati uchun xulosalar chiqarish yaxshiroqdir. O‘quv va amaliy saytda olib borilgan amaliy ishlar

bilan bog‘liq tajribalar kursning nazariy asoslarini o‘zlashtirishda katta yordam beradi.

Talabalar uchun taniqli olimlarning hayoti va faoliyati, tabiatni muhofaza qilish, bionika, kibernetika masalalari bo‘yicha biologiya yutuqlari to‘g‘risida yangiliklar tayyorlash, asarlaridan parchalarni o‘qish amaliyoti kabi vazifalar beriladi. Bilimlarni sinash, shuningdek, asosiy biologik tushunchalarni shakllantirish, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan. Ta’limning turli bosqichlarida talabalar bilimlarining holatini aniqlash o‘quv jarayonini takomillashtirish va uning sifatini oshirish uchun juda zarur shart hisoblanadi. Talabalar o‘z bilimlarini doimiy ravishda tekshirib turish orqali ularni uzoq vaqt eslab qolish va ulardagi kamchiliklarni qoplash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tekshirishning nazorat shakli bir qator inkor etilmaydigan afzalliklarga ega: talabalar bilan aloqa mavjudligi, talabalar tomonidan qaytarilgan javobni ularning oldida tekshirish, tushunarsiz savollarni darhol tushuntirish imkoniyati. Sinov quyidagilar uchun ishlab chiqilishi mumkin: a) maktab o‘quvchilari tomonidan aniq bilimlarni o‘zlashtirilishini tekshirish; b) olingan bilimlarni yangi vaziyatlarda ishlatish qobiliyatini kuzatish; v) salbiy munosabatlarni aniqlash uchun boshqa aqliy operatsiyalarni bajarish. Masalan, test yordamida mitotik fazalar ketma-ketligidan olingan bilimlarni yoki tizimli toifalarning izchilligini aniqlash mumkin. Quyidagi testdan foydalanib, Lamark va Darvin ta’lim mazmuni o‘rtasidagi farqni qanchalik yaxshi tushunganligini tekshirishingiz mumkin: 1. Darvin (D.) tushunchasi va undan, Lamark (L.) gipotezasiga ko‘ra, evolyutsion harakatlantiruvchi kuchlarning nomiga qarama-qarshi raqamlarni yozing: 1. Barcha qulay xususiyatlar meros qilib olinadi. 2. Organizmlarning atrof-muhit ta’siriga va bu o‘zgarishlarning merosiga muvofiq o‘zgarishi. 3. Tasodifiy, barcha yo‘nalishlarda o‘qish. 4. Tabiiy tanlanish. 5. Qo‘lda saralash. 6. Organizmlarning yetuklik tendensiyasi.

Yangi materialni o‘rganayotganda talaba bilimini tekshirish uchun quyidagi test qo‘llaniladi: birinchi navbatda yovvoyi o‘rdakdagi arogen intonatsiya (a) belgilarining tavsifi yonidagi raqamlarni, so‘ngra idiogen intonatsiya (lar) yonidagi raqamlarni nusxalash: 1) yurak to‘rt kamerali, 2) issiqqon, 3) oyoq tagida suzish to‘rlari bor, 4) tuklar qoplamasi, 5) havo yostig‘i, 6) filtrlangan tumshuq shakli, 7) asab tizimi yaxshi rivojlangan, 8) yog‘ bezlari, 9) avlodlarga g‘amxo‘rlik qilish. Javob: a-1,2,4,5,7,9; i-3,6,8.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, biologiya kontekstiga ko‘ra, masalan, o‘quvchilarda fanga oid tushuncha va bilimlar asosida tevarak atrofimizda sodir bo‘layotgan turli ekologik, iqtisodiy, tibbiy sohalardagi o‘zgarishlarga o‘z munosabatini ko‘rsata olish hamda o‘quvchi shaxsida tabiiy-ilmiy tushunchalarni shakllantirish orqali ularda tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalari shakllantirishda va xalqaro baholash dasturlarining muvaffaqiyatli yakunlashida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘ylaymanki, darslar integratsiyalashgan holda o‘tkazilsa, o‘ziga ishongan, faol, tanqidiy fikrlaydigan, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan individual shaxs shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o‘qitish vositalari: // Xalq ta’limi. – T, 2000. №1.

2. Niyozov Q. Biologik ta’lim jarayonida o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari. – Namangan: Namangan VXTXQTMOI, 2017-y.

3. Tolipova J., G‘ofurov A., Umaralieva M., Abdurahmonova I., Abdukarimov A., Eshonqulov O. “Biologiya”. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2017-y.

Gulhayo QUZMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Matematika va informatika fakulteti,
‘‘Matematika o‘qitish metodikasi va geometriya’’ kafedrasi v.b dotsenti

GEOMETRIYA FANIDA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiya asosida geometriya darslarini tashkil qilish orqali o‘quvchilarning geometriyaga oid bilimlarini yanada rivojlantirish va o‘rganishini ta’minlashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif bu yordamida o‘quvchilar amaliyot, vizualizatsiya va interaktiv darslarni o‘rganishlari osonlashadi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanib geometrik tasavvurlari bo‘yicha tavsiyalar berib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Texnologiya, raqam, geometriya, amaliyot, mashg‘ulot, GeoGebra, dastur, fazoviy.

В статье говорится о том, что организация уроков геометрии на основе цифровых технологий обеспечивает дальнейшее развитие и изучение знаний учащихся по геометрии. Автор также дал рекомендации по геометрическому воображению с использованием цифровых технологий, что облегчает учащимся изучение практических, визуализационных и интерактивных уроков.

Ключевые слова. Технология, число, геометрия, практика, обучение, геогебра, программа, пространственная.

The article argues that the organization of geometry lessons based on digital technologies ensures the further development and study of students’ geometry knowledge. The author also provides recommendations on geometric representations using digital technologies, facilitating students’ learning of practical, visualization, and interactive lessons.

Key words. Technology, number, geometry, practice, learning, geoGebra, program, spatial.

Raqamli texnologiyalar, geometriya dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarini tashkil qilishda qiziqarli imkoniyatlarni taqdim etadi. Quyidagi dars mashg‘ulotlari talabalar uchun foydali bo‘ladi:

1. GeoGebra dasturi bilan amaliyot: GeoGebra, raqamli geometriya va hisoblash dasturi bo‘lib, talabalar uchun o‘rganishda juda foydali bo‘ladi. Bu dastur orqali ular geometriya masalalarni yechish, grafiklar yaratish, funksiyalar va algebraviy ifodalar bilan ishlashadi. Talabalar bu dastur orqali geometriyaga oid amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishlari, konseptlarni tasdiqlashlari va sinovlar tashkil etishlari mumkin.

2. 3D modellash va tasvir etish dasturlari: Talabalar uchun 3D modellash va tasvir etish dasturlari, geometriya konseptlarini vizualizatsiyalash va tasavvurlashda juda foydali bo‘ladi. Bu dasturlar orqali ular geometriyaga oid obyektlarni yaratish, ularning xususiyatlarini o‘rganish va ularni o‘zlashtirishlari mumkin.

3. Veb-resurslar va onlayn darslar: Internetda ko‘plab veb-saytlar va onlayn darslar mavjud, ular talabalarga geometriya dars mashg‘ulotlarini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin. Bu resurslar orqali talabalar geometriya masalalarini o‘rganish, animatsiyalar va interaktiv vositalar yordamida konseptlarni tushuntirish va yaxshi tushunishlari mumkin.

4. Geometriya darslarining amaliyotlariga raqamli vositalar: Geometriya dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishda raqamli vositalardan foydalanish juda foydali bo‘ladi. Masalan: talabalar konstruksiya masalalarini yechish, geometriya misollarini yaratish va masofaviy o‘rganishni o‘rganishlari mumkin.

5. Geometriya darslarining interaktiv taqdimoti: talabalar uchun interaktiv taqdimotlar va dars videolarini ishlatish, geometriya konseptlarini tushuntirish va tushunishlarini oshirish uchun qulay bo‘ladi. Bu taqdimotlar orqali talabalar, geometriya masalalarini yechish va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali talabalarga geometriya darslarini qiziqarli va samarali qilish uchun qulay bo‘lishi mumkin va raqamli texnologiyalarning foydalari bilan integratsiyalashga imkoniyat yaratadi.

Raqamli texnologiyadan foydalanishning geometriya darsidagi ijobiy tomonlari:

Qiziqish va motivatsiya: raqamli texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarga geometriya darslarida qiziq va motivatsiyani oshirishi mumkin. Virtual darslar, interaktiv darsliklar va o‘yinlar o‘quvchilarning ilg‘orliklarini yoritish va fanni o‘rganishga rag‘batlantirish uchun muhim bo‘lishi mumkin.

Tushunchalarni tushuntirish: raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarga geometriya kontseptlarini vizual ko‘rinishda tushuntirishga yordam beradi. Animatsiyalar, 3D modellovchi dasturlar va AR/VR ilovalar orqali, o‘quvchilar shakllarni tasavvur qilish, shakllarni aylantirish va boshqalar kabi geometriya asoslarini o‘rganishni osonlashtiradi.

Mustaqil o‘rganish: raqamli texnologiyalar, o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. O‘quvchilar onlayn darslar, o‘quv ilovalari va onlayn resurslar orqali geometriya kontseptlarini o‘zlashtirish va mustaqil ravishda o‘rganishlari mumkin.

Amaliyot va mashg‘ulotlar: raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga amaliyotni oson va qiziqroq tarzda o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu, ularni qo‘llanmalar yaratish, dasturlash, interaktiv mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali o‘rganishni osonlashtiradi.

Vizualizatsiya va tasavvur qilish: raqamli texnologiyalar, geometriya va boshqa fanlar bo‘yicha kontseptlarni vizual ravishda tasavvur qilishga imkon beradi. Bu, o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirish va abstrakt ma’lumotlarni tasavvur qilishlarini osonlashtiradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga o‘rganish va rivojlanishda qulayliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi, ularga ma’lumotlar olish va tahlil qilish, amaliyotlarni bajarish va shaxsiy rivojlanishda yordam beradi.

Quyidagi masalalarni GeoGebra dasturida ishlashni ko‘rib chiqamiz.

Dastur asosida masalalar yechish namunasi.

1. GeoGebra dasturini oching.


2. Eng avval kvadrat shaklini yarating. Shu maqsadda, “Tog‘ri chiziq” ni tanlang va koordinata sistemida ikki nuqta belgilang.

3. So‘ngra, “Aylanish” yoki “Menzura” ni tanlang va kvadrat shaklini chizish uchun tomon uzunligini aniqlang.

4. Natijani hisoblang. Kvadratning yuzini hisoblash formulasi dan foydalaning va (a=4) qiymatini kiriting.

5. Dastur kvadratning yuzini ko‘rsatib beradi.


Shu tufayli, siz kvadratning yuzini hisoblashni GeoGebra dasturida amalga oshirishingiz mumkin va natijani grafik ko‘rinishida ko‘rish mumkin. Bu, dastur bilan ishlashni o‘rganish va matematik konseptlarini tushuntirish uchun samarali usul bo‘lib xizmat qiladi.



1.masala.


Tomoni 4 ga teng bo‘lgan kvadratning yuzini hamda perimetrini hisoblang.

Dastur asosida kvadrat chizmasini chizamiz. Tomonlarini belgilaymiz hamda kerakli menyuni tanlaganimizda perimetrini yokida yuzini topish uchun kerakli menyuni tanlasak yuzini hisoblab beradi.




2. Aylana uzunligini topish. Aylana uzunligini topish uchun, aylana radiusini dasturdan belgilab kerakli menyuni tanlashimizni o‘zi yetarli. Dastur bizga aylana uzunligini o‘zi hisoblab beradi.

Quyida fazoviy shakllarni dasturdagi tasvirini ko‘rishimiz mumkin. Dastur bizga fazoviy shakllarni turli tomondan ko‘rish imkonini beradi va bu bizga geometrik shaklni aniqroq tasavvur qilishimizga yordam beradi deb o‘ylayman.




Yuqoridagidek fazoviy shaklimizni maketini GeoGebra dasturida tasvirlab olamiz. Quyida tasvirlangan shaklimizni yuqoridan tasvirini ya’ni yuqori tomondan qay holatda

bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Bu tasvirlar bizga geometrik shakllarni tasavvur qilishimizga katta yordam beradi.



Bu rasmda esa kubni qismlarga bo‘linganini ko‘rishimiz va qanday qismlardan iboratligini tasvirlanganligini ko‘rib turibmiz.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojiyev M. va bosh. Zamonaviy ta’lim va tarbiya texnologiyalari. – T., 2017

2. Gulhayo Bahodirovna Kuzmanova, Nurseyit Alijan o‘g‘li Beketov (2020). Use Of Historical Materials In Teaching Mathematics In Continuous Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(09), 531-537.

3. Gulhayo Bahodirovna Kuzmanova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matnli masalalarning ta’limiy ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(3), 1154-1159

4. Teshabayev, Z. (2019). Raqamli ta’lim resurslari: maqsad va mazmuni. “O‘quv texnologiyalari” ilmiy elektron jurnali.

Mehriyo TUXTAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Umumiy tilshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqaloda zamonaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, nutqiy savodxonlikni rivojlantirish usul va metodlari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi nutqiga qo‘yilgan talablar mazmunining asoslari tahlil etilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘qituvchi, nutq madaniyati, nutq, savodxonlik, zamonaviy ta’lim.

В статье рассмотрены методы и приемы совершенствования методики развития речевой культуры будущих педагогов, развития речевой Грамотности на основе современных подходов. Кроме того, проанализированы основы содержания требований, предъявляемых к речи учителя в современном образовательном процессе.

Ключевые слова. Учитель, культура речи, речь, грамотность, современное образование.

The proverb considers methods and techniques for improving the methodology for the development of speech culture of future teachers, the development of speech literacy on the basis of modern approaches. In addition, in the process of modern education, the basics of the content of the requirements for the teacher’s speech are analyzed.

Key words. Teacher, speech culture, speech, literacy, modern education.

Nutq madaniyati – nutqning adabiy til me’yori mezonlariga asoslangan muayyan bir holda, mantiq ilmi talablariga bo‘ysungan ko‘rinishda namoyon bo‘lishidir. Nutq tafakkur va fikrlashda o‘zaro muloqot yordamida fikr almashish vositasining har bir kishi(shaxsi)ga xos shakli ko‘rinishidir. Nutq madaniyatining asosiy xususiyati nutqni ilmiy, sermazmun, aniq-ravshan, to‘g‘ri, ta’sirli, badiiy, mantiqiy, jarangdor, jozibali bayon etilishdan iborat. Buning uchun nutq adabiy til qonun-qoidalariga to‘liq javob berishi lozim.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir. Ta’lim muasssasalarda dars jarayonida turli mashqlar, turli tadbirlar, kitobxonlik tanlovlari ham muhim ahamiyatga egadir. Misol uchun, suratlar orqali suhbat o‘tkazish. Bunda talaba suratlar orqali ko‘rgan narsalarini chiroyli tarzda nutq bilan ifodalab beradi. Bundan tashqari, hikoya qilish metodi, badiiy asarni sahnalashtirish, tarixiy asarlardan rol ijro etish ham nutqiy savodxonlik kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, faoliyatini endi boshlayotgan pedagog-psixologlarning duch keladigan muammolaridan biri pedagogik texnika-muomala madaniyatini bilmaslik, o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o‘qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo‘qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak. I. V. Grebennikov, L.I. Kavinkolarning “Семейное воспитание” lug‘atida ta’kidlanishicha “nutq madaniyati birinchi

navbatda oilada shakllanadi. Kattalar bilan va kundalik hayotda turli, umumiy, adabiy bo‘lmagan so‘zlar o‘zlashtiriladi. Bolalar bunday so‘zlarni yaqinlaridan, tengdoshlari, bolalar jamoasidan o‘rganadilar. Bolalarning lug‘atini rivojlantirishda turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil o‘qish, bilimlarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini she’riyatda ifodalangan badiiy omillarga jalb etish katta ahamiyatga ega. Ifodali o‘qish, badiiy adabiyot o‘quvchi shaxsiga ta’sir etish bilan birga nutq madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi”.

O‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish vositalari quyidagilar:

Ota-ona, qarindosh-urug‘lar;

Tengdoshlar, guruhdoshlar, sinfdoshlar;

Yashab turgan muhit;

Ommaviy axborot vositalari;

Badiiy adabiyot;

Ijtimoiy-siyosiy hodisalar;

Dars mashg‘ulotlari;

Sahna asarlari;

Turli tadbirlar;

Dars mashg‘ulotlari;

Tabiat, atrof-muhit, sayohat.

Har qanday faoliyat maqsadi – kelajak faoliyat natijasining xayoldagi qiyofasidir. Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi maqsadlarga izchil mo‘ljal olishning asosi bo‘lib, tezda ushbu borada qaytib keladigan aloqa manbayi hisoblanadi. Bunda o‘quv maqsadlari imkoni boricha aniqlashtiriladi. Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan; o‘qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi. Zamonaviy yondashuvlar asosida nutq madaniyati rivojlantirishda quyidagilar o‘qituvchining vazifasiga kiradi:

O‘quvchi nutqi yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bilan boyitish;

Nutqiy madaniyat me’yorlarini singdirish;

O‘quvchilar qiyosiy tasnif, alohidalash va guruhlash ko‘nikmalarini shakllantirish, matn tahlili va matn yaratish bilan muntazam shug‘ullantirish;

Muomala-muloqotning sharqona odob va axloqqa asoslangan an’anaviy usullardan samarali foydalanish;

O‘qituvchi pedagogik faoliyatida uning nutqi texnikaning ko‘nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o‘z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

O‘qituvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir. (Nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o‘rta, past qila olishi va hokazo).

Nutqiy texnika sirlarini mukammal bilish o‘qituvchining tashkiliy – metodik malakalarni egallashiga ham bog‘liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo‘yicha ma’ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o‘qish orqali qo‘lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalarni o‘zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko‘nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo‘lib ishlash, o‘qish, faoliyat ko‘rsatish asosida

qurilgani ma’qul. Chunki guruh yoki jamoa bo‘lib o‘qish, ishlash har bir o‘qituvchiga refleksiv qobiliyatlari asosida, o‘zini boshqalar ko‘zi bilan ko‘rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun asos bo‘ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko‘rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy-metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg‘ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallash imkoniyatini beradi.

Nutqiy texnikani bir maromda egallashda, har bir o‘qituvchining o‘z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o‘qituvchi o‘zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang‘ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya’ni, o‘qituvchining dastlabki o‘quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro‘y beradigan nuqsonlar e’tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo‘lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo‘ladi. Ushbu faoliyat natijasida ko‘nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydigan jihatlarini to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma’lum mashqlar majmuini o‘z ichiga oladi.

Nutq madaniyatining asosini nutq faoliyati tashkil etadi. Chunki, nutq faoliyati – u insonning dunyoga bo‘lgan munosabati, o‘ziga xos xususiyatlari, bir maqsadga qaratilgan hayot mazmunidagi o‘zgarishlar, kuzatishlar kabilarni tashkil etadi. Nutq faoliyatining asosiy ish turi nutq bo‘lib, u insonning ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Nutq insonning muloqot, o‘qish faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Nutq asosida shaxsning rivojlanishi, aqliy kamoloti ro‘yobga chiqadi.

Nutq madaniyatini shakllantirish barkamol avlodni tarbiyalash bilan bevosita bog‘liqdir. Nutq madaniyatini shakllantirish – bu o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning kelajagi, ravnaqi uchun tegishli yo‘nalishlarni amalga oshirishdir. Nutq madaniyati shakllantirishning asosiy xususiyatlaridan biri bu tildir. Nutq madaniyatini til, fikr, so‘z, gap, bilim, xulq-atvor, tafakkur, his-tuyg‘u orqali shakllantiruvchi xususiyatlardir.

Nutq madaniyatinini shakllantirishda o‘qituvchiga bir qancha talablar qo‘yiladi. Dars jarayonini tashkil qilishda o‘quvchilarga turli mustaqil ishlar berilishi, qiziqarli hikoyalar, badiiy asarlarni tavsiya etib, so‘ngra o‘qilgan asarlar ustida ular bilan munozarali suhbatlar o‘tkazish muhimdir. Bundan tashqari, nutqiy madaniyatni oshirish uchun har darsda kichik-kichik she’r yodlash, turli sahna asarlari yoki tarixiy asarlardan foydalanish ham qo‘l keladi. Zamonaviy texnologiyalar orqali “matn mazmunini davom ettirish”, “suhbat”, notog‘ri yozilgan so‘z” kabi o‘yinlar orqali ham o‘quvchi nutqini rivojlantirish, uning badiiy adabiyotga qiziqishini oshirib, nutq madaniyatini shakllantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xliev B., Shamsieva M., Ziyadova T. – O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: O‘zbekiston, 2006 B.46.

2. Hamidov A. O‘qituvchi nutqi madaniyati. Termiz - 2013.

3. Qodirova X. Nutq madaniyati va aloqa turlari, ularning ta’lim jarayonidagi tutgan o‘rni. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo.

Usmon JO‘RAYEV,
Bo‘ka tumanidagi 8-umumta’lim maktabining Tarix fani o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi, “El-yurt hurmati”ordeni sohibi,
Turon FAN akademigi

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA TARIX FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QO‘YILADIGAN BUGUNGI TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktabida tarix fanini o‘qitishga qo‘yiladigan bugungi talablar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, tarix fani o‘qituvchilari tomonidan bu talablarning amalda bajarilishi tarix fani darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Samarali dars, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativlik, tanqidiy (kritik) fikrlash, ilmiylik.

В статье рассматриваются сегодняшние требования к преподаванию истории в общеобразовательной школе. Также учителями истории даны рекомендации о том, что практическое выполнение этих требований послужит повышению эффективности уроков истории.

Ключевые слова. Эффективный урок, коллаборатция, коммуникативность, креативность, критическое мышление, научность.

The article discusses today’s requirements for teaching history at a general secondary school. Recommendations were also made by history teachers that the actual implementation of these requirements would serve to improve the effectiveness of history classes.

Key work. Effective lesson, collaboration, communication, creativity, critical thinning, scientific.

Har bir xalq, millat o‘zining kelib chiqish tarixini chuqur bilmog‘i zarur. Chunki, tarix–bu o‘tmish xotirasi. Tarixiy xotirasiz esa kelajakni anglash ilojsiz. Shunday ekan, bu o‘git bugun umumta’lim maktablarimizda tarix fanini o‘qitish oldiga katta talablar qo‘ymoqda. Xo‘sh, ular nimalardan iborat? Qanday darsga zamonaviy samarali dars deyiladi? Tarix fani o‘qituvchisining mahorati deyilganda nima tushiniladi? Bu savollarga beriladigan aniq javob o‘qituvchi muvaffaqiyatining garovidir. Tarix faninini o‘qitishga qo‘yilgan birinchi talab – bu o‘quvchiga berilayotgan ilmning, bilimning ilmiyligidir. Biz axborot asrida yashayapmiz. Axborot nihoyatda ko‘p. O‘qituvchining vazifasi ular orasida tarixiy haqiqatga mosini tanlab olishdir. Masalan, “O‘zbek” atamasi qanday kelib chiqqan va u qanday ma’no anglatadi, degan masalada haligacha bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Akademik A.Muhammadjonov o‘zbek atamasi qabila begi, hukmdor ma’nolarini anglatadi, deb hisoblaydi. Tarix fanlari doktorlari G‘.Boboyor va F.Maqsudlar fikricha o‘zbek atamasi asosida subeg so‘zi yotadi va bu so‘z qo‘shin boshlig‘i ma’nosini anglatadi. Subeg keyinchalik o‘zbek deb talaffuz etilgan deydilar. X.Davron esa: “o‘zbek” atamasini qadimgi ajdodimiz O‘g‘izxon (mil.av. II yillik o‘rtalarida) nomi bilan bog‘liq, ya’ni “O‘g‘izbek” so‘zi “o‘zbek” bo‘lib ketgan deb hisoblaydi. Akademik A. Asqarov esa “o‘zbek” nomini dastlab XIII asr oxiri XVI asrning birinchi yarmida Qipchoq Dashtida yashovchi ko‘chmanchi qabila va elatlardan chiqqan aslzoda beklarning harbiylashgan jasur o‘g‘lonlari, erkin, ozod va o‘ziga bek

suvoriy harbiy jangchilar guruhlari bo‘lib XIV-XV asrlarda Qipchoq Dashtida yashovchi butun boshli bir el nomiga aylandi va ularning yurti “o‘zbeklar eli”, “o‘zbek mamlakati” deb atalgan deb ta’kidlaydi.

Ko‘ramizki, bu o‘rinda A. Asqarovning fikrlari professorlar G‘. Boboyor va F. Maqsudlarning fikriga yaqin. A. Asqarov “o‘zbek” aslzoda beklarning harbiy og‘lonlarini anglatadi desa, G‘.Boboyor va F.Maqsudlar qo‘shin boshlig‘ini anglatadi demoqdalar. Uchala tomon ham o‘zbek atamasida qabila begi, hukmdori, (u davrlarda tabiiyki, qabila begi yoki hukmdori ham harbiy bo‘lgan) “harbiylashgan jasur o‘g‘lon” -“qo‘shin boshlig‘i” ma’nosini bermoqda. Biz ustunlikni G‘.Boboyor va F.Maqsudlarning fikrlariga beramiz. Chunki ular ma’lumotni VII-IX asrlarga tegishli Xitoy yilnomalaridan (su-beg), eski turk bitiktoshlaridan (sebig) Baqriycha hujjatlaridan (Sebuk), eski bulg‘or va xazar topilmalaridan (“Su-begi” “ usbeg”) olganlar va bu atamalar xoqonning yonidagi yuqori mansab egasining unvonini, unung negizida harbiylik yotishini hujjatlar asosida uqtirishgan. Ular yana quyidagilarni ham ta’kidlaydilar: “814-831-yillarda hukm surgan Bulg‘or xoni O‘murt ismi bitilgan oltin medal’onda qo‘shin boshlig‘i xon Esu-begi ko‘rinishida uchraydi, bunga tayanib “subeg” atamasining IX asrlardayoq “usbeg” shaklida qoliplasha boshlagan”. Demak, o‘zbek atamasi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon nomidan olinmagan, O‘zbekxon XIV asarda yashagan bo‘lsa, o‘zbek atamasi Xazar xoqonligi (650-969) tangalarida juda erta uchrashi isbotlangan va bu atama jangovar qo‘shin qo‘mondoni nomidan kelib chiqqan.

Gap ilmiylik haqida ketar ekan, bolalarga bo‘rttirilgan tarixni, faqat oq ranglarda tasvirlanadigan tarixni o‘qitishdan yiroq bo‘lishimiz zarur. Tarixni bir tomonlama yoritish o‘quvchida tariximizga hurmatni emas, befarqlikni tarbiyalaydi. Gap so‘nggi tadqiqodlar haqida ketar ekan, bu o‘rinda Rossiya FA akademigi R. Rahmonaliyevning “Imperiya Tyurkov” nomli fundamental asari (M.2021) haqida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Sababi – u Chingizxon imperiyasini ham turkiy imperiya qatoriga qo‘shgan. Albatta O‘zR FA tarix insituti bu borada o‘z so‘zini aytmog‘i zarur. Maktablarimizda o‘qitilayotgan tarix darsiga qo‘yilayotgan ikkinchi talab – bu o‘qituvchining darsda eng muhimini o‘qitish mahoratiga ega bo‘lishidir.

Uchinchidan, o‘quvchilarning tarix bo‘yicha DTM da ko‘zda tutilgan bilimlar minimumini puxta o‘zlashtirib olishlarini ta’minlashdir. Buning uchun doimo o‘tilganlar mustahkamlanib borishi lozim. Bunga har bir o‘quvchiga alohida topshiriq berish orqali erishiladi. Bundan tashqari tez-tez nazorat ishi o‘tkazib borish, uning natijasi bo‘yicha o‘quvchi bilimlarini izohlab berish, o‘quvchisining bergan javobiga isbot keltira olish ko‘nikmasini shakllantirib borish ham talab etiladi.

To‘rtinchidan, dars o‘quvchilarda kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va kritik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi shart. Kollaboratsiya (shaxslararo ko‘nikmalarni rivojlantirish) – maqsadga erishish yo‘lida birgalikda ishlash va bir-birini to‘ldira olish deganidir. Bugungi dunyoda hamkorlik qila olish har jiihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bu kompentensiya ayni paytda kirishib keta olish, muzokaralar olib borish, jamoada ishlay olish, muammoni hal eta olish, eng qulay reja bo‘yicha harakat yo‘nalishini tanlay olishni ham ko‘zda tutadi. Chunki, hayotda odamlar yolg‘iz ishlagandan ko‘ra, hamkorlikda ishlashda ko‘proq natijaga erishadilar. Zero hamkorlik – bu yordam beradigan va yordam oladigan tomonlarning o‘zaro manfaatli faoliyatidir. Bunda ular umumiy maqsad yo‘lida birgalikda harakat qiladilar.

Kommunikativlik (samarali muloqot qila olish) – o‘zaro tushinishga erishishda ikki tomonlama muloqotni anglatadi. Bu tushuncha nutq orqali boshqalarni rag‘batlantira

olish qobilyatini qaror toptirishni va suhbatdoshni tinglay hamda tushuna olishni ham anglatadi. Kreativ fikrlash-o‘qituvchining topqirligi, ijodkorligi,o‘z tasavvurini ta’sirchan ifodalay olish,yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati. Dars jarayonida muhokamalar o‘tkazish juda muhim. Chunki, shundagina o‘quvchi o‘z fikrini ifoda eta oladi va birovga yetkaza ham oladi.Turli g‘oyalarni ilgari surish insonning fikrlash qobilyatini ko‘rsatib beradigan asosiy mezondir. Ilgari suriladigan g‘oyaning ko‘p bo‘lishi fikr teranligini anglatadi. Bunday holat o‘ziga xoslik deb ham ataladi. Bunday o‘quvchilarga g‘ayrioddiylik iborasi ishlatiladi. Ular berilgan savollarga boshqalarning xayoliga kelmaydigan javobni bera olishlari bilan ajralib turadi va yangi g‘oyadan yana boshqa g‘oya yaratishlari bilan ajralib turadi.Ular boshqalar tomonidan bildirilgan g‘oyalarning kamchilik va afzalliklarini aniqlay oladilar. Kamchiliklarni bartaraf etish usullarini taklif eta oladilar. Bu ko‘nikma to‘la qaror toptirilsa o‘quvchi birovning ishini o‘zgartira oladi. Ayni paytda rivojlantira oladi ham.

Tanqidiy (kiritik) fikrlash – bu muammo yechimiga yangicha yondashish va muammoni “qanday” qilib va “nima uchun” savollarini berish orqali tahlil etish qobiliyatidir. Bunda: a) misol va dalillar solishtiriladi, b) da’volar baholanadi, v) qaror qabul qilishda barcha ma’lumotlar to‘la o‘rganib chiqilgan bo‘ladi. Tanqidiy fikrlash kompentensiyasi o‘quvchidan bir savolga, muammoga ikki xil javob tayyorlashni hamda oxirida ulardan birini tanlashni va nega ayni shu fikr tanlanganligini izohlab berishni ham nazarda tutadi.

Beshinchidan, o‘qituvchining darsda eng muhim manbalardan foydalana olishi talabi. Masalan, 7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligida Xorazmshohlar davlati boshqaruvi” mavzusi bor. Mavzuning 131-betida Turkonxotunning kim bo‘lganligi haqida ma’lumot berilgan. Ma’lumotda sultonning onasi bo‘lgan bu ayolning davlatdagi mavqeyiga ham baho berilgan. Bu o‘rinda biz Ozarboyjon FA akademigi Ziyo Bunyodovning “Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)” asaridan o‘quvchilarga quyidagi xulosalarni o‘qib berdik: Turkonxotun “Jahonning hokimi” degan laqabga ega edi. “Faqat Allohdan himoya kutaman”, iborasi uning shiori bo‘lgan.Turkon xotun sultongagina hukmini o‘tkazibgina qolmay, amirlar va amaldorlarga ham farmon berardi. Bu ikki hokimiyatchilik oqibatida mo‘g‘ullar hujumi arafasida saltanat barqarorligini bir muncha yo‘qotdi. Bu birinchidan. Ikkinchidan Turkonxotun ham, o‘g‘li Xorazmshoh Alovuddin Muhammad ham Gurganchda garov sifatida turgan kishilarni yoki Xorazmshohlar davlatiga qo‘shib olingan mamlakat va o‘lkalar hokimlarini qatl etib turardilar. Bu esa Xorazmshohdan tezroq qutilishni xohlaganlar sonini ko‘paytirib yubordi”. Sakkizinchidan: o‘qituvchining murabbiy rolini ijro etib borishi talabi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchi soniga teng qog‘oz kartochkaga alohida-alohida, lekin qisqa vaqt ichida bajarsa bo‘ladigan topshiriq yozib tarqatib chiqadi. To‘qqizinchidan: bu o‘qituvchining jonli so‘zi (aktyorlik) qobilyatiga ega bo‘lishi talabi.

Darsda hech bir omil o‘qituvchining jonli so‘zi o‘rnini bosa olmaydi. Chunki, o‘qituvchining jonli so‘zi – bu, o‘quvchining hiissiyotiga, qalbiga ta’sir ko‘rsata oladigan, o‘quvchida milliy g‘ururni shakllantira oladigan tengsiz omil. Bu talabni uddalay olish o‘qituvchidan aktyorlik qobilyatini talab etadi. O‘qituvchi mavzuga oid birorta badiiy adabiyotdan parcha o‘qib berishi yoki yoddan aytishi lozim. O‘ninchidan, darsda o‘qitishning texnika vositalaridan foydalanish talabi. O‘n birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining qonunlaridan, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan o‘rinli foydalanish, ya’ni darsda o‘tilayotgan mavzuning mazmun-mohiyatiga taalluqli bo‘lgan fikrlardan iqtibos keltirib o‘tish talabi.

O‘n ikkinchidan, hozirgi kunda xalqaro maydonda va davlatimizning ichki hayotida sodir bo‘layotgan dolzarb masalalar bo‘yicha suhbat uyushtirib borish talabi. Bu talab-o‘quvchini sodir bo‘layotgan hodisalarga, o‘zgarishlarga nisbatan munosabat bildirishga o‘rgatadi. O‘n uchinchidan, darsda ta’lim va tarbiya birligini ta’minlash talabi. Tarbiya haqida o‘z vaqtida ulug‘ jadid bobomiz, mashhur pedagog A.Avloniy bunday deb yozgan edi: ‘‘Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ajralmaydigan jon va tan kabidir”. Biz hech qachon ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajrata olmaymiz, garchand maktab faqat ta’lim berish bilangina shug‘ullansin deyayotganlar ham bo‘lsada.

O‘n to‘rtinchidan, bugungi kunda tarixni o‘qitishda uning tarbiyaviy imkoniyatidan samarali foydalanish talabi. Bu talab har qachongidan ham dolzarb bo‘lib qoldi. Tarix darslari – bu milliy o‘zlikni anglashni, Vatanni sevdirishni, milliy g‘ururni, jasorat va mardlik kabi fazilatlarni tarbiyalashning ulkan maktabidir. Binobarin shunday ekan bu holat o‘qituvchiga juda katta mas’ulyat yuklamoqda.

Bundan tashqari, o‘qituvchining o‘zi E. Vohidovning “O‘zbegim” qasidasini, A.Oripovning “Olomonga”, ‘‘O‘zbekiston-vatanim manim”, “Imtihon”, M. Yusufning “Xalq bo‘l elim”, Ozorbayjon shoiri Akif Bag‘irning “Ozbek kelayotir” kabi she’rlarini yoddan bilishi ham qarz, ham farz. Zero, adabiyotga oshno bo‘lmagan tarix o‘qituvchisi zamon o‘qituvchisi emas. Bu o‘rinda buyuk rus yozuvchisi A. P. Chexovning quyidagi so‘zlarni keltirib o‘tishni lozim deb topdim (asli kasbi shifokor bo‘lgan): “Tibbiyot mening rafiqam, adabiyot mashuqam”.

Ulug‘ o‘zbek xalqiga xos ibo, hayo, iffat kabi tushunchalar haqida gap ketganida o‘quvchilarga albatta o‘zbek onasining irodasini, o‘zbek ayolining hayo va iffatining namunasini tarannum etuvchi “Ilhaq” filmidan parcha ko‘rsatish lozim.

Afsus bilan shuni qayd etamizki, mustaqillik yillarida tug‘ilganlarning 95 foizi o‘zbek xalqining ulug‘ farzandi, O‘zbekistonni 24 yil boshqargan Sh. Rashidov haqida deyarli tasavvurga ega emas. Buning qator sabablari bor, albatta. Chunonchi, birinchi Prezidentimiz I.Karimovning qarorlari bilan Sh Rashidov tavalludining 75 yilligi, Sh. Mirziyoyevning qarori bilan 100 yilligi nishonlandi. Shu bilan cheklanildi. Ikkinchidan, Toshkentning markazida Sh. Rashidov byusti o‘rnatilgan (O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ro‘parasida, O‘zR BM binosining quyosh chiqish tomonida) Biroq byust o‘rnatilgan joy hali-hamon (33 yildan beri) fuqarolar ziyorat qiladigan maskanga aylangani yo‘q. Bu endi Toshkent shahar hokimining e’tiboriga, insofiga havola. O‘n to‘rtinchidan, o‘qituvchining O‘zbekiston tarixiga oid adabiyotlarni muntazam o‘qib borishi, tarixiy mavzularga oid eng muhim adabiyotlardan tarix o‘quv xonasida boy kutubxona tashkil qilish talabi. Bu talabni bajarmasdan turib tarix darsining samarali bo‘lishiga erishib bo‘lmasligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbekiston tarixi ” –T., 2009. 3-bet.
2. “Vatan” jurnali –T., 2024. 61-bet.
3. Asqarov A. “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” –T., 2015.

Azamat RAXMONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Umumiy pedagogika" kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUCHILARINI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada o'qituvchilarning kasbiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, kasbiy-amaliy jihatdan tayyorlashda ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlar asosida tajribalarini boyitish hamda kasbiy ko'nikmalarning tarkibiy qismlari va bosqichlari yoritib berildi.

Tayanch so'zlar. Kasbiy innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, ta'limga samarali tayyorlash, pedagoglarda ilmiy dunyoqarash, ta'limni individuallashtirish.

В данной статье освещены компоненты и этапы формирования профессиональных навыков учителей, а также обогащения их опыта на основе новых подходов к образовательному процессу в профессионально-практической подготовке.

Ключевые слова. Профессиональные инновации, педагогические технологии, эффективная подготовка к обучению, научное мировоззрение педагогов, индивидуализация образования.

This article highlights the components and stages of professional skills, enriching the experience of teachers based on new approaches to the educational process in the formation of professional skills, as well as in their professional and practical training.

Key words. Professional innovation, pedagogical Technologies, effective preparation for education, scientific worldview in educators, individualization of Education.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan maqsadlar, asosan, o'quvchilarning zamonaviy metodlar asosida o'quv faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib tarbiyalash pedagoglar zimmasiga katta vazifalar yuklamoqda. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ko'plab dasturlar tasdiqlandi. Maktablarning mazkur davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining maktab yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktab ta'limining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o'z navbatida maktab ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi. Maktab ta'limida samaradorlikni ta'minlashda pedagog-tarbiyachidan chuqur pedagogik psixologik tayyorgarlik, har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi hamda shaxsiy reja tuzishda

quyidagi talablarga qat’iy rioya qilishi talab etiladi. Bu esa quyidagilarni o‘zida aks ettiradi:

− vujudga keladigan pedagogik muammolarni bashorat qila olishi;

– buning uchun bo‘lajak pedagog-tarbiyachi pedagogik jarayonda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko‘ra bilish va uni bartaraf etish layoqatiga ega bo‘lishi;

− vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish metodlarini o‘zlashtirishi;

− vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishning eng qulay usullarini qo‘llay olishi;

− o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish, ularni qo‘llab-quvvatlash mahoratiga ega bo‘lishi;

− har bir o‘quvchiga individual yondasha olishi;

− o‘quvchilar bilan ommaviy tadbirlarni tashkil eta olish ko‘nikmasini egallashi;

− o‘quvchilarni kitobxonlik, kitobsevarlikka unday olishi kabilar.

Bo‘lajak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni maktab ta’limiga samarali tayyorlash imkonini beradi. Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o‘rganish natijalari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo‘lishi, bilimdonligi va kreativligi o‘quvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak pedagog-tarbiyachining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarda o‘z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o‘zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo‘llash, rahbarlik ko‘nikmalarini egallash, o‘quvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o‘rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o‘zlashtirish kabi ko‘nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak pedagog o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o‘zlashtirishlari kerak. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

− o‘quvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish;

− bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;

− guruhdagi faol o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga yordam ko‘rsatish;

− o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag‘batlantirish;

− o‘quvchilar bilan topshiriqlar ustida tizimli ishlash va bu jarayonda ularni faollashtirish;

− guruh o‘quvchilari orasida tarbiyaviy tadbirlarni tizimli tarzda tashkil etish kabilar.

Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma’ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari davomida dialogga kirishish, fanga oid yangi ma’lumotlar ustida ishlash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishlash hamda o‘rgangan tajribalarini tahlil qilish muhim o‘rin egallaydi. Maktabda sinf faoliyatiga rahbarlik qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq va hisoblashga oid dastlabki ko‘nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy urf-odatlarimizni ham singdiradilar. Ular bolalarda juda yoshlikdan boshlab, to‘g‘riso‘zlik, halollok, bag‘rikenglik, birdamlik, o‘zaro yordam kabi sifatlarni shakllantirishga intiladilar. Maktab ta’limining keyingi bosqichlarida bolalarning bilim-

larni sifatli o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktablarni modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, har jihatdan sifatli ta’lim va tayanch ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Ikkinchi tomondan maktab ta’limini individuallashtirish tamoyili asoida o‘zida bir qator talablarni mujassamlashtiradi. Jamiyatning rivojlanishi barobarida shaxs faoliyati ham ko‘proq darajada individuallashtiriladi va uning mavqeyi o‘zgaradi. Agar mamlakat va jamiyat qanchalik rivojlangan bo‘lsa unda har bir inson alohida qadrlanadi va o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Talabalar bugungi kunda ro‘y berayotgan voqealar, axborotlar tizimining jadallashuviga ongli munosabatda bo‘lish tajribasini egallashlari kerak. Ularda axborotlarni sarhisob qilish, voqea-hodisalarga obyektiv munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishi nihoyatda muhim.

Bo‘lajak pedagoglarni kundalik ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni tahlil qilishida ularni munosib baholashida, shu asosida atrofdagilarning xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishlariga zamin yaraladi. Bularning barchasi o‘quvchilarda ma’naviy xislatlarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holatlarni bartaraf etish, bolalarni jamoa hayotiga moslashtirish, ularni muloqotchanlik vaziyatlariga tezroq olib kirish, ruhiy osoyishtaliklarini ta’minlash pedagoglarning muhim vazifalari sifatida qaraladi. Bolalar xarakteridagi salbiy jihatlarni bartaraf qilishga ko‘maklashish, ularni to‘g‘rilik va haqqo‘ylikka o‘rgatish, ayniqsa ular irodasini mustahkamlash pedagog tarbiyachilarning muhim vazifalaridan biri sifatida ko’riladi. Bunda pedagoglar hamkorlikda ta’sir ko‘rsatish metodidan foydalanishlari kerak. Pedagoglar bolalarni tevarak-atrofdagi voqelik bilan tanishtirish, ularni shu jarayonda ishtirok etishlari uchun amaliy tayyorlashi kerak. Bolalar oldiga aniq, o‘rtacha murakkablikdagi vazifalar qo‘yilgandagina, ularda tashabbuskorlik, qiziquvchanlik, faollik ko‘rsatish istagi namoyon bo‘ladi.

Natijada bolada mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi, tarbiyachi tomonidan bildirilgan ishonchni oqlashga intiladi. Bolalarning o‘z oldiga qo‘yilgan topshiriqlarni bajara olish ko‘nikmalari va ularning xulq-atvorlarini tartibga solinishiga ko‘maklashadi. Buning natijasida ularda ijobiy xarakterning shakllanishi, irodaviy xislatlarning tarkib topishini ko‘rish mumkin. Bolalar xulq-atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish orqali pedagog ularni rag‘batlantirish natijasida kamchiliklarini bartaraf etishga erishadi. Biroq, bolaning kamchiliklari muntazam ko‘rsatilishi ijobiy natija bermasligi ham ayni haqiqatlardan biri hisoblanadi. Bolalarning xulq-atvorini shakllantirish uchun pedagog o’rni kelganda mehribon va talabchan bo‘lishi lozim. Bola xulq-atvoridagi tortinchoqlik, loqaydlik, o‘yinqaroqlik, qaysarlik kabi sifatlarlarni pedagoglar ota-onalar bilan yaqindan hamkorlikda barham toptirishlari talab etiladi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishi ota-onalar hamda mahalla bilan hamkorlikni amalga oshirishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – T., 2021-y 112-bet.

2. Azizxo‘jayeva N.N. “Pedagogik texnalogiyalar va pedagogik mahorat”. – T., 2006-y.

3. Ziyamuhammedov Bo‘ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnalogiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. – T., 2009-yil.

4. Xasanboyev J., To’raqulov X., Xaydarov M., Xasanboyev O. “Pedagogika fanidan izohli lug‘at”. “Fan va texnologiya nashriyot” – T., 2008, 420b.

Bektosh RUSTAMOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Ta’lim menejmenti”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABALARDA KASBIY FAOLIYAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada talabalarning kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, kasbiy-amaliy jihatdan tayyorlashda ta’lim jarayoniga yangi yondashuvlar asosida tajribalarini boyitish hamda kasbiy ko‘nikmalarning tarkibiy qismlari va bosqichlari yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Kasbiy motivatsiya, pedagogik texnologiyalar, ta’limiga samarali tayyorlash, pedagoglarda kasbiy kompitensiya, protsessual, kasbiy operatsiyon faoliyat.

В данной статье освещены компоненты и этапы формирования навыков профессиональной деятельности студентов, а также обогащения их опыта на основе новых подходов к образовательному процессу в профессионально-практической подготовке.

Ключевые слова. Профессиональная мотивация, педагогические технологии, эффективная подготовка к обучению, профессиональная компетентность педагогов, процессуальная, профессионально-операционная деятельность.

This article highlights the components and stages of forming professional skills in students, as well as enriching their experience based on new approaches to the educational process in their professional and practical training.

Key words. Professional motivation, pedagogical technologies, effective training in education, professional competence of teachers, procedural, professional-operational activities.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, hatto ma’lum o‘qituvchilik tajribasini to‘plagan va kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilimlarga ega bo‘lsalar ham, har doim ham o‘z faoliyatlarida undan qanday samarali foydalanishni bilishmaydi. Tajriba va sezgi bu toifadagi o‘qituvchilarning ongi va faoliyatidagi nazariy bilimlarni almashtiradi yoki ular bilan turli, bir-biriga mos kelmaydigan sohalar birga yashaydi. Shu sababli pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini o‘rganishga zarurati tug‘iladi. Pedagogik kasbiy ko‘nikma deganda, biz pedagogik faoliyat subyektlari va obyektlari rivojlanishining mumkin bo‘lgan tendensiyalari, o‘zgarishlari va istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan mustaqil universal ko‘p funksiyali pedagogik faoliyatni tushunamiz. Biz kasbiy ko‘nikmalar natijasini olishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish ko‘nikmalari deb ta’riflaymiz. Kasbiy ko‘nikmalar esa quyidagi tarkibiy qismlarga ega:

– bilim (kasbiy faoliyati mazmunini aks ettiradi); – faollik (kasbiy faollik harakatlari);

– aqliy (ushbu faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan fikrlash jarayonlarining sifatlari).

Talabalarda kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishning birinchi bosqichi zarur ma’lumotlarni yig‘ishdir. Maktab o‘quvchilarini o‘rganish, o‘quv jarayoni, maktab o‘quvchilarining keyingi sinflarida materialni to‘liq o‘zlashtirish xususiyatlari va boshqalar. Bu bosqich ishlarning holatini baholash yoki tashxis qo‘yish bilan yakunlanadi. Olingan ma’lumotlar va tashxis, kasbiy faoliyat uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi bosqich – oldingi bosqichda olingan bilimlardan foydalangan holda kasbiy ko‘nikmani shakllantirish. Gipotezalar-taxminlar, oqibatlar haqidagi xulosalar, modellar-tak-

liflar, turli pedagogik jarayonlarning rejalari – hamda natijalar tahlili bo‘lishi mumkin. Uchinchi, yakuniy bosqich – olingan natijalar xulosasi asosida faoliyatda boshqaruvni amalga oshirishdan iborat. Talabalarda kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini baholash mezonlarini aniqlashda ularga muvofiq diagnostika usullari tanlanadi. Mezon deganda biror narsani baholash, ta’riflash yoki tasniflash amalga oshiriladigan belgi tushuniladi. Mezonlar:

1) bilimlarning hajmi va sifati; 2) kasbiy faoliyatining operativ tarkibiga kiritilgan harakatlarning namoyon bo‘lish darajasi; 3) fikrlash jarayonlari sifatlari darajasi.

Mezonlar talabalar kasbiy ko‘nikmalarini aniqlash bilim, faollik va fikrlash kabi uchta komponentini o‘lchashga qaratilgan. Shu bilan birga, komponentlarning birligi taxminini hisobga olgan holda mezonlarni ishlab chiqishga va diagnostika vositalarini tanlashga kirishildi. Har bir mezon batafsil ko‘rib chiqildi. Birinchi mezon – bu bilim. Pedagogik kasbiy bilish mezoni kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim miqdori va bilim sifati hisoblanadi. Mazkur ikkala mezonni to‘rt balli shkala bo‘yicha baholash ma’qul topildi.

Kasbiy bilimlar hajmi raqamli ifodalarga ega:

3 – kasbiy faoliyat qilish bo‘yicha bilimlarning to‘liq hajmi (maxsus kurs dasturi bo‘yicha); 2 - yetarlicha katta, ammo to‘liq bo‘lmagan bilim miqdori; 1 - oz miqdordagi bilim; 0 – kasbiy faoliyat qilish uchun yetarli bilim miqdori. Bilim sifati quyidagi shkala bo‘yicha baholanadi:

3 - bilimning yuqori sifati; 2 - bilimning o‘rta sifati; 1 - bilimlarning past sifati; 0 - bilim sifati kasbiy faoliyat uchun yetarli emas.

Kasbiy ko‘nikmlarni shakllantirishning protsessual tomoni haqidagi bilim darajasini aniqlashga qaratilgan testlar bilan bir qatorda biz talabalarning kasbiy faoliyat qilish uchun asos sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan bilimlarni aniqlashda yordam berdi. Testlar va test anketalarini ishlab chiqish jarayonida T.G.Mixaleva, V.A.Xlebnikov, A.N. Mayorovlar ishlariga asoslandik. Test tuzilmasi uchun talablarni hisobga oldik, unga ko‘ra test topshiriqlarida ko‘rsatmalar, topshiriqlar matni, javob variantlari va to‘g‘ri javoblar bo‘lishi kerak. Test topshiriqlari yagona to‘g‘ri javobga ega bo‘lishi kerakligi haqidagi asosiy talabga ham amal qildik. Shu munosabat bilan biz barcha o‘lchov materiallarini ikki guruhga ajratdik: testlar va anketalar, so‘rovnomalar olindi. Ularni baholash uchun diagnostika texnikasidan foydalanildi. Texnika – bu subyektdan hal qilish so‘raladigan beshta kasbiy vazifalar to‘plamidir, ular:

1. Yangi materialni o‘zlashtirishda (tushunchalarni belgilashda, ilgari olingan bilimlarni muayyan mavzu bo‘yicha yangi narsalarni o‘zlashtirish natijasiga o‘tkazish mashqlarini bajarishda) o‘quvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar haqidagi farazlarni ifodalash va asoslash.

2. Ushbu ziddiyatli vaziyatda alohida o‘quvchilar va butun sinfning mumkin bo‘lgan xatti-harakatlari haqidagi farazlarni ifodalash va asoslash.

3. Konfliktli vaziyatda o‘qituvchi tomonidan qabul qilingan qarorning oqibatlarini aniqlash.

4. Ikki xil talaba uchun aniq og‘zaki aralashuvlar (mukofot va tanbeh) oqibatlarini aniqlash.

Barcha topshiriqlar natijalari quyidagi ko‘rsatkich bo‘yicha baholanadi 1 va 2-topshiriqlar quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholandi:

– gipotezalarni ilgari surishda izlanishning kengligi;

– farazlarni ilgari surishda shart talablarini hisobga olish;

– gipotezalarning moslashuvchanligi;
– gipotezalarning asosliligi;
3 va 4 talablar quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanishni nazarda tutadi:
– oqibatlarni og‘zaki umumlashtirish darajasi;
– chiqarilgan xulosalarning asosliligi;
– oqibatlarining istiqbollari;
– qurilish tadqiqotlari logistikasi;
– oqibatlarning ehtimollilik xususiyatini anglash;
– kasbiy faoliyat qilish jarayonining bosqichlarini tushunish;
– sabablarni og‘zaki umumlashtirish darajasi;
– sabab-natija munosabatlarining to‘liqligi;
– sabab va natijaning ahamiyati;
– sabab-natija munosabatlarining istiqbollari.
Reja tuzish bo‘yicha topshiriqlar ikkita ko‘rsatkich bo‘yicha baholandi:
– rejaning maqsadini tushunish;
– rejalashtirish operatsiyalarining to‘liqligi.
Ko‘rsatkichlarning har biri uch ballik shkala bo‘yicha baholandi va unga ega bo‘ldi.

Uchinchi mezon fikrlash jarayonlarining sifatlarini (analitiklik, chuqurlik, xabardorlik, moslashuvchanlik, istiqbol, dalil) aniqlashga qaratilgan. Fikrlash sifati 16 ta ko‘rsatkich bo‘yicha baholandi, ularning har biri uchun ikkita muqobil bayonot berilgan. Sinovni o‘tkazish subyektlarning prognostik faoliyatining tipik xususiyatlarini kuzatishga asoslangan javoblarini o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan har bir savolga javoblar har bir ko‘rsatkich bo‘yicha darajadagi dixotomik farqlarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, daraja-mezon shkalasidan foydalanib, biz kasbiy faoliyat qilish qobiliyatining uchta darajasini aniqladik:

I daraja - yuqori; II daraja - o‘rta; III daraja - past.

Ko‘pgina hollarda yuqori daraja kasbiy qobiliyatlari kasbiy faoliyat operatsion tarkibiga kiritilgan barcha harakatlarda to‘liq va konstruktiv tarzda namoyon bo‘lishini nazarda tutadi. Shu bilan birga, talaba to‘liqligicha pedagogik kasbiy faoliyat bo‘yicha chuqur bilimga ega. Fikrlash jarayonlari sifatlarining namoyon bo‘lishining optimal darajasi kuzatiladi. Fikrlash jarayonlari sifatlarining namoyon bo‘lishining qoniqarli darajasi. Past daraja kasbiy ko‘nikmalari aniqlashning operatsion tarkibiga kiritilgan barcha harakatlarda namoyon bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Talaba pedagogik kasbiy faoliyat bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Fikrlash jarayonlarining zaruriy sifatlari shakllanmagan. Mezonlarda turli xil ko‘rsatkichlar soni va shunga mos ravishda turli xil miqdoriy ifodalar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev O. (2011). Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashning uslubiy asoslari. Экономика и инновацсионние технологии, (2), 13–31. извлечено от ҳттпс://инлибрарй.уз/индех.пҳп/эономис_анд_инновативе/артиле/виеw/7713

2. Ломов Б.Ф. Антитсипатсия в структуре деятелъности / Б.Ф. Ломов Э.Ҳ. Сурков. М.: Наука, 1980. - 279 с.

3. Лук, А.Н. Мишление и творчество / А.Н. Лук. М.: Политиздат, 1976. - 144 с.

Ravshanoy EGAMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti

SINFDAN TASHQARI ISHLARNI AMALGA OSHIRISHDA PEDAGOGIK MUAMMOLARNI YECHISHGA OID TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda rivojlangan ta’lim sharoitida innovatsion ta’lim texnologiyalarining ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Ta’limni yanada samarali qilish usullari, zamonaviy texnologiyalardan dars davomida qanday foydalanish usullari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Tayach so‘zlar. Interaktiv metodlar, innovatsion ta’lim, innovatsiya, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, an’anaviy ta’lim.

В данной статье говорится о значении инновационных образовательных технологий в современной современной образовательной среде. Была дана информация о том, как сделать обучение более эффективным, как использовать современные технологии на уроке.

Ключевые слова. Интерактивные методы, инновационное образование, инновации, педагогические технологии, информационные технологии, традиционное образование.

This article talks about the importance of innovative educational technologies in today’s advanced educational environment. Information was given on ways to make education more effective, how to use modern technologies during the lesson.

Key words. Interactive methods, innovative education, innovation, pedagogical technology, information technology, traditional education.

Zamon taraqqiy etib yuksalayotgan hozirgi davrda ta’limni eng so‘nggi zamonaviy texnologiyalar va metodlar asosida yosh avlodga yetkazish, ularni hayotga tayyorlash muhim hisoblanadi. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda tarbiya doimo, muhim va umimiy jihat sanaladi. Ta’lim-tarbiya insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan birga paydo bo‘lib, jamiyat yashar ekan, u ham mavjud bo‘lib qoladi. Unda qonuniy o‘zaro bog‘liqliklar va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o‘zaro bog‘liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya o‘qitishning bir qismi sifatida ta’limni ham o‘z ichiga oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, ular maktab bilan hayot aloqasini mustahkamlaydi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish san’atkorlar, ishchilar, olimlar, dehqonlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. O‘quvchilar turli sohada ishlayotgan kishilar bilan tanishib, ular kabi Vatanga, xalqqa xizmat qilish istagi paydo bo‘ladi.

Texnologiya ta’limida boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni olib borishda zamonaviy va yuksak texnologiyalardan foydalanilgan holda mavzular tanlanishi muhim, bu o‘quvchilarning dunyoqarashini har tomonlama o‘stiradi va qiziqish uyg‘otadi. Har bir tanlangan mavzuni o‘ylashga, ular ustida ixtiro qilishga fikrlarini esa chuqur mulohaza etishlariga yetaklaydigan bo‘lishi zarur. Zeroki, biz yosh avlodga ta’lim bilan tarbiyani birdek berar ekanmiz, ularga qo‘yiladigan talablarni ham shunga hamohang tarzda bermog‘imiz zamon talablaridan biridir. Chunki o‘quvchi biz berayotgan

ta’lim-tarbiya orqali faqatgina bilim va ko‘nikmalar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangi dasturga mos bo‘lgan yangiliklarni o‘zlashtirib borishligi ham muhim vazifamiz.

Taraqqiy etib borayotgan texnologiyalar asrida o‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash uchun avvalo, ularning darslarni o‘zlashtirishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy zarur bo‘lgan faoliyatlarga yo‘naltirish jarayoni uning natijasi bilan amalga oshirilib kelinadi. Jahon ilm-fani rivojiga yuksak hissa qo‘shgan buyuk qomusiy olimlar: A.Navoiy, M. Qoshg‘ariy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Yassaviy va A.Avloniy kabi shaxslar o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyaga alohida to‘xtalib o‘tganlari, ta’lim bilan tarbiya qanchalik uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘qitish – bu tarbiyaning muhim bir qismi. Bundan ikki ming yil avvalroq, Platon tarbiyalovchi ta’limi to‘g‘risida fikr yuritgan. O‘qitishning chegaradan chiqib ketgan “tarbiyaviyligi” ko‘pincha uning axborotlar yetkazish imkoniyatlarining pasayishiga, ortiqcha nasihatgo‘ylik, g‘oyaviylikka olib keladi. Ta’lim tarbiyadan ajralishdir, lekin tarbiya doirasida rivojlantirish, bilimlar, tasavvurlar, ko‘nikmalar berish vazifasini bajarishi kerak. Mana shu yo‘nalishda muammolar ko‘p. Tadqiqotning maqsadi – ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, o‘quvchilarning kognitiv faolligini faollashtirish, ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish, o‘quv materialini metodika va didaktika nuqtai nazaridan o‘zgartirish – bu yangi texnologiyalar uchun asos bo‘lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to‘plami.

Ta’lim olayotganlarning darsdan tashqari faoliyatini loyihalash vazifalari:

– ijtimoiy moslashuv zonasini tashkil etish va o‘qiyotganlarning ijtimoiy harakatchanligini ko‘rsatish;

– bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy moslashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish;

– o‘qiyotganlarni mustaqil o‘qish yo‘li bilan ta’limni davom ettirishga yo‘llash;

– har bir ta’lim oluvchining qobiliyati, qiziqishi va ishtiyoqini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

o‘quvchilarni erkin vaqtdan unumli foydalanish, dam olish mahoratini egallashga o‘rgatish.

Tadqiqot usullari: ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, modellashtirish, suhbat, anketa so‘rovlari, testlar, tajriba-sinov, matematik statistik tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullar.

Tadqiqot obyekti – boshlang‘ich ta'lim texnologiya ta’limida sinfdan tashqari o‘qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish – ularda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hayotga bo‘lgan motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’limdagi interaktiv metodlar yaratuvchilik motivini rivojlantirishga katta yordam berib kelmoqda. Texnologiya ta’limida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlardagi har bir zamonaviy usulning maqsadi – guruhdan qisqa vaqt ichida ko‘p natijaga erisha olish, ya’ni o‘quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qanday natijalarni egallagani va nimalarni bilishini aniqlashdan iboratdir.

Har bir olib borilgan mashg‘ulot davomida o‘quvchilarni qiziqtirgan fikrlar hamda g‘oyalar natijasida o‘quvchilarni iqtidorlarini aniqlash lozim. “Aqliy hujum’’ metodi odatda og‘zaki shaklda bo‘lib o‘tadi bunda o‘qituvchi savol beradi, o‘quvchilar esa o‘z fikrlarini birma-bir bayon qilishadi, bunda berilgan savolga hamma o‘z fikrini aytib o‘tishi kerak hisoblanadi. Bu metodda g‘oyalarning hammasini namoyish qilib ko‘rsatib o‘tilmaguncha ularni muhokama qilmaslik kerak bo‘ladi. Mashg‘ulot davomida ushbu

metoddagi jarayonning tartibi va maqsadini o‘quvchilarga tushuntirib qo‘yish lozimdir.

O‘rta umumta’lim maktab o‘quvchilari ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar imkoniyatidan keng ravishda foydalanadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida maktabdagi texnologiya ta’limida ham sinfdan tashqari ishlar ikki turga bo‘lib o‘rganiladi. Sinfdan tashqari ta’limiy ishlarga maktabda fan yuzasidan tashkil etiladigan ishlar: to‘garaklar, musobaqalar va turli kechalar kiradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning birlamchi asosiy maqsadi hamda birinchi vazifasi o‘quvchilardagi axloqiy, estetik tarbiyani yaxshilashdan iboratdir. Texnologiya ta’limida sinfdan tashqari ishlar har bir bolaning individual qobiliyatini rivojlantirib boradi, fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, bu esa o‘quvchini har tomonlama rivojlanishi uchun bir imkoniyat yaratadi.

Tarbiya jarayoni o‘zining o‘ziga xosligini “saqlab qolish” uchun “Tarbiya, tarbiya ... tarbiya!” monografiya hammualliflari V.A.Karakovskiy, Novikova, Selivanova kabi mashhur estoniyalik pedagog va psixolog O. Yo.Laymcte taklif etgan uning boshqa tushunchasidan foydalanadilar. Agarda tarbiya jarayonini “Laymete bo‘yicha” qaraydigan bo‘lsak, unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo‘lmaydi, balki bir tomondan psixologo-pedagogik, boshqa tomondan esa – ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo‘ladi. Bu o‘z navbatida tarbiya tizimi o‘quvchilarga faqat didaktik sifatida emas (o‘qituvchilar darslar, darsliklar, uy vazifalari orqali), balki ijtimoiy omil sifatida ham, bolalarning atrof-muhitga jalb etilganligi orqali ham ta’sir ko‘rsatadi; ota-onalar, o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali, har bir ta’lim muassasalarida tashkil topadigan ma’lum psixologik muhit orqali ta’sir ko‘rsatadi. “Didaktik tizim” tushunchasi pedagogikada ancha qadimdan shakllangan. Maktabning didaktik tizimi ta’lim maqsadlari, o‘qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Albatta, tarbiyaviy maqsadlar o‘rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari kabilarni belgilash orqali o‘qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Lekin tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantig‘ida didaktik tizimning o‘zi tarbiyaviy tizimning didaktik tizimida ishtirok etadi, ya’ni uning tizimi hisoblanadi.

Xususiy yangilikni V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko‘zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma’lum unsurlarning yig‘indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik – bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta’rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg‘or boshlanmalarini o‘zida aks ettiradi. Pedagogik innovatsiyalar – bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta’lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o‘tkazish va baholash jarayoni. Ular orasida: ta’lim jarayoni vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, mehnat bozori bo‘lajak xodimlarga yangi talablarni qo‘yadi va o‘qitish o‘zgartiriladi, yangi maqsadlarga moslashtiriladi, bunga erishish uchun yangi pedagogik usullar, uslublar va usullar zarur.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli va tarbiyabiy jihatdan yuksalishi bilan o‘quv-tarbiya jarayonini yanada to‘ldiradi, shu qatorda kengaytiradi ham. Sinfdan tashqari individual ish shakllari Shaxsiy sinfdan tashqari tarbiyaviy ishda umumiy maqsad

– shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlash, bolada ijobiy “men-konsepsiya” ni shakllantirish va uning shaxsiyatining turli tomonlarini, individual salohiyatini rivojlantirish orqali erishiladi. Shaxsiy ishning mohiyati bolaning ijtimoiylashuvida, uning o‘zini takomillashtirishga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojining shakllanishida yotadi. Shaxsiy ishning samaradorligi nafaqat maqsadga muvofiq shaklni aniq tanlashga, balki bolani muayyan faoliyat turiga qo‘shilishiga ham bog‘liq. Aslida, individual ish tanbeh, izoh, tanqidga aylanganda, vaziyat kam emas. Bola bilan individual ish kuzatuvchidan, xushmuomalalikdan, ehtiyotkorlikni va o‘qituvchidan o‘ychanlikni talab qiladi. Uning samaradorligining asosiy sharti – o‘qituvchi bilan bola o‘rtasida aloqa o‘rnatish, unga quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda erishish mumkin. Bolani to‘liq qabul qilish, ya’ni uning his-tuyg‘ulari, tajribalari, istaklari. Tuyg‘ular kuchi nuqtai nazaridan, bolalarning his-tuyg‘ulari kattalarnikidan kam emas, bundan tashqari, yosh xususiyatlariga ko‘ra shaxsiy tajribaning yo‘qligi, irodaning zaifligi, his-tuyg‘ularning aqlga nisbatan ustunligi bolaning tajribasi o‘ziga xos keskinlikka ega bo‘ladi. va uning kelgusi taqdiriga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi bolani tushunishini va qabul qilishini ko‘rsatishi juda muhimdir. Bu umuman o‘qituvchi bolaning harakatlarini ajratadi degani emas. Qabul qilish rozi bo‘lishni anglatmaydi. Tanlash erkinligi o‘qituvchi qarmoq bilan yoki yolg‘on bilan ma’lum natijaga erishmasligi kerak.

Yuqoridagi fiklardan kelib chiqqan holda bizning nazarimizda olib borgan sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilar dunyoqarashi va darsimiz samaradorligi ma’lum bir ma’noda o‘sdi va bolalarni o‘zlari tanlagan kasblarga ancha qiziqishi oshganligi sezilib turdi. Demak, men olib borgan tadqiqot ishim imliy uslubiy yangiligi umuta’lim maktablarida texnologiya ta’limidan tashkil qilinayotgan sinfdan tashqari va to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni o‘zlari sevgan kasb-hunarga yo‘llashda zamonaviy texnologiyalaridan foydalandim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 1006

2. Djurayeva S.N., Turdiyeva N.S., Baxronova A.I. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”o‘quv qo‘llanma, Buxoro – 2021. 22-bet.

3. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/3514/3241/6942

4. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” // Toshkent: “Tib kitob” nashriyoti, 2010. 216-bet.

5. Oliy ta’limda faol va interaktiv ta’lim texnologiyalari (darslarni o‘tkazish shakllari): darslik / komp. T.G.Muxin.- Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013.-97 p

6. Sanaqulov X va boshqalar. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi: Darslik / T: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. - 224-bet

7. https://manaviyat.edu.uz

Iqbol KOMOLOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILI FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida tashkil etishning ta’lim tizimiga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarga turli xil zamon talabiga mos keluvchi texnologiyalar yordamida darsni olib borish muhim hisoblanishi va bolalar bir xillikdan tezda zerikishadi va darsga nisbatan qiziqish yo‘qola boshlashi bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Muallif mutolaa qilish davomida siz, ingliz tili darsini zamonaviy axborot texnologiyalar yordamida tashkil etishning afzalliklarini ochib bergan.

Tayanch so‘zlar. Axborot texnologiyalari, flashkardlar, visual vositalar, kompyuter, axborot texnologiya vositalari, proyektor, disklar, elektron darsliklar.

В статье рассматривается влияние на систему образования организации с использованием современных информационных технологий обучения английскому языку младших школьников. Также даны рекомендации учащимся, что важно вести урок по технологиям, соответствующим различным требованиям времени, и что детям быстро надоедает однообразие, и интерес к уроку начинает угасать. Автор, читая вам, раскрыл преимущества организации урока английского языка с использованием современных информационных технологий.

Ключевые слова. Информационные технологии, карточки, наглядные пособия, компьютер, средства информационных технологий, проектор, диски, электронные учебники.

The article reflects on the impact of organizing using modern information technologies in teaching English to primary school students on the educational system. Recommendations were also made to students that it is important to take a lesson using technologies that correspond to the demand of different times, and that children quickly get bored with the monotony and begin to lose interest in the lesson. During the reading, the author revealed the advantages of organizing an English lesson with the help of modern information technologies.

Key words. Information technology, flashcards, visual tools, computer, information technology tools, projector, disks, electronic textbooks.

Barchaga ma’lumki bugungi asr farzandlari zamonaviy axborot texnologiyalar davrida ulg‘aymoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan har qadamda foydalanish imkoniyatiga egadirlar. Vaholanki, yurtimizda xalq ta’limiga shuningdek, yosh avlodning chuqur bilim egallashiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yurtboshimiz sharofatlari bilan maktablarda ta’lim sifatiga alohida e’tibor berilmoqda. Yurtimizda bu borada ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonini keltirishimiz mumkin.Farmonga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga

ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish masalalari muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan.

Yuqorida belgilab olingan vazifalar ijrosini ta’minlashda, ta’lim sifatini, samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni qiziqtiradigan o‘yin shaklidagi darslarni maqsadli tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikasiya vositalarining roli juda katta. Ularni qo‘llash imkoniyatlarining ko‘lami kundan kunga kengayib, texnik vositalar o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Yoshlarga ingliz tilini kompyuter orqali o‘rgatish uchun birinchi navbatda o‘qituvchining o‘zi kompyuter texnologiyalaridan professional darajada foydalana oladigan bo‘lishi kerak. Bu darajadagi foydalanishga nafaqat kompyuterning mavjud imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olish, balki u asosida yangi o‘quv dasturlarini tashkil eta olish ham kiradi. Bunday darajadagi pedagog bo‘lish uchun har bir chet tili o‘qituvchisi zamonaviy texnologiyalar sohasi bo‘yicha o‘z ustida ko‘proq ishlashi zarur. Ingliz tilini kompyuter yordamida o‘rgatishning an’anaviy o‘rgatish usullariga nisbatan bir necha ustunlik jihatlari bor. Birinchi navbatda, kompyuter asosida ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchida tilning to‘rt yo‘nalishida (gapirish, tinglab tushunish, yozish va o‘qish) o‘z ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish imkoni bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan dasturlar yordamida buning imkoni bor. Faqat bu usuldagi ta’limga o‘quvchini to‘g‘ri yo‘naltira olish kerak. Bundan tashqari kompyuter yordamida chet tillarini o‘qitishda o‘rgatilayotgan har bir qoida, har bir so‘z, har bir tushuncha birligi o‘quvchi xotirasida yaxshiroq saqlanishi isbotlangan. Tabiiyki, kompyuterning boy grafik imkoniyatlari, holatlarga oid ma’lumotlarni ovozli, matnli, tasvirli va video ko‘rinishda yetkazib bera olishi kompyuter orqali chet tillarini o‘qitishni eng samarali usullardan biriga aylantiradi. Asosan, zamon mavzularini tushuntirishda Word va Power Point dasturlarining so‘ngi ko‘rinishlaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki Word dasturi orqali jadval ko‘rinishlaridan foydalanib mavzu yoritib berilsa, o‘quvchilar ancha osonroq tushunadi deb o‘ylayman. Power Pointda esa shu mavzularni ovozli, rasmli va video ko‘rinishlarida ko‘rsatib berish orqali o‘quvchilarni mavzuga yanada jalb qilish mumkin.

Boshlang‘ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

– o‘quv materialini yanada tushunarli va oson tarzda taqdim etish imkonini beradi;

rivojlantiruvchi ta’lim, muammoli-dialogik yondashuvni amalga oshirishga hissa qo‘shadi hamda sinfda tadqiqot faoliyatini tashkil etish imkonini beradi;

– darsda kompyuter testlari va test-o‘yin ishlaridan foydalanish o‘qituvchiga qisqa vaqt ichida o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish darajasi haqida obyektiv tasavvurga ega bo‘lish va uni o‘z vaqtida tuzatish imkonini beradi;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yuqori hissiylik darajasi ta’lim jarayonining qat’iy doirasi bilan sezilarli darajada cheklanadi;

– darslar yuqori hissiy taranglikni bartaraf etish va o‘quv jarayonini jonlantirish imkonini beradi.

Kompyuter, shuningdek, bolalarning, jumladan, go‘dak yoki nogiron bolalarning ijodi uchun kuchli rag‘batdir. Internet va axborot texnologiya vositalari o‘quvchilarga eng so‘nggi tegishli ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim etadi. Ular global darajada o‘quvchilarning virtual hamjamiyatini shakllantirishlari mumkin.

O‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishining afzalliklari:

1. Yangi ta’lim uslublarida o‘rganish usullarini takomillashtirish.
2. O‘z bilimlarini real vaziyatda qo‘llash qobiliyati va ko‘nikmalarini kengaytirish.
3. Hamkorlik va hamkorlikni o‘rganish uchun guruhlarda ishlash.
4. O‘z vaqtida o‘z-o‘zini o‘rganish odatlarini rivojlantirish.
5. Boshqa o‘quvchilar bilan o‘rganish tajribasi va ma’lumot almashish.

O‘qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishining afzalliklari:

1. Materialni yanada qiziqarli va jozibali tarzda taqdim etish.
2. Vaqtdan unumli foydalanish.
3. Individual ko‘rsatma berish.
4. O‘quvchilarning o‘quv muammosini tashxislash va ularni bartaraf etishga yordam berish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalari bilimlar portlashining natijasidir. Turli apparat va dasturiy ta'minot integratsiyasi o‘qitish jarayonini sifatli tashkil etishga yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari chet tilini o‘rganish va manbalardan foydalanishda, ma’lumot almashishlarida pedagogning va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv jarayonini osonlashtiradi yanada samarali tashkil etishga ko‘maklashadi. Xuddi shunday, yangi sharoitlarda o‘qituvchining roli ham boshqacha an’anaviy tizim bilan taqqoslaganda ta’lim sifati ham dars jarayonida ham yuqorilikni ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali tashkil etilgan darslarda asosan darsni texnologiya olib boradi o‘qituvchi esa yo‘l yo‘riq hamda yo‘nalish ko‘rsatib turadi. Chunki bugungi asr farzandlari zamonaviy texnologiyalar bilan ulg‘aymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 son farmoni.

2. Jalolov J. Ingliz tilini o‘qitish metodlari – o‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti. – T., 2022-yil.

3. Тухтасинова Н. Р. Исследование предварительных и тагманских событий на работах Абдуллы Каххар. Экономика и социум, (2-2), (2021). 240-244 с.

4. Pratova G. O., To‘xtasinova N. R. O‘zbek tilida frezeologizmlarning pragmatik sinonimiyasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5). 2022 y. 35-38 betlar.

5. Aksal F. A. Action plan on communication practices: Roles of tutors at EMU Distance Education Institute to overcome social barriers in constructing knowledge. The Turkish Online Journal of Educational Technology, 8(2), 2009 y. 33-47.

Farida ABDURAHIMOVA,
Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va oila psixologiyasi" bo'limi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

OILA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR MASALASI

Annotatsiya

Maqolada oila mustahkamligi, xalq farovonligi va taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilm-ma'rifat, tinchlik, poklik kabi tamoyillarga asoslangan, sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar asosida oila va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Oila, nikoh, barkamol farzand tarbiyasi, ta'lim-tarbiya, erkak va ayol, umuminsoniy qadriyatlar, bobo-yu momolar, insonparvarlik, farzand, normativ-huquqiy hujjatlar.

В данной статье рассматриваются взаимоотношения семьи и детей на основе научно-теоретических взглядов на эту сферу, основанных на принципах знания, мира и чистоты, которые служат крепости семьи, благополучию и развитию нации.

Ключевые слова. Семья, брак, прекрасное воспитание детей, о бразование, мужчина и женщина, общечеловеческие ценности, бабушки и дедушки, гуманизм, ребенок, правовые документы.

This article covers the relationship between family and children on the basis of scientific-theoretical views on the field, based on the principles of knowledge, peace, and purity, which serve the strength of the family, the well-being and development of the nation.

Key words. Family, marriage, perfect child rearing, education, man and woman, universal human values, grandparents, humanitarianism, child, legal documents.

Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar xalqlar madaniy hayotidagi asrlar davomida qaror topgan nikoh munosabatlarining degradatsiyaga uchrayotgani bilan xarakterlanmoqda. Nikoh va oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglamasdan, ularni yo'qotishga, insoniyat erkinligiga putur yetkazuvchi sarqit sifatida baholovchi nigilistik qatlamlar shakllanmoqda. Bunday qarashlar G'arb-u Sharq xalqlari hayotiga birdek kirib bormoqda. Shu bois oila-nikoh munosabatlarining axloqiy-tarbiyaviy mohiyatini anglab yetish, transformatsiyasiga sabab bo'luvchi konseptual asoslarini aniqlash va insoniyatning progressiv taraqqiyotidagi mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarbligicha qolmoqda. Ma'lumki, oila jamiyatning eng ko'hna va muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Oilaning har bir shaxs hayotidagi roli, ayniqsa, farzandlar tarbiyasida muhim omil bo'lib, bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "...bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin", deb alohida urg'u beradi. Shaxsning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari asosiy vosita hisoblanadi.

Aynan oilada reproduktiv funksiya amalga oshiriladi. Keyinchalik esa shaxsning ijtimoiylashuvi ham aynan oilada sodir bo'ladi. Shuningdek, milliy an'analar, urf-odatlar, udumlarni idrok qilish va ularni o'zlashtirish ham oilaviy hayotda kechadi. Shu va

boshqa muhim jihatlari tufayli oila jamiyat hayotining poydevori hisoblanadi. Qaysiki jamiyatda oila instituti mustahkam bo‘lsa, o‘sha yerda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlash qonuniyat xususiyatiga ega bo‘ladi. Oila barqarorligi esa bir qator omillar ta’sirida mavjud bo‘ladi. Ularning har biri muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy izlanishlar yordamida tadqiq qilinib, jamiyatning transformatsiyalashuvi jarayonida oila institutini mustahkamlash yanada murakkablashib borishining sabablari aniqlashtirilishi dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlarda bu jarayon “Ma’naviy-madaniy hayot, ta’lim-tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma’rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, tomoshalari va udumlari, san’at, adabiyot kabi sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Xalqning, millatning o‘ziga xos etnik xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi ham, aslida, ana shu ma’naviy-madaniy qadriyatlar bilan o‘lchanadi”. Yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash haqidagi ta’limot va qarashlar sharq mumtoz mutafakkirlarining qarashlari, xalqlarning boy, an’anaviy xalq og‘zaki ijodi, diniy manbalar, shuningdek, kundalik turmush tarzi asosida shakllangan. Xalqimizning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan ota-onani, yoshi kattani hurmat qilish tuyg‘usini yosh avlod ongiga singdirish va yosh avlodni barkamol, jismonan va ruhan kuchli qilib tarbiyalash g‘oyalari yoshlar ta’lim-tarbiyasida asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur bilishlari – bu eng muhim va zarur qadriyat, yangi jamiyatni barpo etishning muhim shartidir. Bizning buyuk ajdodlarimiz yaratgan va bizgacha yetib kelgan ma’naviy meros bu, avvalo, eng yuksak qadriyatdir. Vaholanki, qadriyatlar barkamol inson tarbiyasiga yo‘naltirilgan, shaxsning kamolotida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etuvchi vosita bo‘lib, agar qadriyatlar asralib va zamonaviylashtirilib borilmasa, ular millatning tanazzuliga olib kelishi mumkin.

Yoshlarni tarbiyalashda ota-onaning o‘rni, avlodlar tarbiyasida nasl-nasabning aloqadorligi, ularning ta’siri, qayta tarbiyalash, o‘g‘il va qizga xos alohida tarbiya berish kabi qarashlar asosiy masala bo‘lib, tarbiyada oilaning o‘rni yuqori baholanadi. Darhaqiqat, farzandni komil inson qilib tarbiyalash – ota-onaning bosh farzi bo‘lsa, ularni qadrlab, e’zozlash, boqish farzandlik qarzidir. Bu qarzni hech qanday xarajat bilan, mo‘l-ko‘l mol-dunyo bilan o‘tash mumkin emas. Ota-ona oldidagi farzni tushunish – bu yosh avlodning madaniyatliligi, odamgarchiligining belgisi.

Oilada tarbiya, asosan, iqtisodiy va ma’naviy omillarning o‘zaro uyg‘unligida qaror topadi. Shuning uchun oila infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiy asoslarini madaniylashtirish, uning ma’naviy-madaniy darajasini yuksaltirish sohasida ham keng ko‘lamda ijtimoiy farovonlikning uyg‘unligini ta’minlash, sog‘lom turmush tarzi qaror topishining negizini tashkil etadi.

Ota-onani hurmat qilish odob-axloqning va odamgarchilikning buyuk xislatidir. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi axloqiy qoidalarning hozirgi kunda yoshlar tarbiyasidagi o‘rni alohida. Shuning uchun xalqimiz orasida shakllangan bunday dunyoqarash va odob-axloq bugungi kunda ham inson ma’naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda.

Yuksak ma’naviyatli ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas’uliyat, oilaviy vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta’minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi. Ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalash lozimligi e’tirof etiladi. Farzandlarda sog‘lom ijtimoiy munosabatlar dastlab

oilada, ota-ona, katta yoshdagi oila a’zolari ta’sirida shakllanadi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo‘lsa, uning bolaga ta’siri ham shunchalik samarali bo‘ladi. Bunday oila o‘zining qadriyatlaridan tashqari jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va ijtimoiy me’yorlarini hurmat qiladi, bola yoshligidan jamiyatda yashashga o‘rganadi va ko‘nikma hosil qilib boradi. Odam bolasi uchun eng buyuk va qadrli, uni yo‘qdan bor qilgan insonlar, ya’ni ota-onani e’zozlash odob-axloqning eng asosiy belgisidir. Ota-onaga hurmat ko‘rsatish va ularga mehribonlik bilan qarash – har bir o‘g‘il-qizning asosiy vazifasi. Binobarin, farzand ota-onani rozi qilmay turib, hech bir ishida baraka bo‘lmasligini bilmog‘i kerak.

Ota – buyuk inson. Alloh Odam alayhissalomni tuproqdan yaratdi. O‘tkinchi foniy dunyo shundan boshlandi. Odam alayhissalom yaratilgan kundan boshlab, Alloh bilim va ma’rifat bergan. Bilim nuri bilan u zotni farishtalardan ustuvor qilgan. Dunyoviy hayotini amallarga sarflaydi. Oxiratini obod qilishga urinadi, insoniyatni bunday amallarga o‘rgatgan ilk muallim bu – ota. Shuning uchun xalqimiz ota roziligi xudo roziligi ekanligini nasihat qiladi. Ota tarbiyasini, nasihatini olgan aqlli farzand yomon ish qilmaydi va yomonlikdan qochadi. Hech kimga xiyonat qilmaydigan odam ota tarbiyasini ko‘rgan mo‘min odamdir. Otaga ozor beruvchiga Yaratgan ham shafqat qilmaydi. Ota roziligi, Yaratganning roziligi hisoblanadi.

Sharq xalqlarida onalarni qadrlash milliy mentalitet darajasiga ko‘tarilgan, ularni hurmat qilish, qadrlash milliy qadriyat bo‘lib, bu axloqiy fazilat har bir farzandga yoshligidan oilada singdirilib boriladi. Onalar o‘tmishdan meros bo‘lib kelayotgan va kundalik turmush uchun zarur bo‘lgan barcha urf-odat va an’analarni yoshlarga muntazam o‘rgatib boradilar. Farzand onadan ibrat olib, hayotda o‘zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi. Ularda onasi tufayli hayotga bo‘lgan muhabbat, bunyodkorlik tuyg‘usi shakllanadi. Onalar farzandlarga sirdosh, suyanchiq, ustoz, dardkash bo‘lishi ma’naviyatimizdagi asosiy mavjud bo‘lgan haqiqatdir. Ularning hayot tajribasi, mehr-muhabbati, aql-farosati yoshlardagi kuch-g‘ayratni, tashabbuskorlikni to‘g‘ri yo‘lga solishga, g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslikka qaratiladi. Farzand tug‘ilganidan keyin, u, birinchi navbatda, onaning mehri bilan tarbiyalanadi, ulg‘ayib, kamolga yetadi.

Ma’rifatparvar jadidlarning ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni borasidagi ilg‘or fikrlari o‘sha paytdagi davriy nashrlarda e’lon qilingan. Abdusalom Azimiyning “Ta’lim va tarbiya” maqolasida: “Bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onaning ta’siri bolaga otaning ta’siridan ziyodadir”, deyiladi. Millat taqdiri oilada ayollarning o‘z farzandlariga berayotgan tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Bunga faqatgina o‘qimishli, oqila, ma’rifatparvar ayollar ko‘magida erishish mumkin. Ushbu mavzu o‘z davrida dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu borada tadqiqot olib borgan N.A.Mustafayevaning ta’kidlashicha, o‘sha paytda “Sadoyi Turkiston” gazetasida chop etilgan “O‘qinglar, onalar”, “Hamshiralar tilidan” kabi maqola va she’rlarda Turkiston ayollarning “mute’ joriya”larga aylanib qolgani, ularning ma’rifatli bo‘lishiga qarshi chiqishlarga chek qo‘yish zarurati uqtirilgan va bu qizg‘in munozaralarni keltirib chiqargan. Abdulla Avloniy ayollarni ilm olishga, hunar o‘rganishga targ‘ib qilib yozgan asarlarida “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur?” kabi savollarni qo‘yar ekan, “Bu ona vazifasidur”, – deydi. Avloniy yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan onalarning o‘zlari ilmli, ma’rifatli bo‘lishi shartligini ko‘rsatadi, “Ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg‘a oshiqingiz”, – deydi. “Na uchun ibrat olmaymiz?” maqolasida qizlarga zeb-ziynat emas, balki ilm, hunar o‘g‘il bolalarga qaraganda ham ko‘proq kerakligi uqtiriladi, buning sababi ayollar millat tarbiyachisi ekanida deb ko‘rsatiladi. Jadid ma’rifatparvarlari jamiyatning

ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yangilanishi jarayonida ayollarning rolini oshirishni targ‘ib qilar ekanlar, ma’rifat tarqatish va asrlar davomida qotib qolgan diniy xurofot va bid’atdan voz kechish ayollar erkinligini ta’minlashning yagona yo‘li ekanini ta’kidlaganlar.

Tarbiya tizimi jamiyatda komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Komillikka erishish uchun nafsni jilovlay olish, nafs balosiga giriftor bo‘lishdan o‘zini saqlash, o‘z ehtiyojlarini sog‘lom yo‘llar bilan qondirishga odatlanish eng muhim vazifa hisoblanadi. “Tarbiya ko‘rmagan – past saviyadagi nafs yomonlikka moyil va shahvatga ko‘p rag‘batlidir: yemoq, ichmoq, uxlamoq, aysh-u ishrat qilmoq, kayf-u safoga berilmoq, boshqalar tomonidan maqtalmoq, zo‘ravonlik qilmoq va hokazolarni istaydi”.

Biz oilada tarbiyaning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritar ekanmiz, tarbiya mohiyatini faqat bolalar tarbiyasi bilan cheklab qololmaymiz. Kattalarga ta’sir qilish, ularni yangicha fikrlashga o‘rgatish, ularning ongidagi qusurlarni yo‘qotish borasidagi barcha xatti-harakatlar ham sog‘lom tarbiya berish doirasiga kiradi.

Farzandlarga ta’lim tarbiya berishda ota-ona birdek mas’ul bo‘lib, ular o‘z zurriyotlariga ota-onani, o‘zidan katta va kichikni qadrlash, ularning hurmatini joyiga qo‘yish, kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili asosida burch va majburiyatlarni singdirish, yigit kishining muqaddas majburiyatlaridan biri ota-onani hurmat qilish ekanligini, ota-onaga xizmat qilish – xalqqa xizmat qilish bilan barobar bo‘lishini o‘rgatib, tushuntirib, hayotda o‘z o‘rnini topishda yo‘l ko‘rsatish, aksincha, o‘z ota-onasining nasihatini olmay, ularni hurmat qilmagan farzand o‘zining odobsizligi bilan otasining boshini egishini asoslashni talab qiladi. Chunki aqli raso, ilmli, mehnatsevar, imon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onasining, balki butun jamiyatning, insoniyatning eng katta boyligidir.

Yoshlar tarbiyasidagi nasl-nasab masalasiga ham diqqat-e’tiborini qaratish, shuningdek, yoshlarda ba’zi qobiliyatlarning shakllanishida asosiy belgilardan biri ular yashayotgan muhit, tarbiya va nasliy munosabatlarning ma’lum darajada ta’siri mavjudligidadir. Xulq-atvori yomon, zolim kishilardan tug‘ilgan o‘g‘il-qizlar zolim bo‘lib tug‘ilmasdan, tarbiya natijasida aqlli bo‘lib voyaga yetishini mumkin bo‘lganidek, yaxshi inson va oilalar farzandlari, nazoratsiz qolib, tarbiyasida qusurlar bo‘lishi ham mumkin. Demak, yoshlarning yaxshi odam bo‘lib voyaga yetishida farzand tarbiyasida to‘g‘ri yo‘nalish berish zarurligi va shu orqali tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Shuning uchun farzand tarbiyasida ma’lum bir etnomadaniy jarayon makonga, millatga taalluqli obyekt ekanini ko‘rsatadi.

Bugun jamiyatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida ayollar sabab bo‘layotgan yaratuvchanlik va yangilanishlar ortib bormoqda. Shu bilan birga, u yuksak minbarlarda turib, dunyo afkor ommasini tinchlikni saqlashga chorlayotgan siyosatchi, uzoqni ko‘ra oladigan, yetti o‘lchab bir kesuvchi tadbirkor, insoniyat taqdirini hal etishga qodir, o‘tkir aql-idrok egalarini dunyoga keltirayotgan mehribon va mushtipar onadir.

Asosiy qonunimiz – Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e’tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaati hamisha ustuvor bo‘lib kelmoqda. Bu sa’y-harakatlar ayollarning jamiyat hayotida faolligi orqali o‘z ifodasini topmoqda.

Yurtimiz ravnaqi, farzandlarimizning bilimli, har jihatdan barkamol bo‘lib ulg‘ayishida, jamiyatimizning ma’naviy-ma’rifiy yuksalishida ayollarimizning hissasi kattadir. Bu borada yurtimizning ma’rifatparvarlaridan bo‘lgan Abdulla Avloniyning oila pedagogikasi va psixologik fikrlari ham diqqatga sazovordir. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida oila muhitidagi bola tarbiyasi va umuman, oilaning ijtimoiy roli ochib berilgan. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit

va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat kata ta’sir kuchiga ega ekanligi hamda insonning hurfikrli bo‘lishida oila, oilaviy tarbiyaning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Oilada bolaga ilk yoshdan boshlab odob va axloqqa oid tarbiya berish lozimligini tushuntirgan: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq kerak, zehnimizni esa ravshanlantirmoq lozim”. Abdulla Avloniy ta’kidlashicha, bolaning sog‘lom va zehnli tarbiyalanishida dastlab oila va ota-onalar asosiy tarbiya kuchi hisoblanishadi. Bolaning har tomonlama barkamol bo‘lishida dastlab oilada ota-onalar murojaat qiladi va ulardan shaxsiy namuna oladi.

“Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqar...”. Demak, olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi darajaga qo‘yadi. “Tarbiyani kim qilur? Qanday qilinur?” degan savol keladi. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi – ona vazifasidir. Ikkinchisi maktab va madrasa tarbiyasi – bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, degan javob bersak”. Ko‘rinib turibdiki, Abdulla Avloniy bolaning mukammal tarbiyasida oila va ota-onani alohida ko‘rsatish bilan birga maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog‘liqligini e’tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Darhaqiqat, oilada farzandga berilayotgan tarbiya uning kelgusida kim bo‘lib yetishishini ta’minlaydi. Oilada farzand yo komil shaxs, yo xudbin inson bo‘lib shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bugungi kunda ham bu hikmatli so‘zlarning ahamiyati o‘z kuchini yo‘qotmaganini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida farzandlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularda yon-atrofda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish, tinch-osoyishta hayotimizga, ko‘p asrlik ma’naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi kurashishda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotlarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bunda esa, avvalo, onalarimizning o‘rni va ularning tarbiyasi asosiy o‘rinni egallaydi. Zero, bizning ayollarimiz qanchadan qancha dunyoga mashhur olim-u ulamolar va mutafakkirlarni ulg‘aytirgan. Buyuk onalar farzand tarbiyasini hamma narsadan ustun qo‘ygan. Bizning o‘zbek ayollari boshqa xalqlarning ayollaridan ko‘ra bu vazifaga mas’uliyat bilan yondashadilar desak, adashmagan bo‘lamiz. Bu borada XIX asrning 70-yillarida Fransiya etnograf olimi, musavvir Burdon xonim Turkiston xalqlari o‘rtasida olib borgan tadqiqotlaridan so‘ng fikrlarini bayon etadi. O‘rta Osiyo xalqlarining hayot tarzi bilan tanishish jarayonida ayollarning odobi, bolalarga munosabati va er-xotin munosabatlarining guvohi bo‘lgani, o‘zbek ayolining o‘z uyida, to‘y marosimlarida, qo‘ni-qo‘shnilar bilan muloqotda o‘zini tutishi, axloq-odobi, sharm-hayosi uni hayratda qoldirganini alohida ta’kidlaydi. “Biz, – deb yozgan edi u, – madaniylashgan Yevropa ayollari axloq-odobni, iffatni turkistonlik ayollardan o‘rganmog‘imiz joiz ekan. Lesgaft, Didro nazariyalaridan mutlaqo bexabar bu ayollar axloq nazariyasidan qo‘llanma yozsalar arzir ekan”.

Odobi, tarbiyasi e’tirof etilgan onalarimiz izdoshlari bugun davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilm-fan, madaniyat, tibbiyot, ta’lim va hatto harbiy sohalarda, nainki, barcha jabhada xizmatlari beqiyos ekanligi barchamizga ayondir. Yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatda mavqeyini yanada yuksaltirish, huquqlarini har tomonlama himoya qilish, jamiyatda o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun zarur ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, shart-sharoitlar yaratish masalasi doimiy diqqat- e’tiborda bo‘lib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga ko‘ra, ayollar quyidagi ijtimoiy

ta’tillarni olish huquqiga egadirlar: homiladorlik va tug‘ish, ularni rivojlantirish, o‘qish bilan bog‘liq ta’tillar. Bulardan tashqari, ayollar uchun mamlakatimiz tomonidan qator imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlar xotin-qizlarimizni turli sohalarda faoliyat olib borishlariga keng imkoniyat yaratmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNICEF Bolalar tashkilotining tadqiqotiga ko‘ra, insonning yetti yoshgacha bo‘lgan davri shunday davrki, bu davrda bolaning kelgusida qanday xislatlari paydo bo‘lishini belgilab, axloqiy xarakterining asoslari yuzaga kelishini ta’kidlashgan. Bunda bolaning jismoniy va ruhiy holati mehrga tashna bo‘lib, doimiy ota-ona ko‘magiga ehtiyoj sezishadi. Agar ota-ona tomonidan bolaning jismoniy va ruhiy holati talab qilgan hissiyotga javob bera olmasa, mehri yetarli bo‘lmasa, farzand umri davomida agressiv, jamiyatga, ota-onaga nafrat bilan yashaydi.

Sharqona tarbiya insonning butun umri davomida o‘rganishini talab qiladi. Masalan, go‘dakni ota-onasi, o‘quvchi yoki talabani ustozlari, er-xotin bir-birini, bobo-yu momolar nabiralarini va aksincha, nevaralari ularni tarbiya qiladi. Insonni “odamlar ko‘zi” ham tarbiyalashi mumkin. Tarbiya qanchalik uzoq davom etsa va qanchalik milliy qadriyatlarga, azaliy urf-odatlarga mos bo‘lsa, shunchalik natijador, insoniy bo‘ladi, aksincha bo‘lsa, vayronkor tarbiya bo‘lib, tarbiyalanuvchini adashtiradi. Demak, yaxshilikning, ezgulikning ustozi bo‘lganidek, yomonlikning, vayronkorlikning ham tarbiyachisi bor.

Biz bolalarimiz xulq-atvoriga o‘zimiz bilmagan holda yomonlik illatlarining urug‘ini ekib, ularga aziyat yetkazamiz. E’tiborsiz qolgan farzandlarimizni vayronkor g‘oyalar o‘z domiga tortadi va g‘arazli maqsadi yo‘lida ulardan qurol sifatida foydalanadi. Bundan farzandimiz, oila, jamiyat ma’naviy zarar ko‘radi.

Tan olish kerakki, bugun ko‘p oilada bolalarning vaqti aniq rejalashtirilmagan. Ular kech uxlaydi. Tongda javrash va o‘shqirish orqali uyg‘onadi, natijada uyquga to‘ymagan o‘smirning kuni asabiy boshlanadi. Kun bo‘yi bola ota-onasi va hayot haqida yomon xayollar va tushkunlik qurshovida yashaydi. Mana shunday paytlarda asosiy tarbiyachi bo‘lgan onalarning o‘rni va shirin so‘zi bolaga madad bo‘ladi.

Nima qilmoq kerak? Buning uchun biz yoshlar ongi va qalbiga ta’sir ko‘rsatayotgan va ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan illatlarni aniqlab, ularda shu illatlarga qarshi tura oladigan fazilatlarni shakllantirishimiz zarur. Insonlar orasida keng tarqalayotgan mantiqsiz va zararli urf-odatlarni yo‘q qilib, ularning o‘rniga zamonaviy milliy madaniyatimizni targ‘ib qilishimiz lozim.

Ma’naviy tarbiyada nasihatgo‘ylikdan ko‘ra, bugungi kun talab qilayotgan ilmiy tarbiya yo‘llarini egallashimiz zamon talabidir. Bundan tashqari, bugungi kunda yoshlar orasida avj olib borayotgan salbiy odatlarni aniqlab, milliy odatimiz aslida qanday bo‘lishi lozimligini uqtirishimiz zarur. Qisqa qilib aytganda, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishimiz lozim.

Ayollarimiz tashkilotlarda faoliyat olib borish bilan birga oilasi, farzandlarining ta’lim-tarbiyasi bilan ham to‘liq shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish kerak. Qadriyatlarimizga ko‘ra, oila boshlig‘i bo‘lgan erkakni ayol ayoldek kutib olishi va kechki ovqatda bir dasturxon atrofida jamlanishi ham ayolga quvonch bag‘ishlaydi. Bu esa farzandlarga namuna va ma’naviy tarbiya hamdir. Xalqimiz ayollarini “uy bekasi”, “xonadon farishtasi” deb ulug‘lashi ham bejiz emas. Shuningdek, barcha davlat tashkilotlari xodimlariga maktabdagi ota-onalar majlisiga borishi uchun sharoit yaratib berilishi lozim. Ya’ni xodim farzandining ota-onalar majlisi uchun ruxsat berishi bilan oiladagi ma’naviy tarbiyaga o‘z hissasini qo‘shadi.

Mana shunday fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeyini yuksaltirish, ularning intilish va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitini oshirish bu ayollarimizni e’zozlash bilan birga kelajak avlodni barkamol etib voyaga yetkazish uchun qilingan buyuk ishlardan biri bo‘ladi. Bu muhim vazifaga davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklik asosida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘z loyihalari orqali ayollarimizning turmush tarziga yengillik kiritishga hissasini qo‘shib kelmoqda. Zero, ayollar ma’naviyat, go‘zallik, nafosat, ezgulik, mehr-muhabbat tarqatuvchi, oila va jamiyatda barqarorlikning munosib himoyachisi hamda charog‘bonidir.

Bu juda ham chuqur masala, ya’ni ko‘p vektorli va faktorlarni o‘z ichiga olgan millat mafkurasi bilan bog‘liq masala. Shunga qaramasdan, bizningcha, to‘g‘ri deb hisoblangan ayrim qirralariga to‘xtalib o‘tsak. Bizda shakl bilan bog‘liq hech qanday muammo yo‘q, ba’zilar aytganidek, darsliklarni o‘zgartiraverish, adabiyotlarni yangilashga qarshiman, ma’naviyat darsliklaridan mafkurani chiniqtiradigan hamma narsani topish mumkin (tariximiz, jadidlar, milliy urf-odatlarimiz, an’analar va bobolar merosi). Hamma gap yoshlarning uni qabul qilishni istamayotganida. Bu juda yomon. Sababi ular yashayotgan dunyo, ko‘rayotgan media o‘qiyotganining aksiga targ‘ib etmoqda. Nima demoqchimiz, targ‘ibot usullari eskirdi, bugun dunyo kiber va media olam ta’siri ostiga tushib bo‘lgan.

Nima qilmoq kerak? Media ta’sir bilan xuddi ulardek kurashish kerak, qancha javonmardlik, poklik, halollikni kitoblarda, darsliklarda o‘rgatmang, televizorda, internetda, seriallarda ular har kuni ko‘rayotgan xiyonat, uyatsizlik va cho‘rtkesarlik oqibatida odatiy holga aylanganini ko‘rarkanlar, kitoblar singdirgan g‘oyalar puchga chiqaveradi. Yechimlardan biri jamiyat ongidagi qahramonlarni o‘zgartirish, televideniye ham aslida aktyor, tik-toker, qimorbozlarni o‘rnak qilavermasdan, oliyjanob obrazlarni, halol-u pok qahramonlar qiyofasini yaratish, intellekt yaratuvchilarni jamiyatga o‘rnak qilishi kerak. Yaxshini ko‘rsatamizmi yo yomonni? Sayozlikdan qochmoq lozim. Seriallarda boy odamlar hayoti emas, hadeb jamiyatdagi sharmanda hissiyotlarni emas, zinama-zina buyuklikka erishgan, bu yo‘lda yo‘qotishlarga tayyor bo‘lgan odamlar hayotini ko‘rsatishi, eng oddiy odamlar hayotidagi murakkab, ammo ezgu hissiyotlar haqida filmlar yaratilishi zarur va bu yoshlar qalbini to‘lqinlantira olishi kerak.

Oila instituti juda muhim omil. Bola ongi 70 foiz oila dunyoqarashida shakllanadi. Ota-onalarda kitob o‘qishga fursat yo‘q, demakki, ularni jamiyat motivlarini boshqarish orqali tarbiya qilmoq kerak, ya’ni jamiyat qahramonlarini o‘zgartirish lozim. Bundan tashqari, odamlarga haqiqatni ko‘rsatar ekansiz, uning oqibatlariga ham javob bermoq lozimligini davlat anglamog‘i zarur. Odamlar ko‘z o‘ngida hokimiyatlar, vazirliklar milliardlab mablag‘ o‘margani aytilmoqda, ammo xalq ularning qilmishlari uchun javobgarligini va jazoga tortilganini bilmayapti ham, ko‘rmayapti ham. Bu teskari rezonans berishi va millatning mafkuraga, g‘oyaga ishonchini o‘ldirib qo‘yishi mumkin. Aytmoqchi bo‘lganimiz, darsliklardagi ezgu g‘oyalarni televideniye, media kontentga ko‘chirib o‘tkazish vaqti keldi, ziyoli va aqlli odamlar oddiy odamlar ko‘z o‘ngida juda abgor holatda yashamasliklari kerak va buni to‘g‘rilash vaqti keldi. Shunda ular ergashtiruvchilarga (nafaqat yoshlarni, balki ularning ota-onalarini ham) aylanadilar.

Vanihoyat, katta-sarf xarajat va bosimni xohlamaysizmi, unda din ma’rifati bilan millatni mafkuraga boshlang! Islomning boshlang‘ich asoslarini darsliklarga kiriting, buyuk sahobalar hayotidan rivoyatlar qo‘shing, agar kadr yetishmasa, maxsus kurslar asosida boshlanishiga haftada bir marta bolalarga hurmat, birdamlik, adolat prinsipla-

rini singdiring. Yoxud kadrlar tarkibi va mahorati oshirib borilaversa, yaqin istiqbolda muayyan tarkib kadrlar tayyor bo‘ladi. Ammo bularning barchasi mutlaq davlat nazorati ostida bajarilmog‘i lozim bo‘ladi. Ya’niki bir millat o‘z mazhabi, ota-bobolari ergashgan ulamolari, dini tarixi va undagi asosiy shaxslar haqida eng boshlang‘ich tushunchalarni bilib olmog‘i zarur, chunki bu g‘oya atrofida birlashishga katta yordam beradi. Va bu kibermakonda g‘alamis va radikal oqim hamda g‘oyalarga qarshi muayyan immunitetni yaratib beradi.

Demak, oilaning mustahkam va farovon bo‘lishida er va xotin barobar mas’ul hisoblanar ekan. Har ikki tomonning mas’uliyati va vazifalari birgina niyat bilan ibodat darajasidagi savobli amalga aylanishi mumkin. Aksincha, ulardan bo‘yin tovlash va qochish bir jihatdan gunoh amal bo‘lsa, ikkichi tomondan tushunmovchilikka sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 464.

2. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2007. – B. 119.3. Mustafayeva N.A. Ma’rifatli ayol – millat tarbiyachisi // Milliy qadriyat va urfodatlarni saqlashda ayollarning o‘rni. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2018. – B.267.

4. Narbaeva T., Musurmanova A., & Ismailova Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. Science and innovation, 2(B1), 49-59.

5. Musurmonov R., & Musurmonova M. (2020). Ta'limda innovatsion faoliyat davr talabi. Science and Education, 1(Special Issue 4), 223-231.

6. Musurmonov R., & Musurmonova M. (2020). Ta’limda innovatsion faoliyat davr talabi. Science and Education, 1(Special Issue 4), 223-231.7. Мусурманова А. (2019). Концептуальные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. Проблемы педагогики, (1 (40)), 5-7.

8. Aynisa M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. Проблемы педагогики, (1 (33)), 5-7.

9. Musurmanova O., Paluanova X., Riskulova K., & Kurbaniyazova Z. (2019). Pedagogik atamalar lug‘ati: o‘zbek, rus, ingliz tillarida. –T.: TURON_IQBOL.

Nigora TO‘LAGANOVA ,
O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘QUVCHI-YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla, ta’lim muassasasi konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida har birining alohida vazifalari aytib o‘tilgan. Shuningdek, tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o‘zining shart-sharoiti, atrof-muhitni tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar. Tarbiya muassasasi konsepsiyasi, muvafaqqiyatli, xarakter, mahalla, maktab, oila hamkorligi, dunyoviy bilimga ega bo‘lish, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs.

В статье описаны отдельные задачи каждого в процессе реализации концепции семьи, махалли, воспитательного учреждения в воспитании учащейся молодежи. Также при осуществлении воспитательной, организационной, методической работы каждый гражданин, семья, район и школа анализировали свои условия, окружающую среду.

Ключевые слова. Понятие воспитательного учреждения, успешного, характера, соседства, школы, семейного сотрудничества, приобретения светских знаний, личности, приносящей пользу обществу.

The article mentions the special tasks of each in the process of implementing the concept of a family, neighborhood, educational institution in the education of student-youth.Also, when bringing educational, organizational, methodological work to life, each citizen, family, neighborhood and school analyzed its conditions, environment.

Key words. The concept of the educational institution, the appropriate, the harakter, the neighborhood, the school, the cooperation of the family, the acquisition of secular knowledge, a person who benefits society.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qator me’yoriy hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o‘quv muassasalarining nufuzini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishni taqozo etadi.

Zero, ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, birinchidan, yosh avlodga o‘zligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan hurfikrlikdan qat’iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya-milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

Uchinchidan, yoshlarni baynalminal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O‘zbekistonga munosib hurmat tug‘dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash.

To‘rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va

insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash.

Beshinchidan, yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash kabilar O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Milliy tarbiya yo‘nalishi orqali yoshlarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoiylik fazilatlari shakllantiriladi.

Ma’lumki, farzand maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o‘qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy bo‘g‘ini sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir ko‘rsatadi. Oila a’zolarining ma’naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘quvchi-yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash maktabni oila bilan mustahkam bog‘lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o‘rtasida ta’lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.

Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko‘rsatayotgan ko‘rinmas ta’sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatlari kundalik hayot ehtiyojga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To‘g‘ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o‘rnini inkor etib bo‘lmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan ularning birligiga, o‘zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o‘ziga xos ijtimoiy guruh bo‘lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi.

Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan xalqimiz o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni, insonparvarlik, mehr- muhabbat, oqibat, vatanparvarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda bola tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo‘lib voyaga yetishlariga ota-onalar ma’suldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi.

Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq-atvori, dastavval o‘z oilasida shakllanadi. Har bir ota-ona tarbiyaning o‘ziga xos qonun-qoidalarni o‘zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki, oilada bola tarbiyasi g‘oyat nozik, murakkab masala bo‘lib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. singil sifatida, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi, kelajagiga ishonuvchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson, vatanparvar posbon sifatida ham tarbiyalashga e’tibor berishimiz lozim.

Oilada doimo tinchlik bo‘lishi, bo‘sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san’at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish – oila barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oilada bolani to‘g‘ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir.

Ta’lim-tarbiya masalasi murakkab bo‘lib, bunday ulkan mas’uliyatli, sharafli ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o‘rin

egallaydi.

Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko‘p yillar davomida birga yashagan, bir birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o‘rni, mavqeyi hamda imkoniyatlarni yaxshi biladilar.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi rejasini tuzish quyidagilarga bog‘liq:

Tarbiyaviy ishlar o‘tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola bilan bu tarbiyaviy ishlarni olib borish.

Mahallada bolalar dam olishlariga, qiziqarli ishlar bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratib berish.

Mahallada tarbiyaning ta’sirini oshirish.

Bu kabi ko‘plab ishlarni olib borish, o‘quvchilarni har tomonlama axloqli tarbiya topishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta’lim va tarbiya sohasiga e’tiborni kuchaytirish bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va hujjatlarni, ma’muriy ko‘rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyatini o‘ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllariga ega bo‘lishlari zarur. O‘tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashganlarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashtirgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko‘rgazmali, amaliy jihatdan qisqa va lo‘nda, estetik jihatdan keng ko‘lamli bo‘lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlarni qamrab olgan holda, ularning yoshlaridan, qiziqishlaridan kelib chiqib ularni foydali ishlarga yo‘naltiriladi.

Bola tarbiyasida maktab o‘rni ham juda beqiyosdir. Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, o‘zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta’lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga amal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo‘ladi:

– ta’lim-tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi;

– tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;

– hamkorlik jarayoni subyektlarning teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati;

– ota-ona farzandining maktabgacha bo‘lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash.

Bularning barchasi bolaning yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatlardan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o‘zining shart-sharoiti, atrof-muhitni tahlil qilib:

– o‘quvchi, o‘qituvchi, ota-ona;

– maktab, oila, mahalla, jamoatchilik;

– oila, mahalla, maktabgacha ta’lim muassasalari, maktab; yo‘nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini hayotga tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ‘ibot ishlarini olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo‘yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

Pedagogik adabiyotlarda oila, mahalla va maktabning o‘zaro hamkorligi “oila, mahalla, maktab oilasi va maktab ta’limining maqsadlari, shakllari va usullarini muvofiqlashtirish bo‘yicha birgalikdagi faoliyat jarayoni” deb ta’riflanadi. O‘zaro hamkorlik muhim qiymat mavjud bo‘lganda sodir bo‘lishi mumkin. Bunday holda, bolani o‘qitish va tarbiyalash, uning oilada, maktabda va mahallada o‘zini o‘zi belgilashi muhim aha-

miyatga ega. Shunday qilib, oila, mahalla va maktab o‘rtasidagi samarali o‘zaro munosabatlarning birinchi sharti – bu bolani tarbiyalashda umumiy qadriyatlar va umumiy maqsadning mavjudligi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik beqarorlik oila, mahalla va maktab munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ta’lim va tarbiya muammolari bilan bog‘liq bir qator qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarmoqda. Keling, ularni sanab o‘tamiz:

1. Ota-onalarning o‘z huquq va burchlarini amalga oshirish sohasidagi huquqiy layoqatsizligi (ayrim ota-onalar tomonidan ularni bajarishdan bo‘yin tovlash) va avtoritar munosabatlar, o‘qituvchilarning bosimi bilan bog‘liq nizolar.

2. Ota-onalarning bolalarni o‘qitishning zamonaviy texnologiyalariga bo‘lgan talablari ortib bormoqda va maktablarni moliyalashtirish va jihozlashning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning yangi texnologiyalar sohasida qobiliyatsizligi.

3. Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashda o‘qituvchilarning pedagogik yordamiga bo‘lgan ehtiyojlari va o‘qituvchilarning ota-onalarning ta’limini, tarbiyasini tashkil etishga rasmiy yondoshishi.

4. Bolalar muhitida salbiy hodisalarning o‘sishi va bolaning ushbu hodisalarga qarshi turish qobiliyatini shakllantiradigan profilaktika tizimining samarasizligi.

5. Axborot oqimlarining ortib borayotgan ta’siri va o‘quv jarayoni subyektlarining axborot xulq-atvori, axborot madaniyatini shakllantirish tizimi va mexanizmlarining yo‘qligi.

6. O‘qituvchilarning yuqori ish yuki va ularning zaif moddiy rag‘batlantirilishi bilan birgalikda o‘quv jarayonini tashkil etishga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda.

7. Bir tomondan, ota-onalarning bolaning shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos ta’lim dasturini tanlay olmasligi, boshqa tomondan o‘qituvchilarning yangi dasturlar, texnologiyalar, xizmatlar haqida ma’lumot bera olmasligi yoki istamasligi mavjud.

Ayni paytda ota-onalarning maktab va mahalla bilan hamkorlikka qaratilgan harakatlari juda zaif, samarasiz. Bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va shakllantirishda, uning tarbiyasida asosiy rol, albatta, oilaga tegishli. Aynan oilada bola birlamchi ijtimoiylashuvdan o‘tadi, shundan so‘ng maktabgacha ta’lim muassasalari ushbu jarayonga, so‘ngra maktabga ulanadi. Shu nuqtayi nazardan, oila birinchi navbatda ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Ijtimoiy institut sifatida oila yosh avlodga ushbu jamiyatda qabul qilingan me’yor va qadriyatlarni yetkazadi.

Muayyan yoshda maktab bolaning ijtimoiylashuvining ikkinchi muhim mavzusidir. Shu bilan birga, mahalla, maktab va oilaning birgalikdagi ta’lim-tarbiya faoliyati samaradorligi ushbu muassasalarning har biriga alohida qaraganda ancha yuqori.

Mahalla, maktab va oila o‘rtasidagi pedagogik o‘zaro hamkorlik bolaning muvaffaqiyatli o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratish, uning shaxsiy o‘sishini ta’minlash, o‘qish uchun motivatsiyani shakllantirish, jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash, maktabda, oilada, jamiyatda bolalar ta’limining yagona tizimini yaratish uchun ijtimoiy moslashuvni o‘z ichiga oladi.

Shunga asoslanib, biz o‘qituvchilar, mahalla faollari va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ikkinchi shartini – o‘qituvchilar, mahalla faolllari va ota-onalar o‘rtasidagi aloqalarning to‘yinganligi va to‘liqligini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Ota-onalar o‘qituvchilardan, mahalla faollaridan bolaning ta’limi va tarbiyasi nuqtai nazaridan qanday munosabatda bo‘lish haqida maslahat olishni xohlashadi. Ko‘pgina ota-onalar bolaning o‘qishi bilan shug‘ullanishi, maktabga borishdan qo‘rqmasligi va o‘qituvchi-

lar bilan til topisha olishi uchun uyda nima qilish kerakligini tushunishni xohlashadi. Bu muammolarning barchasi ko‘pincha individualdir, maxsus ishni talab qiladi, lekin ko‘p hollarda bularning barchasi sinf o‘qituvchisi bilan kamdan-kam suhbatlarga to‘g‘ri keladi, maktab o‘quvchilarining qiyinchiliklari esa butunlay boshqa, u o‘qituvchi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, ota-onalarga individual maslahatlar, farzandi va uning muammolari haqida suhbat sinf yig‘ilishida emas, balki o‘qituvchi bilan suhbatda kerak bo‘ladi, bu yerda siz hamma narsani bilib olishingiz, ota-onalar o‘zlari hal qila olmaydigan muammolarni hal qilish yo‘llarini izlashingiz mumkin. Aynan shu bosqichda malakali mutaxassis – ijtimoiy pedagogning yordami ayniqsa zarur. Maktablarda ijtimoiy pedagog va maktab psixologi lavozimlarining joriy etilishi bu muammoni qisman hal qiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ota-onalaridan ma’lumot so‘rovlari ko‘pincha quyidagi masalalar bilan bog‘liq:

1) ta’lim muassasasi faoliyati;

2) ta’lim dasturlarini amalga oshirish shakllari va shartlari;

3) psixologik xizmatlar, qiyin hayotiy vaziyatlarda bolalar va ota-onalarga yordam berish uchun ijtimoiy markazlar haqida ma’lumot;

4) qo‘shimcha ta’lim muassasalari haqida ma’lumot;

5) o‘quvchilarning yutuqlari va ko‘rsatkichlari;

6) o‘quvchilarning imtihonlari va bilim sinov muammolari.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bolaning ijtimoiy hayotidagi muammolarni hal qilish uchun kattalar uning jismoniy va ruhiy holatini tushunishlari, unga ishonch bilan munosabatda bo‘lishlari va bolaning mustaqilligini ko‘rsatish istagini hurmat qilishlari kerak. Bola bilan hamkorlikni shakllantirish, ota-onalarga yordam berish va qo‘llab-quvvatlash uchun valeologik, psixologik, pedagogik bilimlar zarurligi tobora ravshanlashib bormoqda.

Xulosa shuki, o‘quvchi-yoshlarni yaxshi xulqli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki – bolaning dunyoviy bilimga ega bo‘lish, fikrlarning keng bo‘lishi, noto‘g‘ri ta’sirlarga berilmasligi, uyda, maktabda bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishni taminlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Ta’lim to‘g‘risida”. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmoni, www.lex.uz

5. Стефановская Т. А. Классный руководитель: Функции и основные направления деятельности: учебное пособие для студ.высш.учеб.заведений. -М.: Издательский центр “Академия”, 2006. -192с.

6.Титов А.Б. Маркетинг и управление инновациями / А.Б. Титов – СПб: Питер, 2001. – 240 с.

Dilshod LUXMONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Texnologik ta’lim”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARGA O‘ZBEK MILLIY HUNARMANCHILIK SAN’ATINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda bugungi kunda tobora milliy hunarmanchilik san’atini rivojlantirishga e’tibor, o‘quvchi-yoshlarga mazkur san’atni o‘qitishning zamonaviy texnologiyasida yondashuvlari haqida fikrlar ilmiy asoslanib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Milliy hunarmanchilik, xalq san’ati, xalq ustalarining asarlari, dekorativ-naqsh san’ati, badiiy naqsh san’ati, amaliy bezak san’ati.

В статье дается научное обоснование взглядам на современное развитие национального ремесленного искусства в Узбекистане, на современные технологические подходы к обучению студентов этому искусству.

Ключевое слово. Народные промыслы, народное искусство, произведения народных мастеров, декоративно-орнаментальное искусство, Декоративно-прикладное искусство, прикладное декоративно-прикладное искусство.

The article is scientifically based on the emphasis on the development of the increasingly National Art of craftsmanship in Uzbekistan today, and on the approaches to the modern technology of teaching this art to students and young people.

Key words. National craftsmanship, folk art, works of folk Masters, decorative-pattern art, artistic pattern art, applied decorative art.

O‘zbekiston xalq san’atining o‘ziga xos markazlari bilan jahon madaniyatiga qadriyatlari bilan hissa qo‘shgan. Qadriyatlar haqli ravishda xalq san’atining ramzi bo‘lib qoldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirkor va guldor sopol buyumlar), yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqshinkor bezak va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, sholchado‘zlik va chitgarlik, zargarlik san’ati, charmga bezak tushirish san’ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi hozir ham rivojlanmoqda. Zangori-lojuvard, cho‘g‘dek qip-qizil sopol ko‘zalar, laganlar, yog‘ochdan o‘ymakori va naqshinkori qilib yasalgan milliy xontaxtalar, qo‘lda to‘qilgan gilamlar, miniatyuralar, marg‘ilonlik, xivalik va toshkentlik ustalar tomonidan qizil misdan yoki tillarang jezdan yasalgan, qimmatbaho metaldek yarqirab, shaklan nafisligi hamda naqshinkorligi bilan ajralib turuvchi buyumlar, ayniqsa, kandakori idishlar mehmon bo‘lib kelgan xorijiy davlatlar boshliqlariga tortiq qilinadi.

“Musavvirlik” xalq san’ati ilmiy-ishlab chiqarish markazi, “Nigoriston” Respublika xalq san’ati firmasi mutaxassislarining ko‘p yillik g‘ayrat-shijoati natijasida O‘zbekiston ko‘hna san’atining o‘ttizdan ziyod turining siri qayta aniqlandi, mingdan ortiq iste’dodli o‘quvchilarga ushbu hunar sirlari o‘rgatildi. Shoyi, paxta, tut po‘stlog‘idan qadimgi Samarqand shohi qog‘ozini tayyorlash, xilma-xil adras, olacha mato va shu kabi shoyi matolarni qo‘lda to‘qish, qog‘ozga, shoyiga, charmga miniatyura chizish, ip-gazlamaga gul bosish usuli qayta tiklandi. Unutilgan kandakorlik san’ati, milliy zargarlik to‘qima bu-

yumlarini tayyorlash rivojlantirildi. Tikuvchilikda, kulolchilikda, shisha hamda sirkorlik bilan bog‘liq sohalarda foydalaniladigan pishiq, puxta bo‘yoqlarni mahalliy resurslardan tayyorlash texnologiyasi ham aniqlandi. Lekin amaliy bezak san’atiga bag‘ishlangan ushbu va keyingi albomlarda O‘zbekistondagi barcha asosiy milliy san’at markazlari: G‘urumsaroy va Rishtonda, Qo‘qon va Andijonda, Samarqand va Shahrisabzda, Denov va Urgutda, Xonqa va Nukusda, Buxoro va Toshkentda, Zomin va Baxmalda ishlab turgan xalq ustalarining asarlari haqida gap boradi. Mazkur markazlarning barchasida qadimgi ustalarning an’analari avaylab saqlanmoqda va ijodiy rivojlantirilmoqda. O‘zbekiston xalq san’atida me’moriy badiiy naqsh san’ati muhim o‘rin tutadi. San’atning bu qadimgi turi O‘rta Osiyo me’morchiligi xususiyatlari, naqshga mehr va mahalliy qurilish materiallari taqozosi bilan yuzaga kelgan. Yurtimizda me’morchilik qadim-qadimdan yuqori darajada rivojlangan. Bunga tarixiy obidalarimiz, masjidlar, maqbaralarni misol qilishimiz mumkin. Bu imoratlarda ota-bobolarimizning yuksak didi, dunyoqarashi, bilim saviyasi, qurilish madaniyati nechog‘lik kuchli saviyada ekanligi ko‘rinib turibdi.

O‘zbek diyorida bobokalonlarimiz yaratgan barkamol teran mazmunli va tarixan bebaho san’at asarlari jahon madaniyati durdonalari qatorida o‘rin olgan. Qo‘li gul ustalar yaratgan san’at durdonalari kishilarga estetik zavq bag‘ishlaydi. Yodgorliklarda quyosh nurida tovlanayotgan sarkor koshinlar nafis naqsh-nigorlar beixtiyor kishilarni o‘ziga maftun etadi. Bu naqsh-nigorlar bir necha asrlar oldin yaratilgan bo‘lsada hozirgacha o‘z nafosatini ko‘rkini yuqotgani yo‘q. Bunga biz Samarqanddagi me’moriy obidalarni keltirishimiz mumkin. Tosh, sopol, materiallarda o‘z aksini topgan oddiy xalq tomonidan kashf etib yaratilgan bu manumental binolar o‘zining bejirimligi va mahobatliligi bilan kishilarni hayratga solmoqda. Bularni yaratgan ustalar o‘z bilimi yuksak mahoratlari evaziga shunday o‘lmas asarlarni yaratib toshlarga muhrladilarki, ular hozirda ham o‘z qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Fransuz olimi Viktor Gyugo aytganday, - Odamzod ongida paydo bo‘lgan eng ahamiyatli fikrlarni toshga bitib ifodalaydi, chunki qog‘ozga bitilgan qo‘lyozmalarda har qanday buyuk g‘oyalar bo‘lmasin ular vaqt o‘tishi bilan yo‘qolishi mumkin, lekin qurilgan bino toshda ifodalangan boshqaga bir kitob bo‘lib, u bir umr chidamlidir.

Hozirda bu nodir yodgorliklarga hurmat uni avaylab asrash ta’mirtalab joylarini ta’mirlab restavratsiya qilishdan iborat. Yodgorliklar davlat himoyasidadir. Mana O‘zbekistonimiz mustaqillikga erishgandan beri rassomchilikga, amaliy bezaklarga naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorliga va boshqa san’at turlariga keng yo‘l ochib bermoqda. Bu soha vakillariga turli sharoitlar mukofotlar rag‘batlar ta’sis etilmoqda. Prezidentimiz ham hunar egallagan yoshlarga, rassomchilik a’zolariga ham yordam berib ularni quvvatlamoqdalar. Bunday mayda ishlarni ham hamma bajaravermaydi, chunki bu kasb kishidan sabr, chidam va matonatni talab qiladi.

Qadimiy san’atlardan yana biri amaliy bezak san’atidir. Amaliy bezak san’ati juda qadimiy bo‘lib kishilarning mehnat faoliyatlari ehtiyojlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan deb taxmin qilinadi. IX-XI asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib, xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj olgan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, 32 xil hunar turi mavjud bo’lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atashgan. 1897-yili birinchi aholi ro‘yxati vaqtida katta shaharlarda aholining ko’pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Masalan, Namangan aholisining 64 foizi, Qo‘qonning 52 foizi, Chustning 54 foizi, Marg‘ilonning 50 foizi, mustaqil kasb-hunar egasi hisoblangan. Uyg‘onish davrigacha u uy hunari shaklida, keyin xalq badiiy hunarmandchiligi

tariqasida shakllanadi. Amaliy bezak san'ati hozirda ham rivojlanib har xil maktablari bor. Naqqoshlik, ganchkolik, koshinkorlik, yog'och o'ymakorligi, g'ishtkorlik va boshqalar. Bu esa o'z davri obidalarining qurilishi va bezalishida foydalanilgan. Unga davrning ustalari o'z ishining fidoyisi va o'z ishini juda bilgan buni biz yodgorliklar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur o'z davrida buyuk madrasalar, xonaqohlar, saroylar, qo'niqlar, bog'-u arklar qurdirgan. Albatta bunda me'mor ustalardan, koshinkor naqshkor va o'z ishining fidoyilari to'planib ishlashganlar. Bu esa qancha kuch mehnat, vaqtni talab etganligini yaqqol tushunish mumkin. Amir Temur o'z davrida ustalarni shaxsan bajarayotgan ishlarini nazorat qilib turgan. Bu esa yaxshi natijalarga erishtirish qatorida san'atni keng yoyilishiga turtki bo'lgan. Ustalar ham o'z ishlarini sitqidildan jonkuyarlik bilan bajarganlar. Biz bilamizki, bizgacha ko'pgina yodgorliklar yetib kelgan. Ulardan, Registon ansambli, Shohizinda, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, Hazrati Xizr masjidi, Buxoroda Somoniylar maqbarasi va Shahrisabzdagi Oqsaroy kompleksi va boshqalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Ganch(gips) va yog'och o'ymakorligi hamda bezagi turar joy ichini bezashda doimo qo'llangan. Bu san'at hozirgi kunda ham binolarning zamonaviy me'moriy konstruksiyasi hamda detallarini uzviy va funksional jihatdan to'ldirib kelmoqda, ma'muriy hamda jamoat binolarini bezashda muvaffaqiyat bilan ishga solinmoqda. Ayni mahalda xalq ustalari O'zbekiston dekorativ naqsh san'ati an'analariga xos betakror uyg'unlikka erishgan holda, zamonaviy arxitekturaning qat'iy va konstruktiv elementlarini buzishmaydi. Ustalarning naqshinkor kompozitsiyasi, bir tekis to'qilgan jimjimador medalonlar, handasaviy to'r, gullab turgan butoqlar, o'ziga xos milliy ohang to'la vazonlar bilan to'ldirilgan nafis namoyonlarning ko'plab variantlarini tayyorlashadi, biroq bunda me'yorni buzishmaydi.

XX asrda yog'och va ganchni naqqshinkor bezash bilan ustoz naqqoshlardan Yoqubjon Raupov, Tohir To'xtaxo'jaev, Jalil Hakimov, Madamin Husanov, Saidmahmud Norqo'ziyevlar shug'ullanishgan. Ular yangi naqshinkor bezak maktabini yaratishgan. Bu ustalarning shogirdlari Anvar Ilhomov, Sobirjon Shukurov, Baxtiyor Rahmonberdiyev, Nosir Nabiyev, Jamoliddin Erkaboyev, Abdusamad Mahmudovlar ustozlarining jamoat, ma'muriy va turar joy binolarini bezash bo'yicha an'analarini ham davom ettirib, rivojlantirishdi. Naqshinkor-bezakli buyumlar: ko'p qirrali naqshinkor kursilar, o'rindiqlar, qutilar, pardalar, ko'zalar, ko'rgazma, muzey, badiiy salonlar hamda yarmarkalarga kelganlarning ko'zini quvontiradi. Zamonaviy intererni bezashda milliy uslubdagi ganch o'ymakorligi katta o'rin tutadi. Uning bisotida jimjimador islimiy handasaviy bezaklar ham bor.

O'zbek ustalarining ganch o'ymakorligi san'atida hajmdor muqarnasli karnizlar (sharafa)ni murakkab handasaviy uslubda tayyorlash hamda nafis panjara naqshlar alohida soha bo'lib, ular quyma usulda, qo'lda pardozlab tayyorlanadi. O'zbekistonda Termiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Farg'ona ganch o'makorligi maktablari mavjud. Ularning har biri o'z o'ymakorlik uslubi bilan farqlanib turadi. Sovuq, oppoq ganchga ustalar iskanasi jon ato etib, undan xayolot, ohang, bezak hamda harakat bilan mo'jiza yaratadi. O'rta Osiyodagi ko'plab xalqlarda qovoq (kadi)ning dekorativ turlaridan xilma-xil buyumlar, idishlar, nosqovoqdan tayyorlab kelingan. Qovoqning dekorativ turlari maxsus yetishtiriladi. Uning sirti o'ziga xos tarzda badiiy bezatiladi. Qovoqni qanday bezatish uning shakliga bog'liq. Qovoqning turfa xil shakllari mavjud bo'lib, ularning naqsh berilgan sirtiga folklor mavzusidagi, fantastik mavjudotlar hamda voqelik elementlaridan iborat har qanday rasm konturi chiziladi. Unda odam, hayvon

qiyofasi, uy-ro‘zgor buyumi, o‘simliklar, parrandalar, samolyotlar, avtomobillar, yulduzlar, sanalar aks ettirilishi mumkin. Nosqovoqda, ayniqsa, naqshinkor kumush gardish bilan yarim qimmatbaho toshlar qadab bezatiladi. San’atning bu turi mayda qovoq (nosqovoq) yetishtirish mirishkor hududlarda ko‘proq tarqalgan.

O’zbekistonda bu kabi hunarmandchilikning tiklanishi va yanada rivojlanishida, uning unitilgan ba’zi turlarini qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hunarmandchilikni rivojlantirish xalq farovonligining muhim omili sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida isloh etilayotgani bilan birga, ta’lim jarayonida kasb hunar pedagogikasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazardan samarador, yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda muhim sanaladi. Xalq hunarmandchiligining ma’naviy meroslarimiz bilan hamohang rivojlanishi juda ko‘p mutafakkirlarimiz va donishmandlarimizning adabiy meroslarida yuksak mahorat bilan bayon etilganki, bu yoshlarni kasb-hunarga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirish bilan birga, kasb-hunar o‘rgatish tarixiga doir ilmiy-metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. 29.01.2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 17.11.2017-yildagi PF-5242-son farmoni.

3. Maksumova M.A., Abdullayeva Q.M. “Xalq hunarmanchiligi”. –T.: TDPU, 2008-yil. 205 b.

4. Abdullayeva Q.M., Maksumova M.A., Raxomjanova M. Gazlama badiiy ishlov berish. –T.: “Cho‘lpon”, 2011-yil 67 b.

Ollayor AVEZMUROTOV,
Urganch davlat universiteti, “Fizika” kafedrasi dotsenti
Zebo AVEZMURATOVA,
Urganch davlat Pedagogika instituti “Texnologik ta’lim”
kafedrasi dotsent v/b

MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MEROSINING FANDAGI VA YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIYATIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada Mirzo Ulug‘bekning ilmiy izlanishlari, merosi hamda vatan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritilib berilgan. Shu bilan birgalikda astronomiyaning nazariy qismi, trigonometriya, sferik uchburchaklar, kuzatish natijalari bilan tahlillari keltirilgan mashhur “Zij” asari haqida ma’lumotlar berib o‘tildi.

Tayanch so‘zlar. “Zij”, astronomiya, rasadxona, yulduzlar, Oy, Quyosh, Qozizoda Rumiy, jug‘rofiya, trigonometriya, matematika, usturlob.

В данной статье освещаются научные исследования, наследие и вклад Мирзо Улугбека в развитие страны. Одновременно были даны сведения о теоретической части астрономии, тригонометрии, сферических треугольниках, знаменитом труде “Зидж”, содержащем результаты наблюдений и анализа.

Ключевые слова. “Зидж”, астрономия, обсерватория, звезды, Луна, Солнце, Газизаде Руми, география, тригонометрия, математика, астрология.

This article highlights Mirzo Ulugbek’s scientific research, legacy and contribution to the development of the country. At the same time, information was given about the theoretical part of astronomy, trigonometry, spherical triangles, the famous work “Zij”, which contains the results of observation and analysis.

Key words. “Zij”, astronomy, observatory, stars, Moon, Sun, Qazizada Rumi, geography, trigonometry, mathematics, astrology.

2023-yil 22-dekabr. Respublika Ma’naviy va ma’rifiy markazning kengaytirilgan majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqida “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak”- degan fikri, shuningdek 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 73-maqsadida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” ko‘rsatib o‘tilgan.

II Renessans davrining buyuk namoyondalaridan bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek, o‘z davrining buyuk davlat arbobi, o‘z vatani va xalqini ma’naviyati, madaniyati, ma’rifatini yuksak cho‘qqilarga ko‘targan Sharqning eng buyuk astronomi hisoblanadi. Mirzo Ulug‘bek Amir Temurning kenja o‘g‘li Shohrux Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi edi. Mirzo Ulug‘bek 1394-yil 22-mart sanasida Eronning Sultoniya shahrida, bobosi Amir Temurning harbiy yurish paytida tug‘ilgan. Uning asl ismi Mirzo Muhammad ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragoniy edi. Uning yoshligida Ulug‘bek deb atalib Mirzo Ulug‘bek bo‘lib qoladi. Mirzo Ulug‘bek 1411-yil 17 yoshida Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanadi. Uning otasi Shohrux Eron va Turonni yago-

na xoqoni hisoblanar edi. Mirzo Ulug‘bek yoshligida bolalik yillarida buvisi Saroymalik xonim tarbiyasida bo‘lgan. Bu xonim nabirasiga o‘qish, yozishni o‘rgatib, tarixiy mavzuda hikoyalar aytib bergan. Keyinchalik Shohmalik otabegilik qilgan, unga harbiy va siyosiy tarbiya bergan. Ulug‘bek ziyrak, fanga qiziquvchan bo‘lgan. Uning shogirdlari yozishicha arab tilini mukammal bilgan, Qur’oni Karimni aksariyat qismini yod bilgan. Ko‘pgina tabiiy fanlar, matematika, geometriya, trigonometriya astronomiya fanlaridan chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan. 10 yoshligida Amir Temur vaqtidanoq mashhur bo‘lgan munajjim Mavlono Ahmad astronomiyadan ilm berganligi taxmin qilinadi.

Ulug‘bekni o‘zi keyinchalik Qozizoda Rumiyni ustozim deb ataydi. Ulug‘bek 20 yoshlarida yetuk olim bo‘lib yetishdi. Ulug‘bek ilmga qiziqqonligi va mamlakatni ravnaqini ko‘zlaganligi tufayli yangi usuldagi bilim yurti-maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qildi. 1417-1433-yillar Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda 3 ta madrasa barpo etadi. Bu madrasalar o‘z davrida universitet vazifasini bajargan. Buxoro madrasasi Movarounnahrda 2-nufuzli madrasa bo‘lgan. Uning peshtog‘iga Ulug‘bek tomonidan “Ilm olishga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir”- degan hadis bitilgan. Mana shularni o‘zi shuni ko‘rsatadiki Ulug‘bek o‘z Vatanining kelajagi uchun ma’naviyat va ma’rifatga intilgan. 1420-yil Samarqandda madrasasi ochiladi. Bu madrasaga mudarris etib Shamsiddin Muhammad tayinlanadi. Madrasada asosiy ma’ruzalarni Qozizoda, Ulug‘bek, Koshiy va keyinchalik Ali Qushchilar o‘qiydi. Shunday qilib Samarqandda Movarounnahrning turli shaharlaridan olimlar chaqirilib, 1417-yilga kelib ularning soni 100 dan ortiq bo‘ldi va Samarqandda Ulug‘bek maktabi shakllandi.




Bu maktabda ko‘plab buyuk siymolar yetishib chiqdi. Bu madrasada matematika, trigonometriya, jug‘rofiya va asosan astronomiya fanlari chuqur o‘rganilgan. Madrasada faqat fanlar nazariy o‘tilib qolmasdan uni amaliy o‘rganish va madrasada ilmiy ishlar olib borish maqsadida 1424-1429 yillar davomida Ko‘hak tepaligida, Obi Rahmat arig‘i bo‘yida rasadxona qurdiradi va kuzatishlar olib borgan. Bu rasadxona bilan madrasaning birgalikdagi faoliyati Ulug‘bek ilmiy maktabida astronomiya va matematikani o‘rta asrlar davrida eng yuqori pog‘onaga ko‘tarilishiga olib keldi. Bu rasadxonadagi o‘lchashlar o‘z davri uchun aniqligi eng yuqori edi. Masalan, hamma zamonlarda ham astronomlar Ekliptikani osmon Ekvatoriga og‘maligini o‘lchab qiziqib kelganlar. Chunki bu masala yerdagi hayot Quyoshning ekliptikadagi harakati bilan bog‘liqligidan, yil fasllarini almashinuvi qiziqarli va zarur bo‘lib kelgan. Masalan: Eratosfen miloddan avval 230-yil o‘lchagan uning xatoligi +7` 55`` bo‘lgan. Ptolomey milodiy 140-yil xatoligi +10`10``, Nasriddin

Tusiy 1270-yil xatoligi -2`09``, Ulug‘bek 1437-yil o‘lchashda xatoligi -0`32``.Shunga o‘xshash boshqa o‘lchashlarda ham ya’ni tropik yilni uzunligi, sayyoralar aylanish davri kabi o‘lchashlarda aniqlik katta bo‘lgan. Bunga asosiy sabab deb rasadxona ko‘rinib turibdiki Ulug‘bekni xatoligi eng kam ya’ni 32 sekundga xatolashgan. Bunga asosiy sabablar - deb Rasadxona qurilishi shu davr uchun eng mukammal ekanligini (1-rasm) keltirish mumkin.

Rasadxona aylana yoy tekisligi yerning meridiani bo‘ylab joylashgan. Yer o‘z o‘qi atrofida sutkalik aylanishida hamma yoritgichlar, Yulduzlar, Oy, Quyosh meridian tekisligidan o‘tadi. Bu esa yoritgichlarni rasadxona ichiga biroz vaqt nurini sochib o‘tishi hisobga olingan. Katta rasadxonalarda katta teleskoplarni o‘rnatish ancha qiyinchiliklar tug‘diradi, ularni ancha massiv va mustahkam o‘rnatish kerak. Aks holda xatoliklarga olib keladi. Ulug‘bek rasadxonasida, mantirovka o‘rnida Yer sharini o‘zi olingan. Yer sharini aylanish o‘qi deyarli o‘zgarmaydi. Yer sharini o‘z o‘qi atrofida aylanishini 1000-yillar boshida Abu Rayhon Beruniy aytib o‘tgan. Demak, Ulug‘bek Beruniyning qarashlarini rasadxona qurilishida hisobga olgan deyishimiz mumkin. Kopernikning geliosentrik g‘oyalariga hali 120 yil bor edi.

Osmonni bir qismi quyoshni ekliptikadagi harakatiga bog‘liq bo‘lib, tunda ko‘rinmaydi. Yil davomida esa, osmonni hamma hududlarini ko‘rish mumkin va, albatta, bu holat ham hisobga olingan. Rasadxona qurilishidan oldin yuqoridagi aytilgan astronomik hodisalar bilan tanish bo‘lganlar. Manbalarda aytilishicha Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Mahmud, Koshiy kabi astronom, matematik olimlar bilan maslahatlashgan. Rasadxona qurilishi davrida Qozizoda Rumiy, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy va Al-Beruniy tomonidan yasalgan usturlob ustida ko‘p ishlagan – degan fikrlar manbalarda bor. Aynan usturlob o‘rta asrlarda burchak o‘lchagich vazifasini bajargan. Ulug‘bek rasadxonasining asosiy o‘lchov asbobi kattalashtirilgan usturlob bo‘lishi mumkin (2-rasm).







Rasadxonada olib borilgan kuzatishlar asosida “Ziji Ko‘ragoniy” yaratildi. Ulug‘bekdan oldin ham keyin ham Zijlar yozilgan. Lekin uning “Zij”i juda mukammal, ilmiyligi va aniqligi bilan butun jahon fani rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

“Ziji Ko‘ragoniy” 403 bet, 4 ta kitobdan iborat bo‘lgan. Unda astronomiyaning nazariy qismi, trigonometriya, sferik uchburchaklar, kuzatish natijalari bilan tahlillari keltirilgan va 1018 ta yulduzni aniq koordinatalari keltirilgan. Xo‘sh, bu qanday ahamiyatga ega bo‘lshi mumkin. Ulug‘bek “Zij”i o‘rta asrlarda eng mukammal astronomik asar bo‘lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o‘ziga jalb etdi. 1449-yil Ulug‘bekni fojiali halokatidan keyin Samarqand olimlari asta sekin yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketdi. Ular o‘zlari bilan borgan yerlariga Samarqand olimlarining yutuqlarini va “Zij” ning nusxalarini ham yetkazdilar. Ali Qushchi 1473-yilda Istanbulga boradi va “Zij” ni Turkiya, Istanbul kutubxonasida saqlaydi. “Zij” Turkiya orqali Ovro‘po ma’lumotlarlariga tarqaladi.Ma’lumotlarga ko‘ra “Zij” ning 100 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud.

Ulug‘bek “Zij”i Hindiston olimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Samarqand olimlarining ilmiy an’analarini Hindistonga Bobur olib borgan degan ma’lumotlar bor. G‘arbiy Ovro‘po Temur va uning farzandlarini ayniqsa Ulug‘bekni XV asrdan bilardilar. 1638-yil Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602-1652) keladi. Istanbuldan “Zij” ni izlab topadi va Angliyaga olib ketadi. 1448-1452-yillar “Zij” dan 98 ta yulduz va geografik jadvalni lotincha nashr qilishadi. Yana bir ingliz olimi va sharqshunos Toms Hayd (1636-1703) “Zij” dan turg‘un yulduzlar jadvalini 1665-yilda forscha va lotincha nashr etadi. 1680-yillar polyak olimi, astronomi

Yan Geveli o‘zining “Astronomiya darakchisi” kitobida “Zij” ni ko‘p qismini beradi. Yan Geveli yulduz turkumlariga gravyuralar chizgan. Yulduz turkumlari nomlariga mos rasmlarda tasvirlagan astronom, matematik va rassom bo‘lgan.

3-rasmda Polyak astronomi Yan Gaveliy gravyurasi(asari)da URONIYA-Osmon Ma’budasi (o‘rtada o‘ng qo‘lida Quyoshni ko‘tarib turibdi) o‘ng tomonida Ulug‘bek o‘tiribdi. Bu asarda eng buyuk astronomlar tasvirlangan Ptolemey, Tixo Brage, Ulug‘bek, Javani Richcholi, Velgelm IV va Yan Geveliy. Ko‘rinib turibdiki, Ulug‘bekni o‘rni balandligi. U xatto Ptolemeydan ham yuqoriroqda tasvirlangan. Rasmda har bir astronomni orqa tomonida devorda yozuvlar ko‘rsatilgan. Ulug‘bekni to‘g‘risida “O‘z ishimni munosib avlodlarimga qoldirdim”- deb yozib qo‘yilgan. Bu rasmlar 1685-yillarda ishlangan. Bu paytlarda deyarli XV asr hukmronlik qilib kelgan Ptolemeyning geosentrik ta’limoti o‘rnini N.Kopernikni geliosentrik ta’limoti egallagan edi. Bu asarda Yan Gaveliy buyuk astronomlarni ularning qilgan ishlari yuzasidan solishtirgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ulug‘bekni ishlari o‘sha davrda Ovro‘pada eng qadrli bo‘lgan deyish mumkin. Shunga o‘xshash keyinchalik g‘arbda va Oro‘poda Ulug‘bek “Zij” iga katta qiziqishlar bo‘lgan. XX asrning eng buyuk astronomlaridan biri Edvin Xabl Buyuk Britaniya kutubxonalarida saqlanayotgan Ulug‘bek “Zij” ini 18 ta qo‘lyozmasini o‘rganadi va 1917-yil Washingtonda ingliz tilida “Ulugh Beg‘s catalogic of statrs” (Ulug‘bekning yulduzlar jadvali) nomida nashr etadi. Bu juda katta muhim ahamiyatli ma’noga ega edi. Edvin Xabl 20-asrning eng buyuk astronomi hisoblanadi. U galaktikalarni o‘rgangan, osmonning har bir kvadrat gradus maydonida 131 galaktika kuzatish mumkin ekanligini ko‘rsatib bergan. 1929-yillar hozirgi zamon koinot modeliga o‘zining qonunini qo‘shgan. Uning formulasiga ko‘ra V=H x R koinot tezlanish bilan kengaymoqda. Galaktikalarni bir-birlaridan uzoqlashish tezligi har bir MegoParsek (Mps) masofa oshganda H=72 km/s tezlikka oshadi. Xabl nomidagi katta teleskop kos-

mosda 1991-yildan buyon uchib yurib, koinotni eng chekka chegaralaridagi obyektlarni Kvazarlarni o‘rganmoqda.

Olimlar biror asarni o‘rganar ekan, o‘ziga kerak ma’lumot va manbani izlaydi. Ajab emas 1917-yillar shunday mashhur astronom Xabl ham Ulug‘bek “Zij” idan foydalangan bo‘lishi mumkin. Hozir galaktikalar ancha yaxshi o‘rganilgan. Bizni Quyosh sistemamiz “Somon yo‘li” galaktikamizni markazidan 30 kps masofada joylashgan bo‘lib, galaktika markazi atrofida 250 km/s tezlik bilan aylanadi. Bizni galaktikada 200 milliarddan ortiq yulduzlar bo‘lib, ular ham Quyosh kabi galaktika atrofida aylanadi. Bu harakatlar natijasida, albatta,yulduzlar bir-birlariga nisbatan siljiydi. Bu siljishlar hozir turli uslublar bilan o‘lchanadi. Masalan, Quyosh(apeksi) Gerkules yulduz turkumiga qarab 30 km/s tezlik bilan harakat qiladi deyiladi hozirgi metodlarda. Bunday siljishlar, yulduzlar juda uzoqda bo‘lgani uchun sezilmaydi. Uni sezish uchun 10 yil yoki 100 yillar talab qilinadi. Bunga inson umri yetmaydi. Hozirgi zamon metodlarini qanchalik to‘g‘ri ekanligini kuzatish natijalari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Edvin Xabl ham nazariy yo‘l bilan hisoblangan natijalarni qanchalik to‘g‘ri ekanligini 600 yillik davrga ega Ulug‘bek “Zij” ida ko‘rsatilgan va aniq o‘lchangan yulduzlar koordinatalari bilan solishtirgan bo‘lsa ajab emas. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Ulug‘bek “Zij”ining qadr-qimmati hozir ham kelajakda ham yuqori bo‘lib qolaveradi. Jahon ilm fani rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk davlat arbobi o‘z davrining oliy qo‘mondoni, odil va malakali ustoz Mirzo Ulug‘bek tarixda abadiy qoladi. Biz O‘zbekistonliklar, yoshlarimiz Yangi O‘zbekistonda III Renessans boshlanayotgan davrda bunday tarixiy, ma’naviy qadriyatlarimizdan faxrlansak, o‘rgansak va targ‘ibot qilsak arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

2. M.Mamadazimov “Umumiy astranomiya” – T., 2008-y.

3. “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materillari Nukus, Urganch,“Ma’naviyat” nashriyoti 2023-y. 25-26-27 sentabr. Qahhorov S.Q., Avezmurotov O.,Avezmuratova Z.A.

4. https://samarkand.uz/uz/about_region/shrines/mirzo-ulugbek-rasadxonasi-va-muzeyi

5. SAVIYA.UZ

6. Zokirov M.N., Doniyorov Sh, Bekmirzayeva X.U., Umumiy Astronomiya Jizzax - 2009

Zafar PARDAYEV,
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish markazi bo‘lim boshlig‘i

O‘QITUVCHINING O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish va mutaxassislarni tayyorlash, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, kasb tanlashda ehtiyotkorlik bilan va mustaqil yondashishda yordam berishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘quvchilar, kasb-hunar, uzluksiz ta’lim, mutaxassislar, maktab, talabalar, universitet, o‘qituvchilar, psixologlar, psixofiziologik xususiyatlar.

В статье даны рекомендации по организации профориентации учащихся и подготовки специалистов, разработке учебных планов и учебных программ. Также было высказано предположение, что это поможет с осторожным и независимым подходом к выбору карьеры.

Karimov va Yusupov o‘z tadqiqotlarida paradzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligida maxsus mashqlar tizimining ahamiyatini asoslab berishgan. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, texnik-taktik harakatlarni tezkor o‘zlashtirishga yordam beradi.

Rahmonov va boshqalar paradzyudoda texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishgan. Tadqiqotchilar video tahlil, 3D modellashtirish va maxsus trenajyorlardan foydalanish samaradorligini asoslab berishgan. Ularning xulosalariga ko‘ra, zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi sportchilarning texnik-taktik mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratish zarurligi aniqlandi:

1. Individual yondashuv tamoyili – har bir sportchining jismoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish. Ismoilov va Tursunov ta’kidlaganidek, paradzyudochilarning individual xususiyatlarini hisobga olish mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshiradi.

2. Bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyili – texnik-taktik harakatlarni oddiydan murakkabga qarab o‘rgatish. Bu tamoyil sportchilarning texnik elementlarni puxta o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

3. Harakatlar elementlarini ajratib o‘rgatish tamoyili – murakkab texnik-taktik harakatlarni alohida elementlarga bo‘lib o‘rgatish. Bu yondashuv harakatlarning to‘g'ri bajarilishini ta’minlaydi.

4. Ko‘rgazmali va amaliy metodlarni uyg‘unlashtirish tamoyili – nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning birligi. Video materiallar, 3D modellar va amaliy mashqlarning uyg'unligi o‘rgatish jarayonining samaradorligini oshiradi.

5. Mashg‘ulot yuklamalarini optimal taqsimlash tamoyili – jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikning mutanosibligi. Bu tamoyil sportchilarning charchash darajasini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni rejalashtirish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, texnik-taktik harakatlarni tezkor o‘rgatish samaradorligi ko‘p jihatdan trenerning malakasi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Shuning uchun trenerlar malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy metodikalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaga statistik ma’lumotlar va tahliliy jadvalni qo‘shishimiz mumkin. Masalan, paradzyudochilarning texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, turli metodikalarning samaradorlik darajasi, mashg‘ulot yuklamalarining taqsimlanishi kabi ma’lumotlarni jadval shaklida keltirishni taklif qilaman.

1-jadval.

Paradzyudoda texnik-taktik harakatlarni o‘rgatish metodikalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Metodika turi	O‘zlashtirish davri (oy)	Samaradorlik darajasi (%)	Qo‘llanish chastotasi (%)
An’anaviy	6-8	65-70	45
Innovatsion	4-5	80-85	35
Kombinatsiyalashgan	5-6	75-80	20

Bu jadval orqali turli metodikalarning samaradorligini ko‘rgazmali tarzda taqqoslash va tegishli xulosalar chiqarish mumkin. Jadvalga kiritilgan ma’lumotlar adabiyotlar tahlili va ekspert baholash natijalariga asoslangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, paradzyudoda texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda raqibning harakatlarini oldindan ko‘ra bilish va unga qarshi taktik choralarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada murabbiylar raqibning individual xususiyatlari, texnik arsenali va taktik harakatlarini chuqur o‘rganishlari zarur. Sportchilarni taktik fikrlashga o‘rgatish orqali ularning musobaqa faoliyatidagi samaradorligini oshirish mumkin.

Zamonaviy paradzyudoda texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishning yana bir muhim jihati bu psixologik tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqligidir. Sportchilarning psixologik barqarorligi, o‘ziga ishonch va qaror qabul qilish tezligi texnik-taktik harakatlarning samarali bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, mashg'ulot jarayonida psixologik tayyorgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

2-jadval.

Paradzyudoda texnik-taktik tayyorgarlikda qo‘llaniladigan mashqlar tizimi va ularning yo‘nalishi

Mashqlar yo‘nalishi	Mashqlar soni	Mashg‘ulotdagi ulushi (%)	Samaradorlik ko‘r-satkichi (%)
Maxsus-tayyorlov	15-20	35	75
Musobaqa	10-12	30	80
Yordamchi	8-10	20	65
Imitatsion	6-8	15	70

Jadval tahlili ko‘rsatadiki, texnik-taktik tayyorgarlikda maxsus-tayyorlov mashqlari (35%) va musobaqa mashqlari (30%) asosiy o‘rinni egallaydi. Bu mashqlar yuqori samaradorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lib (75-80%), sportchilarning texnik-taktik mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yordamchi va imitatsion mashqlar nisbatan kamroq ulushga ega bo‘lsada (35%), ular texnik-taktik tayyorgarlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ma’lumotlar mashg'ulot jarayonini optimal rejalashtirish va texnik-taktik tayyorgarlikni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri shuki, paradzyudochilarning texnik-taktik mahoratini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Zamonaviy video tahlil dasturlari, 3D modellashtirish va virtual reallik texnologiyalari sportchilarga texnik elementlarni chuqurroq tushunish va tezroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu ayniqsa murakkab texnik-taktik kombinatsiyalarni o‘rganishda samarali natija beradi.

Mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirishda trenerning pedagogik mahorati va individual yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Trener har bir sportchining jismoniy, texnik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, mashg'ulot dasturini moslashtirishi va texnik-taktik elementlarni o‘rgatish ketma-ketligini to‘g'ri belgilashi zarur. Bu sportchilarning texnik-taktik mahoratini bosqichma-bosqich oshirib borish imkonini beradi.

Paradzyudoda texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda xorijiy tajribani o‘rganish va milliy maktab an'analarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jahon

paradzyudosining rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, milliy maktabning ilg'or tajribalarini boyitib borish maqsadga muvofiq. Bu texnik-taktik tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida texnik-taktik harakatlarni o‘rgatish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan qo‘shimcha omillar aniqlandi. Xususan, paradzyudochilarning musobaqa faoliyatiga tayyorgarligini tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhim:

Musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan mashg‘ulotlar tizimini joriy etish zarur. Bu orqali sportchilar haqiqiy bellashuv vaziyatlariga psixologik va texnik-taktik jihatdan yaxshiroq moslashadi. Musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlar sportchilarda qaror qabul qilish tezligini oshiradi va stress holatlarida to‘g‘ri texnik-taktik harakatlarni qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Sportchilarning individual texnik-taktik arsenalini shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir paradzyudochining jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning individual texnik-taktik uslubini rivojlantirish zarur. Bu yondashuv sportchining musobaqa faoliyatidagi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mashg‘ulot jarayonida video tahlil tizimlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar sportchilarning texnik xatolarini aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Shuningdek, raqiblarning texnik-taktik harakatlarini o‘rganish va tegishli taktik choralarni ishlab chiqishda video tahlil samarali vosita hisoblanadi.

Texnik-taktik tayyorgarlikda quyidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish tavsiya etiladi:

• virtual reallik texnologiyalaridan foydalangan holda texnik elementlarni o‘rgatish;

• maxsus trenajyorlar yordamida harakatlar texnikasini takomillashtirish;

• biomexanik tahlil natijalariga asoslangan individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish.

Paradzyudochilarning texnik-taktik mahoratini oshirishda murabbiyning kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, murabbiylarning malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy metodikalar va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Mashg‘ulot jarayonining yanada samarali tashkil etilishiga erishish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Texnik-taktik elementlarni o‘rgatishda sportchilarning yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasini inobatga olish;

2. Mashg'ulot yuklamalarini optimal taqsimlash va nazorat qilish tizimini joriy etish;

3. Zamonaviy texnologiyalardan kompleks foydalanishni yo‘lga qo‘yish;

4. Psixologik tayyorgarlik dasturlarini takomillashtirish;

5. Individual yondashuvga asoslangan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, paradzyudochilarning texnik-taktik mahoratini oshirishda milliy va xorijiy tajribani uyg‘unlashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va individual xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda paradzyudoda texnik-taktik harakatlarga tezkor o‘rgatish usullarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Texnik-taktik harakatlarni tezkor o‘rgatishda individual yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va maxsus mashqlar tizimidan kompleks foydalanish yuqori

samara beradi.

2. Mashg‘ulot jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan trenerning malakasi va pedagogik mahoratiga bog'liq bo‘lib, trenerlar malakasini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Psixologik tayyorgarlik bilan texnik-taktik tayyorgarlikning uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Bu omillarni hisobga olgan holda mashg‘ulot jarayonini tashkil etish zarur.

4. Texnik-taktik harakatlarni o‘rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalari, video tahlil va maxsus trenajyorlardan foydalanish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adamchuk G.A. (2021). Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan.

2. Abdumalikov R., Qodirov A. (2022). Paradzyudo: nazariya va uslubiyat. Toshkent: Sport.

3. Ismoilov D., Tursunov N. (2024). Paradzyudo sport turida texnik-taktik tayyorgarlik. Sport nazariyasi va metodikasi, 2(1), 45-52.

4. Smirnov A. (2023). Technical and tactical preparation in Paralympic judo. International Journal of Sport Science, 15(4), 389-396.

5. Sato K., Kimura T. (2023). Biomechanical analysis of Paralympic judo techniques. Journal of Sports Sciences, 41(3), 267-275.

6. Ivanov P., Petrov S. (2023). Modern approaches in Paralympic judo training. Sports Science Review, 32(1), 45-52.

7. Karimov M., Yusupov U. (2023). Paradzyudochilar tayyorlash tizimi. Toshkent: O‘qituvchi.

8. Rahmonov R. va boshq. (2022). Paradzyudoda innovatsion texnologiyalar. Sport fani, 4(2), 78-85.

9. Martinez J. et al. (2023). Virtual reality in Paralympic judo training. Adaptive Physical Activity Quarterly, 40(2), 156-168.

10. Qodirov B. (2023). Paradzyudoda mashg'ulot jarayonini tashkil etish. Sport va ta’lim, 3(2), 112-118.

11. Karimov M., Yusupov U. (2023). Paradzyudoda texnik-taktik mashg'ulotlar. Sport nazariyasi, 5(3), 145-152.

12. Rahmonov R. va boshq. (2023). Zamonaviy texnologiyalar va paradzyudo. Sport va texnologiyalar, 2(4), 67-74.

13. Ismoilov D., Tursunov N. (2023). Individual tayyorgarlik asoslari. Sport pedagogikasi, 4(2), 89-96.

Bobirjon ERGASHEV,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti, "Malaka oshirish va qayta tayyorlash" fakulteti dekani, p.f.d. (DSc), dotsent
Naima NIYAZOVA,
"Toshkent iqtisodiyot texnologiyalari universiteti" nodavlat oily ta'lim muassasasi dotsenti

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada professional ta'lim tizimi malaka oshirishida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, malaka oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy etilishi bo'yicha takliflar keltirilgan.

Tayanch so'zlar. Raqamli texnologiyalar, elektron dasturlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, malaka oshirish tizimi, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, internet tizimi, masofaviy o'qitish,vizual va qiziqarli taqdimotlar.

В статье использование цифровых технологий в системе повышения квалификатsии профессионального образования на основе анализа их возможностей определены приоритетные направления развития образовательного процесса. Также путем изучения, систематизатsии и обобщения существующей практики по составлению научно обоснованных выводов по внедрению цифровых технологий в профессиональное развитие сделаны предложения не только о том, какое важное место они должны занимать в сфере образования и в какой форме их следует внедрять.

Ключевые слова. Цифровые технологии, электронные программы, информатsионно-коммуникатsионные технологии, система обучения, современное образование, цифровые знания, интернет-система, дистанционное обучение, визуальный и интересные презентатsии.

The article, the use of digital technologies in the system of advanced training of vocational education, based on an analysis of their capabilities, priority directions for the development of the educational process are identified. Also, by studying, systematizing and generalizing existing practice in drawing up scientifically based conclusions on the introduction of digital technologies in professional development, proposals were made not only about what important place they should occupy in the field of education and in what form they should be implemented.

Key words. Digital technologies, electronic programs, information and communication technologies, educational system, modern education, digital knowledge, internet system, distance learning, visual and interesting presentations.

Bugungi jadal rivojlanayotgan global sharoitda raqamli texnologiyalar iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun ajralmas vositaga aylandi. Butun dunyo mamlakatlari samaradorlikni oshirish, jarayonlarni soddalashtirish va bandlik uchun yangi imkoniyatlar yaratish uchun raqamli yutuqlardan foydalanmoqda. Ushbu texnologiyalar salohiyatidan foydalangan holda O'zbekistonda barcha sohalarda samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashni maqsad qilingan.

Malaka oshirish tizimining o‘quv jarayonidagi raqamli texnologiyalar keng ko‘lamli masalalar hisoblanadi. Bu nafaqat masofaviy ta’lim yoki tinglovchilarni kompyuter savodxonligi kompetensiyalariga egaligi balki raqamli texnologiyalar va elektron dasturlar bilan mukammal ishlash kompetensiyalari bilan bog‘liqdir. Kundalik hayotimizda raqamli texnologiyalarni tobora ommalashib borishini ular og‘irimizni yengil va sodda qilishlari bilan izohlash mumkin. Xususan, malaka oshirish tizimining o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalar va elektron dasturlarni quyidagi afzalliklarini keltirishimiz mumkin:

– tinglovchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilishda motivatsiyasini va qiziqishini oshirish;

– mustaqillik va kognitiv faollikni faollashtirish;

– qabul qilinayotgan axborot, materialning vizual va qiziqarli taqdimoti;

– auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta’limni sodda va mukammal o‘zlashtira olish imkoniyating mavjudligi;

– tinglovchilar uchun qog‘oz ko‘rinishidagi materiallarni yo‘qligi;

– fikr-mulohazalar, tinglovchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasasi rahbariyati o‘rtasidagi muloqotni soddaligi;

– tinglovchilarni masofaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va internetga ulangan dunyoning istalgan nuqtasidan malaka oshirish imkoniyati mavjudligi;

– ko‘plab onlayn o‘quv kurslarining mavjudligi va hakozolar.

Yuqoridagilardan tashqari, raqamli ta’lim texnologiyalar va elektron dasturlar bilan ishlashda har bir tinglovchiga uning xususiyatlari va kognitiv qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni ta’minlashga yordam beradi 1-rasmga qarang.

O‘quv jarayonida biz qabul qilayotgan raqamli texnologiyalar va elektron dasturlar o‘qituvchining ro‘lini sezilarli darajada o‘zgartiradi, u yagona bilim tashuvchisidan ta’lim boshqaruvchisi va murabbiyiga aylanadi, tinglovchining ma’lum bir dasturni o‘zlashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini individual topshiriqlar orqali boshqaradi va nazorat qiladi. Bulardan tashqari tegishli ta’lim resurslarini aniqlash, o‘qitish uchun qo‘shma imkoniyatlar yaratish, shuningdek, yuzma-yuz jarayonda ham, o‘quv muhitida va virtual o‘zaro ta’sirda ham materialni tushunish va maslahat yordamini ta’minlash imkoniyatlarini ham alohida aytib o‘tish mumkin.

Yuqorida qo‘yilgan torshiriqlardan kelib chiqqan holda ta’limning malaka oshirish tizimiga raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatiga erishish asosiy maqsad qilib belgilangan. Globallashgan jamiyatda har bir mamlakatning taraqqiyoti, mamlakatda tashkil etilgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy qilish va ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.



1-Raqamli texnologiyalar va elektron dasturlar bilan ishlash.

Malaka oshirish tizimi oldidagi asosiy vazifa doimiy ravishda ta’lim sohasidagi yangiliklardan xabardor bo‘lish, axborotlarni to‘g‘irlash, uni qayta ishlash va tinglovchilarga yetkazish masalalari turadi. Tabiiyki, shu sababli ta’limning axborot ta’minoti – axborotni qandaydir tashuvchilarda uni

akslantirish shakl, vosita va usullarini yaratish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish va elektron dasturlarni mukammal bilish talab etiladi. Raqamli asrda ta’lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta’lim paradigmasi ta’lim va tarbiya birligi asosida o‘zgartirilishi shart. Jahon ta’lim tizimida texnologik yondashuvga asoslangan innovatsion-kreativ muhitni qaror tortirish, malaka oshirish tizimi tinglovchilarida analitik va prognostik komretentlikni rivojlantirish, refleksiv yondashuv asosida darslarni tahlil qilish malakalarini shakllantirishning texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilishiga erishish kerakligi kelib chiqadi.

Professional ta’limni rivojlantirish instituti malaka oshirish tizimida ham, o‘quv jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishda interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish, maxsus-metodik kompetentlikni rivojlantirish, modullardagi o‘quv materiallarini strukturalashtirish, o‘qitish jarayonini loyihalashga tayyorlash, o‘qitish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish orqali tinglovchilarda mustaqil malakalarini rivojlantirishga erishilmoqda. Bu natijalarga albatta modullar ma’no mohiyatidan kelib chiqqan holda ularga raqamli texnologiyalarni qo‘llash va elektron dasturlardan foydalanish orqali natijadorlik bo‘lmoqda.

O‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish – o‘quv jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatli o‘tilishi va tinglovchilar tomonidan o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, internet bilan do‘stlashish, sun’iy intellekt va bulutli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyalari rivojlanadi bu esa ta’lim sifatini rivojlanishiga olib keladi. Raqamli transformatsiya tufayli zamonaviy sharoitda malaka oshirish tizimining rivojlanishi o‘quv jarayonini qurishga, shu jumladan ilg‘or o‘quv texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy elektron axborot-ta’lim muhitini yaratishga, ta’limni boshqarish strategiyasini amalga oshirishga va individual xususiyatlarga asoslangan o‘quv materiallarini moslashtirishga yangi talablarni qo‘yadi.

Ta’limga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish va raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish sharoitida ta’lim formatlari o‘zgarib bormoqda, ta’lim paradigmasi oflayn va onlayn ta’limni birlashtirish sharoitida amalga oshiriladigan gibrid o‘quv jarayoniga o‘tmoqda.

Ta’limda raqamli texnologiyalarni yuksalishiga Wi-Fi zonalar, IT parklar ochilishi katta xizmat qiladi. Ta’lim beruvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o‘stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: bor-yo‘g‘i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi.

Malaka oshirish tizimida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi tinglovchiga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi. Bundan tashqari, blokcheynga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali davlat xizmatlaridan foydalanish qulay bo‘ladi, ularni ta’minlovchi institutlar mas’uliyatini oshiradi va sun’iy intellektdan foydalanish natijasida jarayonlar kamroq byurokratik bo‘ladi. Katta ma’lumotlar, shuningdek, yanada moslashuvchan va aniq siyosat va dasturlarga olib kelishi ta’minlanadi.


Quyida raqamli texnologiyalrni ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz: bulutili texnologiyalar– internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida kompyuter resurslarini taqdim etiladigan

ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridir 1-rasm.



1-rasm. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini samarali boshqarishga qaratilgan dasturiy maxsulotlar.

Ushbu platformamalar qulay interfeysga ega bo‘lib, Respublikamizdagi barcha professional ta’lim tizimidagi malaka oshirish va qayta tayyorlashlarni raqamli texnologiyalar asosida samarali boshqarish imkoniyatiga ega. Platformadagi oynalarni barchasini o‘z funksional vazifasi bo‘lib, raqamli texnologiyalar asosida malaka oshirish tizimida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi 2-rasm.




2-rasm. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini bulutli texnologiyalar asosida boshqarish.

Bulut texnologiyasi bu ommabop texnologiya bo‘lib, unda foydalanuvchilar Internet-platformada IT-resurslarda ma’lumot kiritish yoki olish uchun ishlatadilar. Bu texnologiya ma’lumotlar va resurslarni onlayn-serverda saqlaydigan va foydalanuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompyuterning qattiq diskida saqlash o‘rniga xavfsiz foydalanish uchun ishlatiladi. Bulutli texnologiyalarning turli xil xizmatlari mavjud bo‘lib, ular juda mashhur va bugungi kunda dunyoda keng qo‘llanilayotgan katta hajmdagi saqlash va uni zahiralash, dasturlarni sinash va texnik xizmat ko‘rsatish, ma’lumotlarni tahlil qilish va kerakli dasturlarni yetkazib berish mumkin.

Bulutli dasturlar – bu turli xil internet xizmatlarini bajarish. Bunday vazifalarga misol qilib, ma’lumotlarni saqlash, serverlar, ma’lumotlar bazalari, dasturlar va ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Bulutli dasturlar ma’lumotlarni saqlashni kompyuter fayllariga yoki qattiq diskka emas, balki markaziy tarmoqqa saqlashga imkon beradi. Ko‘p sabablarga ko‘ra, Cloud Computing – bu jismoniy shaxslar va kompaniyalar uchun mashhur variant, jumladan vaqtni tejash, samaradorlikni oshirish, tezlik va himoya.

Bundan tashqari, raqamli ta’lim texnologiyasi tinglovchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan ta’lim olish imkoniyatini yaratdi. Onlayn ta’lim an’anaviy ta’lim resurslaridan

foydalana olmaydigan, masalan, chekka hududlardagi ta’lim muassasalari tinglovchilari uchun imkoniyatlar ochdi. Onlayn kurslar va dasturlar, shuningdek, tinglovchilarga o‘z tezligi va jadvali bo‘yichao‘qish imkonini beradi, bu esa ish yoki oila kabi boshqa majburiyatlarga ega bo‘lganlar uchun ta’limni yanada qulayroq qiladi.



3-rasm. Bulutli kompyuter xizmatining modellari.

Ta’limda raqamli texnologiyaning ko‘plab afzalliklariga qaramay, hal qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi muammolar ham mavjud. Raqamli tafovut eng katta muammolardan biridir. Barcha tinglovchilar kerakli raqamli qurilmalarga yoki ishonchli internet ulanishlariga ega emas, bu esa o‘rganish imkoniyatlaridagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun barcha tinglovchilar raqamli ta’limda to‘liq ishtirok etish uchun zarur raqamli texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim texnologiyaning biz zamonaviy ta’limdagi roli muhim va keng qamrovli ekanligiga ishonamiz. Bu bizning o‘qitish va o‘rganish uslubimizni o‘zgartirish, ta’limni yanada qulayroq, qiziqarli va interaktiv qilish imkoniyatiga ega. Biroq, ta’limda raqamli texnologiya bilan bog‘liq muammolarni hal qilish muhim, masalan, raqamli tafovut va chalg‘itish ehtimoli. Shunday qilib, biz texnologiyani o‘rganishni yaxshilash va tinglovchilarni raqamli asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun samarali qo‘llanilishini ta’minlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi.

2. Maxmudov A. X., Anarbayeva F. U. Raqamli ta’limdapedagogik texnologiyalarni qo‘llashimkoniyatlari //Development issues of innovativeeconomy in theagricultural sector. –2021. –S. 476

3. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессионалном образовании: от личностно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образованиуа. – 2019. – № 1.

Ilyosjon SHERALIYEV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi assistenti Respublika patologik anatomiya markazi shifokori

COVID KASALLIGIDAN KEYINGI SINDROMDA O'PKANING PATOMORFOLOGIYASI (Klinik tashxisni korreksiyalash va davolash metodlarini tanlash hamda kasallik profilaktikasini amalga oshirish)

Annotatsiya

Maqolada postkovid sindromida o'pka to'qimalarida rivojlanadigan patologik o'zgarishlarni oqibati va asoratlarini oldindan prognozlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ikkilamchi proliferativ o'choqlarni morfogenezi, o'pka to'qimasidagi sklerotik o'zgarishlar, morfofunktsional buzilgan bronx o'pka segmentlaridagi chegralangan sohalardagi o'ziga xos jihatlarini ochib berish orqali reabilitatsiya qilish jarayonini aniq mezonlar orqali taktik davolash samaradorligi uchun tavsiyalar ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Tayanch so'zlar. Kasallik, sindrom, mushak, pnevmoniya, tashxis, o'pka, norfogenez, simptom, to'qima, patofiziologiya, reabilitatsiya, intensiv terapiya.

В статье прогнозируются последствия и осложнения патологических изменений, развивающихся в легочной ткани при постковидном синдроме, обсуждается морфогенез возможных вторичных пролиферативных очагов, склеротических изменений легочной ткани, морфофункциональных опухолей бронхов, разработать рекомендации по эффективности тактического лечения по конкретным критериям реабилитационного процесса путем выявления особенностей ограниченности участков сегментов ПКА.

Ключевые слова. Заболевание, синдром, мышца, пневмония, диагностика, легкое, норфогенез, симптом, ткань, патофизиология, реабилитация, интенсивная терапия.

The article predicts the consequences and complications of pathological changes developing in the lung tissue in post-COVID syndrome, discusses the morphogenesis of possible secondary proliferative foci, sclerotic changes in the lung tissue, morphofunctional tumors of the bronchi, and develops recommendations on the effectiveness of tactical treatment according to specific criteria of the rehabilitation process by identifying the features of the limitations of the areas of the RCA segments.

Key words. Disease, syndrome, muscle, pneumonia, diagnostics, lung, norphogenesis, symptom, tissue, pathophysiology, rehabilitation, intensive care.

2019-yil koronavirus infeksiyasi (COVID-19) – SARS-CoV-2, ya'ni og'ir o'tkir nafas olish sindromi koronavirusi keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik hisoblandi. Kasallik ilk marotaba 2019-yilda Xitoyning Uxan shahrida aniqlandi va global miqyosda tarqalib, 2019-2020-yillardagi koronavirus pandemiyasini keltirib chiqardi. Kasallik yuqori harorat, yo'tal hamda nafas olishni mushkullashishi kabi simptomlarni keltirib chiqaradi. Ayrim holatlar mushaklar og'rishi, balg'am ajralishi hamda tomoq og'rishi kuzatiladi. Virus yuqtirganlarning aksarida yengil simptomlar yuzaga kelsa-da ayrim bemorlarda kasallik og'ir pnevmoniya hamda bir necha organ

faoliyatining ishdan chiqishiga olib keladi. Tashxis qo‘yilgan holatlar orasida o‘limlar ko‘rsatkichi o‘rtacha 3,4 foizni tashkil qiladi. 20 yoshga to‘lmaganlar orasida bu ko‘rsatkich 0,2 foizni, 80 yoshdan o‘tganlar orasida 15 foizni tashkil qiladi. Og‘ir o‘tkir respirator sindrom virusi-2 SARS-CoV-2 sabab bo‘lgan yangi COVID-19 koronavirus infektsiyasi avj olganligiga bugungi kunda to‘rt yil o‘tdi. COVID-19 - bu jamoat sog‘lig‘ini saqlash sohasi va ijtimoiy strukturalarga chuqur globar iqtisodiy inqirozi orqali o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. COVID-19 vaktsinalarining paydo bo‘lishi SARS-CoV-2 infektsiyasi xavfini samarali ravishda kamaytirdi va o‘tkir infektsiyadan keyin o‘lim holatlari va kasallikning og‘ir darajalarining oldi olindi. Biroq, COVID-19 dan tuzalgan bemorlarning taxminan 10-30 foizi 3 oydan ortiq davom etadigan va o‘tkir kasallikdan keyin 28 kun ichida rivojlanadigan surunkali kasallikka duchor bo‘lishadi. Ushbu davom etayotgan sog‘liq holatlari bo‘yicha kuzatilayotgan muammolar COVID-19 dan keyingi sindrom yoki COVID-19 sindromi deb ataladi, ammo “SARS-CoV-2 ning o‘tkir asoratlari” (PASC) deb ham ataladi. Vafot etmasdan olgan bemorlar tomonidan bildirilgan PASC belgilari o‘zaro bir-biridan farq qiladi, ammo umumiy simptomlar bo‘lib, charchoq, uyqusizlik, nafas siqilishi va yo‘talni o‘z ichiga oladi. PASC ning bir qismi o‘tkir o‘pka PASC infektsiyasidan tuzalganidan keyin ham doimiy o‘pka simptomlari bezovta qilishda davom etadi. Yaqinda o‘tkazilgan yirik kogordagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, COVID-19 bilan kasallangan odamlarda qo‘shma kasalliklar, ayniqsa diabet, shuningdek, yurak qon-tomir va buyrak kasalliklarini rivojlanish xavfi yuqori hisoblanadi. PASC holatlarining global miqyoda tarqalishi va COVID-19 dan omon qolganlarning organizmida qoldirgan oqibatlari ularning hayot sifati va nogironlikka olib kelgan umr yillariga ta’sirini inobatga olgan holda, PASC sog‘liqni saqlash infratuzilmasi uchun bugungi kunda jiddiy global muammo bo‘lib qolmoqda.

COVID-19 odatda faqat yengil simptomlarni keltirib chiqaradi, lekin ayrimlar qattiq kasal bo‘lishi mumkin. Bu odatda, qariroq odamlar yoki oldindan kasal bo‘lganlarga tegishli. Shu sababli har kim aholi orasida infeksiyaning tarqalishini sekinlashtirishga yordam berishi muhim. Buni mahalliy va milliy darajada belgilangan qoida va tartiblarga har doim amal qilish orqali bajarishingiz mumkin. Infeksiya yuqtirib olganingizdan COVID-19 simptomlarini his qilguningizgacha odatda 4-5 kun vaqt ketadi. Infeksiya yuqtirib olganlarning ko‘pchiligida simptomlar 10 kun ichida ko‘rinadi. Simptomlari paydo bo‘lishidan 1-2 kun oldin va simptomlarning birinchi kunida siz kuchli infeksiya tarqatuvchi bo‘lasiz. Postkovid sindromida o‘pka to‘qimalarida rivojlanadigan patologik o‘zgarishlarni oqibati va asoratlarini oldindan prognozlash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi proliferativ o‘choqlarni morfogenezi, o‘pka to‘qimasidagi sklerotik o‘zgarishlar, morfofunktsional buzilgan bronx o‘pka segmentlaridagi chegaralangan sohalardagi o‘ziga xos jihatlarini ochib berish orqali reabilitatsiya qilish jarayonini aniq mezonlar orqali taktik davolash samaradorligi uchun tavsiyalar ishlab chiqariladi. O‘pka to‘qimasida yuzaga keladigan gipertenziya oqibatida rivojlanadigan o‘pka-yurak patologiyasining morfofunktsional jixatlari ochib beriladi.

O‘pka to‘qimasi segmentlarida bronx drenaj ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Dunyoda covid-19 pandemiyasidan keyin rivojlangan ikkilamchi asoratlarning keskin ko‘payishi, ayniqsa, surunkali kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarda qon kasalliklari va yo‘ldosh kasalliklarni assotsiatsiyalangan ko‘rinishda yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. AQSH va Yevropa davlatlarida postkovid sindromi nomi bilan yuzaga kelgan o‘pka, oshqozon osti bezi, yurak, buyrak va tayanch tizimi a’zolaridagi o‘zgarishlarning yuzaga kelishi 2020-yilning oxiri 2021-yildan boshlab

keskin sur'atlarda o‘sishi, aynan o‘pka to‘qimasida karnifikatsiyalanish (o‘pka to‘qimasini go‘shtlashishi) jarayoni, kichik qon aylanish doirasida gipertenziyaning yuzaga kelishi va bunga javoban o‘pka yurak yetishmovchiligi bilan bog‘liq o‘lim ko‘rsatkich 3,4% dan 31,4% oshganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga postkovid sindromlarida o‘pka yurak tizimidagi morfofunktsional o‘zgarishlar oqibatida barcha parenximatoz a'zolarda gemodinamik o‘zgarishlarning yuzaga kelishi, ayniqsa, jigar to‘qimasida gipofunktsional holatining yuzaga kelishi oqibatida, o‘pka to‘qimasida yuzaga kelgan membranoz shishlar va o‘pka to‘qimasining fibrosklerozi haqidagi ma'lumotlar morfologik jihatdan to‘la to‘kis o‘rganilmaganligi va klinik morfologik jihatdan davolash taktikasi uchun aniq bir mezonlar hali-hanuzgacha taklif etilmaganligi, ushbu mavzuning dolzarbligini anglatadi. Postkovid sindromida o‘pka to‘qimasida yuzaga keladigan morfologik peyzajning turli-tuman ko‘rinishda yuzaga kelganligi, bemor hayot anamnezida to‘la-to‘kis aks etmaganligi patologiyani yashirin tarzda davom etishi va klinik morfologik belgilarning boshqa kasalliklar fonida qolishi bilan davom etishi, aksariyat, mehnatga layoqatli kontingentda yuzaga kelishi kutilmagan yuqori darajada detal ko‘rsatkichlar bilan tugallanadi.

Postkovid sindromida asosan shikastlanishlar parenximatoz a'zolardagi ikkilamchi sklerotik o‘zgarishlar bilan namoyon bo‘lishi, sanogenez va tanotogenez mexanizmini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. MDX davlatlarida postkovid sindromi tushunchasi ostida yuzaga kelgan ikkilamchi o‘zgarishlar dastavval Rossiya federatsiyasi olimlari tomonidan 2020-yil may oyidan "hayotiy muhim a'zolardagi to‘qima va qon tomir oralig‘ida siyrak va dag‘al tolali tuzimalarning keskin ko‘payishi, a'zolarning morfofunktsional ko‘rsatkichlarini keskin kamayishi bilan davom etadi..." COVID dan keyin shifokorlar o‘z oldilariga quyidagilarni vazifa qillib qo‘ydilar:

– postkovid sindromida o‘pkalarning morfologik jihatlarini o‘rganish;

– postkovid sindromida o‘pka to‘qimasini morfometrik ko‘rsatkichlarini o‘rganish;

– postkovid sindromida o‘pka to‘qimasini immunogistokimyoviy tekshirish orqali olingan o‘zgarishlarni o‘rganish va baholash;

– postkovid sindromida o‘pkalarning morfologik, immunogistokimyoviy va morfometrik xos o‘zgarishlar asosida baholash va klinik morfologik tashxislash algoritmini ishlab chiqarish.

Klinik morfologik tashxislash algoritmini ishlab chiqarish orqali, postkovid sindromida bemorlarni reabilitatsiya qilish, morfounktsioanal jihatlarini aniq mezonlar asosida tavsiyalar berish bilan xarakterlanadi. Postkovid sindromida yuzaga kelishi mumkin sanogenez va tanotogenez mexanizmlarini prospektiv baholash va ularga qarshi davo choralarini qo‘llash uchun tavsiyalar taklif etish imkoni paydo bo‘ladi.

Virusning uzoq vaqt davom etishi COVIDga yordam beradigan potentsial mexanizmlarga virus bilan bog‘liq patofiziologik o‘zgarishlar (masalan, mikrokoagulyatsiya), o‘tkir infektsiya natijasida kelib chiqadigan immunologik va yallig‘lanish disregulyatsiyasi va og‘ir kasalligi bo‘lgan bemorlarda kasallikning ma'lum oqibatlari (intensiv terapiyadan keyingi sindrom) kiradi. Lancet Respiratory Medicine jurnalining COVID-19 ning o‘tkir oqibatlarga bag‘ishlangan sonida og‘ir kechuvchi o‘tkir COVID-19 ning nafas olish, neyrokognitiv, psixologik va sistemali oqibatlariga e'tibor qaratgan holda koviddan keyingi sindromning diagnostikasi, davolashi va boshqaruvi to‘g‘risidagi ma'lumotlar muhokama qilingan. Koviddan keyingi sindrom uchun ma'lum bo‘lgan xavf omillari orasida o‘tkir kechuvchi og‘ir kasalliklar, qo‘shma kasalliklar (masalan, qandli diabet

va surunkali yurak yetishmovchiligi) va o‘pkaning invaziv sun’iy ventilyatsiyasi kabi hayotni saqlab qoluvchi muhim davolash usullari kiradi. Ma’lum qilinishicha, COVID-19 dan omon qolganlarning 30 foizi kasalxonaga yotqizilganidan keyin holsizlikni boshdan kechiradilar. Covid dan keyingi sindromning yashirin xususiyatlaridan biri shundaki, u COVID-19 bilan kasallangan odamlarda kasallikning har qanday og‘irlik darajasida ham ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Coviddan keyingi sindromning hatto yengil va o‘rtacha og‘ir darajadagi bemorlarga, shuningdek, nafas olishni qo‘shimcha ravishda yengillashtirishni talab qilmagan, kasalxonaga yotqizishga yoki intensiv terapiya muolajalariga muhtoj bo‘lmagan yoshi kichik insonlarga ham ta’sir qiladi. SARS-CoV-2 uchun ijobiy natija bo‘lmagan, bundan tashqari kasalxonadan chiqarilgan bemorlar, shuningdek, ambulator davolanishdagi bemorlarda ham Coviddan keyingi sindrom rivojlanishi mumkin. Yana bir tashvishli holat shundaki, Covid dan keyingi sindrom bolalarga, shu jumladan COVID-19 asimptomatik tarzda kechgan bemorlarga ham ta’sir qiladi, bu nafas siqilishi, charchoq, mialgiya, kognitiv buzilishlar, bosh og‘rig‘i, yurakning tez urishi va ko‘krak qafasidagi og‘riq kabi alomatlarga olib keladi, bu esa kamida 6 oydan kam bo‘lmagan vaqt davom etadi.

O‘pka to‘qimalarida va har xil turdagi o‘choqli (ekssudativ bosqichda jarayonni tarqalish maydoni bilan aniqlanadi) tarqaluvchi fibroproliferativ jarayonlar o‘choqli pnevmofibroz rivojlanishiga olib keladi. Ekssudativ pnevmoniya yoki pnevmonitni va qoida tariqasida, ayniqsa interalveolyar kapillyarlarda eritrotsitlar trombining ko‘p shakllanishini o‘z ichiga oladi va bu miofibroblastlarning ko‘payishi, bronxoalveolyar epiteliyning giperplaziyasi va metaplaziyasi, fibroz-kostoz remodelyatsiyasi va ikkilamchi emfizem o‘choqlarining shakllanishi bilan kechadi. Koviddan keyingi o‘pkaning interstitsial shikastlanishi bo‘lgan bemorlarda o‘pka fibrozi rivojlanishi, nafas olish yetishmovchiligi va nafas siqilishi, yo‘tal, balg‘am kuzatiladi. Mazkur ko‘rinishlar boshqa organlarning disfunktsiyasi bilan birlalikda kelishi mumkin.

Myroshnychenko MS, Pasiyeshvili NM, (2023) koviddan keyingi sindromda o‘pkaning morfologik xususiyatlarini ko‘rib chiqqanlar. Autopsiya materiallari – 96 nafar murdalar (59 erkak va 37 ayol) o‘pka to‘qimalarining bo‘laklaridan foydalanildi. Anamneziga ko‘ra o‘limiga qadar hayoti davomida barcha bemorlarda turli darajadagi COVID-19 aniqlangan bo‘lib va ushbu infektsiyani davolashdan so‘ng ularda nafas olish yetishmovchiligining turli darajalari kuzatilgan. Koviddan keyingi davrning o‘rtacha davomiyligi 148,6±9,5 kunni tashkil etdi. Kasallik tarixida COVID-19 ning og‘irlik darajasiga qarab, barcha holatlar uchta guruhga bo‘lingan. 1-guruhga yengil COVID-19 bilan og‘rigan 39 nafar bemor kiritilgan. 2-guruhga o‘rtacha og‘irlikdagi COVID-19 bilan kasallangan 24 nafar bemor kiritilgan. 3-guruhga og‘ir darajada COVID-19 bilan kasallangan 33 nafar bemor kiritilgan. Tadqiqotda gistologik, gistokimyoviy, morfometrik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Koviddan keyingi sindromda o‘pkadagi bo‘ladigan morfologik o‘zgarishlar ya’ni pnevmosklerozning rivojlanishi, immun hujayrali lokal-diffuz infil’tratsiya; emfizematoz va atelektik o‘zgarishlar; alveola epiteliysida alterativ o‘zgarishlar; biriktiruvchi to‘qimalarda metaplastik o‘zgarishlar; distrofik kalsifikatsiya; bronxial daraxtning epiteliy qavatida distrofik o‘zgarishlar, metaplastik va displastik o‘zgarishlar; gemodinamik buzilishlar kuzatilishi mumkin deb xulosa qilindi.

Pnevmoskleroz, immunitet hujayralarning o‘choqli-diffuz infiltratsiyasi, alveola epiteliysidagi alterativ o‘zgarishlar, emfizematoz va atelektik o‘zgarishlar va gemodinamik buzilishlar COVID-19 kuchayishi bilan mazkur jarayonlar ham tezlashib boradi. Biriktiruvchi to‘qimadagi metaplastik o‘zgarishlar, distrofik kaltsinoz, bronxial daraxtning epiteliy

qavatidagi distrofik, metaplastik va displastik o‘zgarishlar infektsiyaning og‘irligiga bog‘liq bo‘lmaydi. Mualliflar tomonidan aniqlangan o‘zgarishlar koviddan keyingi sindromning o‘pka ko‘rinishini tushuntirishga yordam beradi. Ular shifokorlarda o‘sma jarayonlariga shubhani shakllantirish, bemorlarning ushbu toifasi uchun reabilitatsiya va terapevtik tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi kerak. O‘pka fibrozi – o‘pka to‘qimalarining progressiv chandiqlari bilan tavsiflangan, o‘pka funksiyasiga ta’sir qiluvchi va gaz almashinuvi va nafas olish qiyinlishuviga olib keladigan interstitsial o‘pka kasalligi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda o‘pka fibrozi bilan kasallanish sezilarli darajada oshib bormoqda. O‘pka fibrozining rivojlanishi qarish jarayoni, chekish, genetik moyillik, kasbga bog‘liq chang va asbest ta’siri kabi ko‘plab xavf omillari bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘pka fibrozi bo‘lgan bemorlarda kasallikning rivojlanishini to‘xtatish uchun samarali davolash usullari bugungi kunda yo‘qligi sababli o‘lim xavfi ortib bormoqda. COVID-19 atipik pnevmoniyaga olib kelishi mumkin bo‘lib, bu o‘pkaning o‘tkir shikastlanishi va o‘tkir respirator distress sindromiga (O‘RDS) olib kelishi mumkin. COVID-19 bilan bog‘liq alomatlar yuqori nafas yo‘llarining yengil shikastlanishidan tortib o‘pka fibrozi tufayli uzoq muddatli kislorod terapiyasini talab qiladigan og‘ir o‘tkir respirator disstres sindromi (O‘RDS) gacha olib kelishi mumkin. O‘pka fibrozi rivojlangan COVID-19 bemorlarida o‘lim xavfi ortib boradi, chunki o‘pka fibrozi nafas yetishmovchiligiga olib keladigan va yomon prognoz bilan bog‘liq bo‘lgan progressiv kasallik sanaladi. O‘pka transplantatsiyasi natijalarni yaxshilash uchun ko‘rsatilgan yagona davolash usuli hisoblanadi. COVID-19 ning hayot uchun xavfli asoratlari rivojlanishi oqibatida endoteliy hujayra disfunktsiyasi, qonning mikrotsirkulyator disfunktsiyasiga, bu esa venoz tromboembolik kasallik va ko‘p a’zolarning shikastlanishi kabi asoratlarni rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. O‘pka fibrozini aniqlashning zamonaviy usullari to‘qima namunalarini gistologik tekshiruvi va kompyuter tomografiyasi yordamidagi nurli tashxisot tekshiruvini o‘z ichiga oladi. Gistologik tahlil natijalariga ko‘ra, fibroz ko‘rinishini, kollagen maydoni fraktsiyasi va hujayra lokalizatsiyasi kuzatilishi mumkin. Gistopatologik tasvirlar bo‘yicha baholangan kollagen zonasi fraktsiyalari fibrozning gistologik ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro kuchli bog‘liqdir va bu fibroz miqdorini aniqlash uchun ishonchli indeksni beradi.

Olimlar ishlab chiqilgan modelning simulyatsiya natijalarini solishtirish uchun gistologik tahlildan kollagen sohasi fraksiyalaridan foydalanganlar. Uzluksiz yangilanish va parallel rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun modulli va kengaytiriladigan bo‘lish uchun maxsus ishlab chiqilgan epiteliy to‘qimalari, virusli infeksiya, hujayrali immun reaksiyasi va to‘qimalarning shikastlanishini ko‘p o‘lchamli fazoviy-vaqtli modellashtirish uchun ochiq manba platformasidan foydalanildi. Epiteliy to‘qimalarining soddalashtirilgan sohasini va immun reaksiyasini asosiy modellashtirish keng tarqalgan infeksiyani kamaytirish va tozalashgacha bo‘lgan infeksiya dinamikasining aniq namunalarini ko‘rsatadi. Virusning sekinroq internalizatsiyasi va immun hujayralarining tezroq to‘planishi infetsiyani sekinlashtiradi va uni ushlab turishga yordam beradi. Antivirusli preparatlar nojo‘ya ta’sirga ega bo‘lishi va keyinchalik infeksiya vaqtida qo‘llanilganda klinik samaradorlikni pasaytirishi mumkinligi sababli, biz davolash samaradorligining rivojlanishiga ta’sirini va infeksiyadan keyin birinchi davolash vaqtini ko‘rib chiqdik. Simulyatsiyalarda, hatto virusli RNK replikatsiyasi tezligini kamaytiradigan dori bilan past quvvatli terapiya infeksiyaning boshida berilganda umumiy to‘qimalarning shikastlanishi bu virus yukini sezilarli darajada kamaytirdi.

Dozalash va davolash vaqtining ko‘p kombinatsiyasi sitotoksik natijalarga olib keladi,

ba’zi simulyatsiya replikatsiyalari tozalash yoki nazoratni (davolash muvaffaqiyati), boshqalari esa barcha epiteliy hujayralarining tez infitsirlanishini (davolash muvaffaqiyatsizligi) ko‘rsatadi. Shunday qilib, yuqori quvvatli terapiya, odatda, keyinroq qo‘llanilganda bu samarasiz bo‘lsada, keyinroq davolanish ba’zan samarali hisoblanadi.

